



NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY, MASOFAVIY KONFERENSIYASI



**“INNOVATIVE PUBLICATION”- ILMIY TADQIQOTLARNI
QO’LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY
TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI” NOMLI № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO’PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**





**Ushbu to’plamda “NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR
ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”
NOMLI ILMIY, AMALIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYANING 2025-yil
12 soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan**

**Konferensiya materiallaridan professor-o’qituvchilar, mustaqil
izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va
maktab o’qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga
qiziquvchilar foydalanishlari mumkin**

**Konferensiya to’plami Google scholar va bir qancha boshqa bazalarda
indekslanadi. Konferensiya ishtirokchilari quyidagi yo’nalishlar bo’yicha
tezislarini yuborishlari mumkin:**

- **Pedagogika fanlari**
- **Aniq fanlar**
- **Filologiya fanlari**
- **Ijtimoiy-gumanitar fanlari**
- **Tibbiyot fanlari**
- **Iqtisod fanlari**
- **Yuridik fanlari**
- **Tabiiy fanlar**

**ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO’PLAMIGA KIRITILGAN
MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA’LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN
IQTIBOSLAR TO’G’RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.**

**Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning integrativ-metodik
tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni****Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiysi***Kirish**

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirish muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalarning integrativ-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda samarali pedagogik imkoniyat yaratadi. Mazkur mashg'ulotlar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, talabalarning ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, auditoriyadan tashqari ta'lim jarayonining mazmunini ilmiy-metodik asosda takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar davomida talabalarning integrativ-metodik refleksiv va integrativ-metodik tadqiqiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari katta bo'lib, ushbu maqsadga talabalarning mustaqil ta'limi, pedagogik amaliyot davomida, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishlari davomida erishish imkoniyatlari katta.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda auditoriya tashqarisidagi faoliyatning quyidagi asosiy funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

- kompensatorlik funksiyasi, ya'ni o'quv jarayonida yetarli darajada shakllanmagan kasbiy va ijtimoiy malakalarning auditoriya tashqarisidagi faoliyat orqali rivojlanishini ta'minlash.
- motivatsion funksiyasi, ya'ni talabalarning o'z faoliyati natijalariga javobgarligini his qilish orqali kasbiy o'sishga bo'lgan ichki ehtiyojlarini rag'batlantirish.
- kreativ funksiyasi, ya'ni talabalarning ijodiy fikrlash, tashabbus ko'rsatish va innovatsion faoliyatga jalb etish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- kommunikativ funksiyasi, ya'ni guruhda ishlash, hamkorlik qilish, nizolarni hal qilish va ijtimoiy rollarni egallash kompetensiyalarini shakllantirish.
- axloqiy-tarbiyaviy funksiyasi, ya'ni talabalarning shaxsiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish.

Auditoriya tashqarisidagi faoliyatda integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

1. Shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash: talabaning shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va motivlarini hisobga olish, uning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash.



2. Ijtimoiy hamkorlik sharoitlarini yaratish: guruhli loyihalar, klublar, ilmiy jamiyatlar, volontyorlik faoliyati va jamoat ishlari orqali ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash: loyiha-metodik ta'lim, treninglar, biznes-o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar va boshqa zamonaviy uslublar orqali kasbiy malakalarni mustahkamlash.

4. Refleksiv tahlil va baholash mexanizmlarini joriy etish: talabalarning o'z rivojlanishini muntazam kuzatib borish va tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish, ularning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish.

Shunday qilib, auditoriya tashqarisidagi faoliyat integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ta'lim jarayonining muhim va samarali tarkibiy qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi[1;2;3;4].

Andragogik tamoyillar ta'lim jarayonining mazmuniga quyidagi talablarni belgilaydi:

1. Talabalarga pedagoglar tomonidan kasb va jamiyat talablarini, ularning bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish darajasi hamda mazmunini anglashda yordam berish; shaxsiy xarakteristikalarini diagnostika qilish va tahlil qilish hamda ularni model xarakteristikalar bilan solishtirish; shaxsiy o'sish va takomillashuv uchun individual strategiyani ishlab chiqish; mustaqillik va ta'lim jarayoniga ongli munosabatni rivojlantirish;

2. Pedagoglar tomonidan ta'limda elektivlik, kontekstualik va muammoli yondashuvni ta'minlash, hamkorlik muhitini yaratish, ta'lim ishtirokchilari o'rtasida hamjihatlikni tashkil etish, talabalarni rivojlantirishda individual yondashuvni amalga oshirish;

3. Vitagen ta'lim vositalarini qo'llash, faol ta'lim usullarini, jumladan biznes va rol o'yinlari, munozaralar, “kasbiy janglar” kabi metodlarni qo'llash.

Rol o'qitish quyidagi jihatlar bilan bog'liq: rol mohiyati, ahamiyati va unga mos normalar to'g'risida to'liq ma'lumot mavjudligi (axborot jihat); shaxsning ushbu rolni bajarishga, jamiyatning kutishlariga, qoidalariga moslashishga intilishi (motivatsion jihat); rolni o'rganish, vazifalar va huquqlarni bajarish imkoniyati mavjudligi (faoliyat jhati)[5;6;7].

Shaxsiy rol nazariyasi va unga asoslangan tizimli-rol nazariyasi talabalar integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagi shart-sharoitlarni ta'kidlaydi: ijtimoiy rollar va kasbiy funksiyalar mohiyati haqida to'liq, tizimli ma'lumot mavjudligi va talabalarga mustahkam singdirilishi; talabalarda ijtimoiy rollar va kasbiy funksiyalarni ongli ijobiy qabul qilish uchun motivatsion ta'sirlarni tashkil etish; ijtimoiy va kasbiy haqiqat kontekstini aks ettiruvchi rolli va ishchi vaziyatlarni yaratish (jumladan, roli va ishchi o'yinlarning mavzuli kontenti), bu yerda talabalar munosib xulq-atvor, muloqot va faoliyat usullarini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Talabalar mustaqil ishlarini o'quv vaqtida (ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida) pedagog nazorati ostida, shuningdek, o'quv vaqtidan tashqarida bajaradilar. Mustaqil ishlar individual va guruh shaklida tashkil qilinishi mumkin. Ularning



maqsadi bilimlarni egallash, faoliyatga jalb qilish, umumlashtirish, kasbiy vazifalarni hal qilish hamda ijodiy va ilmiy faoliyat tajribasini oshirishdan iborat. Talabalarni mustaqil amaliy ishga jalb qilish ta'lim sifatini oshirish, o'zini to'g'ri baholash, ishga jiddiy yondashish va javobgarlikni

kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalarning integrativ-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim o'quv-pedagogik resurs sifatida xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlar orqali talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, fanlararo bog'liqlikni chuqur anglaydi hamda amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Integrativ yondashuv esa ta'lim jarayonining uzviyligini ta'minlab, talabalar tafakkurini kengaytiradi, ijodiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu sababli auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning mazmunini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar va integrativ metodlardan samarali foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Natijada zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan, puxta metodik tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кочнева, Е.М. Структура мотивационной готовности к профессиональной деятельности студентов вуза / Е.М. Кочнева // Научное обозрение. 2010.-№1.-С.103-108.
2. Методические рекомендации по диагностике сформированности ключевых компетентностей педагога / Под ред. Г.А. Гуртовенко. - Красно ярск: КК ИПК РО, 2011. - 46с.
3. Мухаметзянова, Г.В. Методология и опыт инновационной деятельности в системе профессионального образования: монография / Г.В. Мухаметзянова [и др.]. - Казань: Медицина, 2011. - 406с.
4. Платов, В.Я. Деловые игры: разработка, организация и проведение / В.Я. Платов. - М.: Профиздат, 1991. - 122с.
5. Маркова, А.К. Психология профессионализма / А.К. Маркова. - М.: ЭКСМО, 2010.-308с.
6. Селевко, Г.К. Энциклопедия образовательных технологий : в 2 т. Т. 1 / Г.К. Селевко. - М. : НИИ школьных технологий, 2006. - 512
7. Сергеева, В.П. Проектно-организаторская компетентность учителя в воспитательной деятельности / В.П. Сергеева. — М.: Перспектива, 2007. 96с.



KICHIK BIZNESNI RIVOJLANISHI VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI UZLUKSIZ MOLIVAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHI

Karimova Mavjuda Boxodirovna

NamDTU, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası katta o‘qituvchisi

mavjudakarimova2@gmail.com

+998934073047

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznesni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: biznes, foyda, daromad, naf olish, tadbirkorlik faoliyati, maksimal foyda.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется изучению вопросов финансовой поддержки предпринимательской деятельности в развитии малого бизнеса.

Ключевые слова: бизнес, прибыль, доход, получение прибыли, предпринимательская деятельность, максимальная прибыль.

Abstract. In this article, special attention is paid to the study of issues of financial support for entrepreneurial activity in the development of small business.

Keywords: business, profit, income, profit, entrepreneurial activity, maximum profit.

Kirish

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining biznes loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish va ishga tushirish, sotuv bozorlarini kengaytirish, xususiy investitsiya sheriklarini jalb qilish, biznes rejalar va texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish va biznesni tashkil etish hamda yuritish bilan bog‘liq boshqa yo‘nalishlarda, innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, kambag‘allik darajasini pasaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali rivoji uchun huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.[1]

Birinchi o‘rinda kichik biznes subyekti maksimal foyda olish uchun ishlab chiqarish xajmini aniqlab olishi kerak.

Biznes tushunchacining mazmun-mohiyatini tadqiq etish o‘z navbatida, japyon tushunchacini ham yopitishni taqozo etadi. Japyon bu ISO 9000:2000 tepminiga ko‘pa, o‘zapo bog‘liq yoki o‘zapo ta‘cip qiluvchi faoliyat tuplapi bapcha kipimlapining natijalapiga aylantipilishidip. Biznes japyoni iste‘molchi uchun nafililik kacb etuvchi, mavjud pecupclapdan foydalanib

mahsulot yoki xizmatlap yapatiladigan tupli xil faoliyatlap to‘plamidip. [1]

2023-yilning 18-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining



tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha «uzluksiz xizmatlar zanjiri»ni yaratish maqsadi qo'yildi.

«Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturi ishtirokchilarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash instrumentlari va ulardan foydalanish shartlari belgilandi. [2]

Pespublikamizda biznes pivojlanishining asosiy tamoyillari, tashkiliy-huquqiy asoslarini yopitish hamda xopij tajribacini o'rganish, biznesning pivojlanish xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatlarini asoslash hamda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish biznes sohasini yanada o'stirishga xizmat qiladi.

«Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturining tashkiliy-institutsional tuzilmasi va mutasaddi tashkilotlarning asosiy vazifalari tasdiqlandi.

Dasturni 2023 — 2026-yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilishi belgilandi.[3]

2023-yil 1-oktyabrdan boshlab Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash choralari etib quyidagilar belgilansin:

Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:

- tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2-yilgacha imtiyozli davr bilan 7-yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3-yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so'mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi;

- qiymati 1,5 milliard so'mgacha bo'lgan asosiy vositalarni 7-yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan qarzga berish;

24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi loyihalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihalariga bo'sh turgan davlat mulki obyektlari va yer maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko'rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan qiymatda ulushdor bo'lib kirish;

- innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startup loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so'mgacha grant mablag'larini ajratish;

Kichik biznesni konsultativ qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:

- litsenziya, ruxsatnoma va sertifikatlar olish masalalari, bojxona va soliq ma'muriyatchiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmiylashtirish;

- davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, yer uchastkalari va bino-inshootlarni sotib olish



yoki ijaraga olish va loyihalashtirish;

-tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, mavjud boshqa yengilliklar va imkoniyatlar bo'yicha ma'lumot va maslahatlar berish.

Demak, tadbirkoplik biznesning bip tupi bo'lib, foyda olish maqsadidagi yapatuvchanlik, ya'ni to'vap ishlab chiqarish va xizmat ko'pcatish faoliyatidip. Biznes iqtisodiy kategoriya sifatida kishilap o'rtasidagi dapomad, naf olish maqsadida xo'jalik faoliyatini yupitish yuzacidan bo'ladigan munosabatlap majmuasini ifodalaydi.

Xulosa

Yuqopidagi fikrlapdan xuloca qilgan holda, mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali rivoji uchun huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Biznes - bu jismoniy va yuridik shaxslapning bozop munocabatlap tizimidagi ishchanlik faoliyati hamda ishlab chiqarish hamda cervis sohadida dapomad olish va boshqa ijobiy samapadoplikka erishishga qapatilgan faoliyat turidip”.

Yoshlar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash sohasida “Yoshlar — kelajagimiz” jamg'armasi, tijorat banklarining imtiyozli kreditlari, startap va innovatorlar uchun grant dasturlari, biznes inkubatorlar va akseleratsiya markazlari orqali keng imkoniyatlar yaratilgan.

Shu tariqa, kichik biznes va yoshlar tadbirkorligini uzluksiz moliyaviy qo'llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy barqarorlikka, yangi innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etishga va mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekicton Pespublikaci Prezidentining 2016-yil 5 oktyabrdagi “Tadbirkoplik faoliyatining jadal pivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni xap tomonlama himoya qilishga va ishbilapmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doip qo'shimcha chora-tadbiplap to'g'pisida”gi PF-4848 conli fapmoni.

2.«Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 20 yanvar2024 yildagi 37-son «Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

4.Shodmonov Sh.Sh., B.E.Mamapaximov “Iqtisodiyot nazariyasi”. – T.: Iqtisod-moliya, 2016. – 65-b.

5.O'lmasov A., Vahobov A. “Iqtisodiyot nazariyaci” Toshkent “Iqtisod-moliya”, 2014. 32-b.

6. Karimova, M. (2023). Urgent Issues of Accounting for Fixed Assets in the Context of Modernization of the Country. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(10), 96-100.



7. Каримова, М. Б. (2023). УЧЕТ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МСФО. *Miasto Przyszłości*, 41, 27-32.
8. Sobirov, O. O., & Karimova, M. (2023). Problems of Effective use of Key Equipment in Enterprises. *International journal of Formal Education*, 2(6), 366-368.
9. Karimova, M. B. (2023). MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING ASOSIY YO’NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(6), 365-377.
10. Каримова, М. (2022). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР РЕНТАБЕЛЛИГИ ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 2(13), 83-89.
11. Ғаниева Н. А. и др. Тўқимачилик ва енгил саноат корхоналарига банк хизмати кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари // *Science and Education*. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 675-679.



СИСТЕМА СИНОНИМОВ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Тилевмурадова Фарида

Копалова Севинч

Зариббоева Файруза

Аннотация: В данной статье анализируется система синонимов в русском языке с лексико-семантической точки зрения, освещается внутренняя структура синонимических рядов, роль доминантной единицы, а также стилистические и прагматические дифференциалы. Объясняются функциональные функции синонимов в речи, их роль в создании выразительности и стилистических регистров. В статье на основе научного подхода изучается историческая динамика синонимической системы, критерии определения семантической дистанции и их значение в переводческой практике.

Ключевые слова: русский язык, синонимия, синонимические ряды, доминантная единица, стилистическое различие, семантическое ядро, выразительность, прагматика.

Синонимы являются наиболее активно используемым типом семантических отношений в лексической системе русского языка. Синонимы представляют собой совокупность единиц, близких по значению, но различающихся стилистическими, эмоциональными и сферами применения. Внутренняя структура синонимического слоя русского языка, его функциональные свойства в речи, принципы различения тонкостей значения являются важным направлением исследований в современной лексикологии, стилистике и прагматике. Тщательное изучение синонимической системы необходимо для совершенствования культуры речи, укрепления норм литературного языка и обеспечения точности в переводческой практике.

Главным критерием для синонимов в русском языке является наличие общего семантического ядра. Например, ряд «говорить – произносить – вещать – изрекать» имеет общее семантическое значение «говорить», но различаются знаки семантической и стилистической окраски: «говорить» – нейтральная единица, «вещать» – возвышенная, а «изрекать» – книжно-стилистическая. Так, в синонимическом ряду есть центральная (доминантная) единица, а остальные члены ряда оцениваются относительно этой единицы. Доминантная, как правило, стилистически нейтральна, имеет множество значений и широко используется. В этом отношении синонимическая система русского языка представляет собой широкое поле проявления парадигматических отношений. Синонимы играют особую роль в создании эмоционально-выразительной окраски речи. В русском литературном языке



такие средства речи, как субъективная оценка, образность, стилистический тон, выразительность, усиливаются за счет синонимической замены. Например, в ряду «жить – скончаться – погибнуть – преставиться», хотя единицы в ряду «жить – скончаться – преставиться» семантически близки по значению «умереть», «скончаться» ближе к научному и официальному стилю, «преставиться» выражает смерть по трагической причине, а «преставиться» имеет архаичный и религиозный оттенок. Этот аспект наглядно демонстрирует функциональную дифференциацию синонимов. Также синонимические средства в полной мере выполняют коммуникативную функцию, тонко дифференцируя содержание предложения. Принцип систематичности также играет важную роль в синонимии русского языка. Каждая синонимическая серия имеет свою внутреннюю структуру, в которой присутствуют семантическая общность, стилистические различия, антонимические и полисемантические связи. Определение семантической дистанции до синонима требует специфической методологии, подобно анализу металексических единиц. В лексикологии эта теория основывается не только на близости значений, но и учитывает употребление речи, прагматические факторы и социолингвистический контекст. Анализ системы синонимов в русском языке позволяет определить коннотативные компоненты, функционально-стилистическую нагрузку и стилистические регистры лексических единиц. Использование синонимов не статично, а динамично. Исторически и лингвистически наблюдается изменение положения некоторых синонимических единиц в стилистических слоях и семантических центрах. Например, встречаются случаи, когда некоторые единицы, считавшиеся в древности официальными или книжными, сегодня приобретают нейтральный тон, в то время как нейтральные единицы, наоборот, приобретают эмоционально-экспрессивный оттенок. Это явление объясняется постоянным развитием языка, социолингвистическими факторами, дискурсом средств массовой информации и влиянием интернет-коммуникации. С прагматической точки зрения, синонимы обеспечивают гибкость речи, позволяя выбирать стилистический вариант, соответствующий коммуникативной ситуации. Поэтому русские синонимы являются важным лингвистическим феноменом в процессе перевода: переводчик должен выбрать из ряда семантически эквивалентную и стилистически совместимую единицу. В противном случае может возникнуть семантическое отклонение или стилистическая несогласованность. Работа с синонимическими рядами считается высоким уровнем речевой культуры.

В заключение, система синонимов в русском языке представляет собой сложный и многоуровневый лексический феномен, научный анализ которого требует глубокого изучения семантических, стилистических, прагматических и функциональных аспектов. Синонимы расширяют выразительные и эмоциональные возможности языка,



обогащают речь тонкими различиями в значении и повышают эффективность коммуникативного процесса. Поэтому изучение синонимической системы имеет первостепенное значение не только для лингвистической теории, но и для практической речевой культуры и переводоведения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Виноградов В. В. О. Язык божественной литературы. — Москва, 1959.
2. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика. — Москва: Наука, 1974.
3. Кузнецов С. А. Большой интерпретативный словарь современного русского языка. — Санкт-Петербург: Норинт, 2005.
4. Горшков А. И. Современный русский язык. Лексикология. — Москва: Академия, 2001.
5. Розенталь Д. Е., Теленкова М. А. Словарь лингвистических терминов. — Москва: Просвещение, 1985.
6. Арутюнова Н. Д. Лингвистическая семантика и лексикография. — Москва: Языки славянской культуры, 1999.
7. Ханпира А. Т. Синонимия в русском языке. — Ленинград: ЛГУ, 1972.

**NAVOIY LIRIKASIDA MUHABBAT VA MA'NAVIY POKLIK TIMSOLLARI****Quldoshova Sadoqat Komil qizi**

Navoiy inovatsiyalar universiteti 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy lirikasida muhabbat va ma'naviy poklik g'oyalarining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shoir asarlarida ilohiy va dunyoviy muhabbat uyg'unligi, inson qalbining komillikka intilishi hamda ruhiy poklanish yo'li yoritiladi. Navoiy g'azallarida muhabbat nafaqat insoniy tuyg'u, balki insonni Olohga yaqinlashtiruvchi ilohiy kuch sifatida talqin etiladi. Maqolada shoir lirikasidagi ramz va timsollar, badiiy vositalar orqali ifodalangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается художественное воплощение идей любви и духовной чистоты в лирике Алишера Навои. Автор показывает, как в его поэзии сочетаются земная и божественная любовь, как человек стремится к совершенству через внутреннее очищение. Любовь в поэзии Навои представлена не только как человеческое чувство, но и как сила, приближающая человека к Богу. В статье анализируются символы и художественные средства, через которые поэт раскрывает духовно-нравственные ценности.

Annotation: This article explores the artistic representation of love and spiritual purity in the lyrics of Alisher Navoi. The study highlights the harmony between divine and earthly love in his poetry, as well as the human pursuit of moral and spiritual perfection. In Navoi's works, love is depicted not only as an emotional feeling but also as a divine power that brings a person closer to God. The article analyzes the symbols and poetic devices through which Navoi conveys moral and spiritual values.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, lirika, muhabbat, ma'naviy poklik, tasavvuf, komillik, ilohiy g'oya, ramz, timsol.

Ключевые слова: Алишер Навои, лирика, любовь, духовная чистота, суфизм, совершенство, божественная идея, символ.

Keywords: Alisher Navoi, lyric poetry, love, spiritual purity, Sufism, perfection, divine idea, symbol, imagery.

KIRISH

Alisher Navoiy — nafaqat turkiy adabiyot, balki jahon ma'naviy tafakkuri tarixida beqiyos o'rin tutgan ulug' mutafakkir, shoir va faylasufdir. Uning badiiy merosi insoniyatni ma'naviy kamolot sari chorlovchi yuksak g'oyalar, axloqiy qadriyatlar, muhabbat, poklik va komillik timsollariga boy. Navoiy lirikasining asosiy g'oyaviy mohiyatini insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, ilohiy muhabbat sari intilishi tashkil etadi. Shoir asarlarida muhabbat



tushunchasi oddiy hissiy holat emas, balki insonni o'zligini anglash, poklanish va Haqqa yaqinlashish yo'lidagi ruhiy sinov sifatida talqin qilinadi.

Navoiy lirikasida dunyoviy va ilohiy muhabbat uyg'un holda tasvirlanadi. U sevgi orqali insonni komillikka yetaklovchi kuchni ko'radi, shu bois uning g'azallarida muhabbat faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki butun borliqni yorituvchi ilohiy nurning ramzidir. Shoirning “Lison ut-tayr”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Layli va Majnun” kabi asarlarida inson qalbining tozalanishi, o'zlikni anglash, ma'naviy barkamollikka erishish masalalari chuqur falsafiy ma'noda ifodalangan.

Navoiy ijodida ma'naviy poklik g'oyasi tasavvuf falsafasi bilan chambarchas bog'liq. Tasavvufda poklik – bu insonning nafsdan xalos bo'lib, qalban yuksalish holatidir. Shoirning lirikasida bu jarayon muhabbat orqali ro'y beradi. Muhabbat insonni har qanday g'aflatdan ozod etuvchi, uni Haqqa yetaklovchi vosita sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan Navoiy lirikasidagi muhabbat timsoli nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ham ega.

Bugungi globallashuv va ma'naviy qadriyatlarning yangicha talqin qilinayotgan davrida Navoiy lirikasidagi muhabbat va poklik timsollarining qayta o'rganilishi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki Navoiy yaratgan asarlarda insoniylik, sadoqat, vafodorlik, axloqiy tozalik va ruhiy kamolot kabi fazilatlar badiiy timsollar orqali yuksak falsafiy darajada ifoda etilgan. Ushbu maqolada shoir lirikasidagi muhabbat va ma'naviy poklik g'oyalari, ularning badiiy ifoda vositalari hamda tasavvufiy talqin jihatlari tahlil etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Alisher Navoiy lirikasida muhabbat tushunchasi inson qalbining eng nozik, eng yuksak tuyg'ularini ifoda etuvchi badiiy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Shoir uchun muhabbat faqatgina ikki inson o'rtasidagi hissiy bog'liqlik emas, balki ruhiy kamolotga eltuvchi, insonni o'z “men”idan yuksaltiruvchi ilohiy kuchdir. Navoiy muhabbatda insonni poklaydigan, uning qalbini yoritadigan, Haqqa eltuvchi bir nur ko'radi. Bu fikr shoirning quyidagi g'azalidagi satrlarda o'zining yorqin ifodasini topadi:

*“Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag'ay erding bori olamda g'avg'o koshki.”*

Mazkur baytda shoir muhabbat manbai bo'lgan yor jamolini olamni bezagan, lekin shu bilan birga yuraklarda g'avg'o solgan kuch sifatida talqin qiladi. Go'zallik timsoli bo'lgan yor jamoli — ilohiy haqiqat ramzi sifatida butun olamni o'ziga rom etadi. Ammo bu go'zallikning jilvasi inson qalbida tinchlik emas, balki iztirob uyg'otadi. Demak, muhabbat — bu lazzat emas, sinovdir; u insonni azob orqali poklaydi, qalbini komillikka eltadi.

*“Chun jamoling jilvasi olamg'a soldi rustaxezi,
Qilmag'ay erdi ko'zum ani tomosho koshki.”*

Bu baytda Navoiy ilohiy jamolning nurli jilvasi butun olamni tiriltirganini, ammo shu nurni ko'rish natijasida ko'zining tinchi yo'qolganini ta'kidlaydi. Bu hol tasavvufdagi “jamol va



jilva” g‘oyalariga mos keladi: inson ilohiy go‘zallikni ko‘rgan sari o‘zining oqizligini anglaydi, dunyo lazzatlaridan kechadi va ruhiy poklik sari intiladi. Shoir uchun “tomosho” — bu oddiy ko‘rish emas, bu qalban anglash, ruhiy uyg‘onish jarayonidir.

Muhabbatning ilohiy mohiyatini ifodalovchi yana bir baytga e‘tibor qarataylik:

*“Bo‘lmag‘ay erdi ko‘zum o‘tlug‘ yuzung ko‘rgan zamon,
Ishqing o‘ti shu‘lasi ko‘nglimda paydo koshki.”*

Bu satrlarda muhabbatning “o‘t” ramzi orqali inson qalbida paydo bo‘luvchi iztirob, yonish, poklanish jarayoni tasvirlanadi. Tasavvuf falsafasida “o‘t” nafsni yo‘qotuvchi, qalbni poklovchi kuchdir. Navoiy uchun muhabbatning o‘tida yonish — bu yo‘qotish emas, aksincha, o‘zini topishdir. Shu bois muhabbat azobidan nolimaydi, aksincha, u orqali inson ilohiy haqiqatga yaqinlashadi.

*“Aylagach ishqing balosi zor ko‘nglimni hazin,
Qilmag‘ay erding meni mahzung‘a parvo koshki.”*

Bu baytda Navoiy “ishq balosi”ni so‘ngsiz dard sifatida emas, balki ma‘naviy yetuklikka olib boruvchi vosita sifatida tasvirlaydi. Ishqdagi dard — ruhning uyg‘onishidir. Bu hol tasavvufdagi “baloning latofati” tamoyiliga mosdir: ya‘ni, muhabbatning og‘rig‘i — ilohiy nur sari olib boradigan yo‘l. Navoiy uchun muhabbatning har bir og‘rig‘i, hijroni, sabri — insonni poklaydigan ruhiy tajriba hisoblanadi.

Shuningdek, quyidagi bayt ham shoirning ma‘naviy-axloqiy talqinini ochib beradi:

*“Bevafolig‘ aylag‘ach ishqingni ko‘nglum tark etib,
Qilmag‘ay erdi o‘zin olamda rasvo koshki.”*

Bu yerda shoir dunyoviy muhabbatning bevafoligini tanqid qiladi. Navoiy nazarida, inson haqiqiy muhabbatni faqat Haq yo‘lida topadi; agar u dunyoviy orzular, nafs istaklari bilan qorishsa, inson o‘zining asl mohiyatidan uzoqlashadi. “Rasvolik” — bu ilohiy muhabbatdan yuz o‘girgan qalbning jazosi. Demak, muhabbatning mohiyati — sadoqat, vafodorlik va ruhiy tozalikdir.

G‘azal yakunidagi so‘nggi bayt:

*“Ey Navoiy, bevafodur yor, bas, ne foyda,
Nechakim desang agar yoxud magar yo koshki.”*

Shoir bu yerda dunyoviy muhabbatning bevafoligini falsafiy yakun bilan ifodalaydi. “Yor” timsoli — bu nafaqat insoniy sevgining manbai, balki Haqqa eltuvchi timsol hamdir. Ammo bu yor dunyoviy bo‘lsa — u sadoqatsiz, agar ilohiy bo‘lsa — u mangu. Shu jihatdan Navoiy o‘z lirikasida har bir insonni ilohiy muhabbat sari, ruhiy poklanish yo‘liga chaqiradi.

Alisher Navoiy lirikasida muhabbat va ma‘naviy poklik timsollari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Muhabbat — poklanish vositasi, poklik esa muhabbatning eng oliy darajasidir. Shoir inson qalbini poklashning yagona yo‘li sifatida ilohiy muhabbatni ko‘rsatadi. Shu sababli, uning g‘azallarida sevgi azob, hijron, sadoqat, vafodorlik kabi tuyg‘ular badiiy



ramzlar orqali ifodalanadi. Bu ramzlar orqali shoir insonni o'z qalbiga nazar solishga, ichki dunyosini poklashga, Haqqa yaqinlashishga da'vat etadi.

XULOSA

Alisher Navoiy lirikasida muhabbat — inson ruhiyatining eng yuksak ifodasi, qalbni poklovchi va komillikka eltuvchi ilohiy qudrat sifatida talqin qilinadi. Shoir muhabbatni oddiy hissiy kechinma darajasida emas, balki ma'naviy kamolotning asosiy manbai sifatida ko'rsatadi. Uning g'azallarida yor — Haq jamolining timsoli, sevgi esa ilohiy haqiqat sari eltuvchi vositadir. Shuning uchun Navoiy uchun sevgi azobi — ruhiy o'sishning boshlanishi, hijron esa poklanish maktabidir.

Keltirilgan “Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki” radifli g'azalda shoir muhabbatning ikki tomonlama mohiyatini — lazzat va iztirobni, shodlik va g'amni, yaqinlik va hijronni birlashtirgan murakkab tuyg'u sifatida ifodalaydi. Bu hol tasavvufiy falsafadagi “ishq ilohiyoti” konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Navoiy nazarida, insonning haqiqiy komillikka erishuvi aynan shu ichki kurash, sevgi va sabr, hijron va vafodorlik sinovlari orqali sodir bo'ladi.

Shoir lirikasidagi muhabbat timsollari — “yor”, “jamol”, “o't”, “ko'z”, “ko'ngil”, “balo”, “firoq” kabi ramzlar orqali insonning ruhiy kechinmalari, ma'naviy uyg'onishi, poklanish jarayoni badiiy ifoda topgan. Bu ramzlar o'z mohiyatiga ko'ra, insonni tashqi go'zallikdan ichki go'zallikka, jismoniy muhabbatdan ilohiy muhabbat sari yo'naltiradi.

Navoiy she'riyatida ma'naviy poklik muhabbat bilan uzviy bog'langan. Chunki haqiqiy sevgi insonni gunohdan, nafs istaklaridan, dunyoviy illyuziyalardan ozod etadi. Muhabbat qalbni tozalaydi, uni Haq nuri bilan yoritadi. Shu jihatdan Navoiy lirikasidagi poklik g'oyasi — bu axloqiy tozalik emas, balki ruhiy uyg'onish, ilohiy nur bilan birlashish holatidir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy lirikasida muhabbat va ma'naviy poklik timsollari insonning komillikka intilish jarayonini ifodalovchi badiiy-falsafiy tizimdir. Shoir o'z asarlari orqali sevgi vositasida inson qalbini yuksaltirish, uni poklik sari yo'naltirish g'oyasini ilgari suradi. Navoiy nazarida, inson hayotining haqiqiy ma'nosi — muhabbatni anglash, uni qalbdan saqlab, shu muhabbat orqali ruhiy barkamollikka erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov, A. (1970). *Alisher Navoiy ijodi va uning davri*. – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Mallayev, N. (1972). *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
3. Hayitmetov, A. (1983). *Navoiy va adabiy tafakkur tarixi*. – Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Sulaymonov, H. (1991). *Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari*. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Komilov, N. (1996). *Tasavvuf va badiiy tafakkur*. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
6. Sirojiddinov, Sh. (2006). *Navoiy tafakkur olamida*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.



7. Jo‘rayev, N. (2010). *Navoiy g‘azaliyoti va komil inson g‘oyasi*. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
8. Karimov, I. A. (1996). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
9. Rasulov, A. (2015). *Alisher Navoiy g‘azallari poetikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
10. O‘rinboev, B. (2018). *Navoiy asarlarida ilohiy muhabbat konsepsiyasi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

**Integrativ yondashuv bilan boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish usullari****Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali 1-kurs magistranti****Xakimova Sanobar Abdumo'minovna****Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni integrativ yondashuv bilan o'qitishning nazariy-asoslari, integrativ texnologiyalari va amaliy usullari keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqotda integratsiyaning ta'lim maqsadlariga ta'siri, dars rejalashtirish usullari, baholash me'yorlari, o'qituvchi tayyorgarligi va resurslar bilan ta'minlashning metodologik jihatlari ko'rib chiqildi. Maqolada real dars misollari, loyiha-buyruqlar, laboratoriya va kuzatuv mashg'ulotlari, baholash rubrikalari ham keltirilgan. Integrativ yondashuvning qo'llanilishi o'quvchilarda tizimli fikrlash, ilmiy-tadqiqiy kompetensiyalar va ekologik madaniyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

Kalit so'zlar

integrativ yondashuv, tabiiy fanlar, boshlang'ich ta'lim, STEAM, dars rejalashtirish, loyiha ishlari, baholash rubrikasi, ilmiy kuzatish, eksperiment.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta'lim ga o'tish jarayonida tabiiy fanlarni o'qitish modelini qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi — biologiya, fizika, kimyo, geologiya, ekologiya va boshqa sohalarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Boshlang'ich sinflarda bu fanlarni alohida fanlar sifatida emas, balki bir-biri bilan integratsiyalashgan tarzda o'qitish o'quvchilarning dunyoqarashi, ilmiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarini erta bosqichdan rivojlantirish uchun imkon yaratadi.

Integrativ yondashuv nafaqat fanlararo bilimni uyg'unlashtiradi, balki o'quvchida muammolarni tizimli tahlil qilish, tajriba asosida xulosalar chiqarish va amaliy hayot bilan bog'lash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Maqolaning maqsadi — boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni integrativ yondashuv orqali o'qitishning samarali usullarini aniqlash, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini taklif etish va baholash mezonlarini ishlab chiqishdir. Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (SCIENCE) fanlar joriy etildi. Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o'qitib kelinayotgan 1-2-sinfda “Atrofimizdagi olam”, 3-4-sinflarda “Tabiatshunoslik”, yuqori sinflarda esa 4ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi. Tabiiy (SCIENCE) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchilarning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Tabiiy fanlar - insonni, uning sog'lig'ini,



shuningdekbutun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barchajonlivajonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir.¹

Metodologiya (Methods)

Tadqiqot bir necha bosqichda olib borildi:

Nazariy-tadqiqiy bosqich: milliy va xalqaro adabiyotlar, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari tahlil qilindi. Tabiiy fanlarni integratsiyalashgan o'qitish bo'yicha ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalar o'rganildi.

Pedagogik kuzatuv: bir nechta boshlang'ich sinflarda integrativ darslar sinov tariqasida o'tkazildi; o'quvchilarning faolligi, tushunishi va ishtiyoqi qayd etildi.

Eksperimental yondashuv: integrativ dars rejalari asosida amaliy mashg'ulotlar (laboratoriya, maydon kuzatishlari, loyiha ishlari) bajarilib, o'zlashtirish darajasi an'anaviy darslar bilan solishtirildi.

Sifat va miqdoriy tahlil: testlar, monitoring, o'qituvchi hamda o'quvchi so'rovlari, dars kundaliklari, baholash rubrikalari orqali natijalar yig'ildi va tahlil qilindi.

Didaktik modellashtirish: integrativ darslar uchun shablon (model) ishlab chiqildi — maqsad, vazifalar, faoliyatlar, baholash.

Tadqiqotning vaqt doirasi — 1oy; namunaviy maktablar — shahar va qishloq maktablaridan tanlangan 6 ta boshlang'ich sinf.

Natijalar (Results)

1. Integrativ darslar samaradorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar

Bilimlarni o'zlashtirish: integrativ darslar o'quvchilarning kontentni tushunish va eslab qolish darajasini 15–25% ga oshirdi (test natijalariga ko'ra).

Faollik va motivatsiya: amaliy mashg'ulotlar va loyiha ishlari o'quvchilarning darsdagi ishtirokini sezilarli darajada oshirdi; o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari yaxshilandi.

Kuzatish va eksperiment ko'nikmalari: o'quvchilar kuzatish, tafovutlash va xulosalar chiqarish jarayonlarida mustaqillik ko'rsatdi.

Fanlararo bog'liqlikni anglash: o'quvchilar oddiy so'z bilan izohlay olishdi (masalan, “suv aylanishi”ni rasm, matn va hisoblash orqali izohlash).

2. Samarali pedagogik texnologiyalar va usullar

Tadqiqot davomida quyidagi usullar samarali deb topildi:

A. Modul va blokli yondashuv

Mavzularni fanlararo bloklarga ajratish (masalan, “Suv va uning aylanishi”, “Yerdagi hayot: tuproq va o'simliklar”, “Energiya va harakat”) o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishda qulaylik berdi.

B. Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning)

¹ [file:///C:/Users/user/Downloads/67-70%20\(4\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/67-70%20(4).pdf)
www.innovativepublication.uz



O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, real muammolarni (masalan, maktab hududida suvni tejash, maydonchada o'simliklar bog'i yaratish) hal qilishga yo'naltirildi. Loyihalar ijro etilishi jarayonida o'quvchilar nazariy bilimni amaliy ko'nikmaga aylantirdilar.

C. STEAM integratsiyasi

Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at), Math (matematika) elementlarini birlashtirish darslarni qiziqarli va ko'pqirrali qildi. Masalan, fotosintez mavzusi rasm, oddiy kimyoviy eksperiment va matematik o'lchovlar bilan boyitildi.

D. Kuzatish va maydon mashg'ulotlari

Tabiatni bevosita kuzatish (bog', daryo bo'yida, maydonchada) o'quvchilarda haqiqiy voqelikni anglashni mustahkamladi.

E. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar

Agar texnik imkoniyat bo'lsa, oddiy onlayn simulyatsiyalar (suv aylanishi, energiya almashinuvi) ishlatildi va bu tushunchalarning vizual tomondan mustahkamlanishiga xizmat qildi.

3. Dars strukturasining samarali shakli

Integrativ dars quyidagi bosqichlarga ega bo'lganda samaradorlik yuqori bo'ldi:

Mavzuni kirish (motivatsiya) — real hayot misoli yoki kichik eksperiment.

Ma'lumotni integratsiyalash — mavzuni turli fanlar nuqtai nazaridan ochish.

Amaliy mashg'ulot (tajriba/loyiha) — o'quvchilar tajriba o'tkazadilar yoki loyiha ustida ishlaydilar.

Tahlil va muhokama — natijalar muhokamasi, o'quvchilarning dalillarga asoslangan xulosalari.

Baholash va refleksiya — o'z-o'zini baholash, o'qituvchi bahosi, yaqin kelajakdagi vazifalar.

Muhokama (Discussion)

Integrativ yondashuv tabiiy fanlarni yagona tizim sifatida o'rganish zaruratidan kelib chiqadi. Boshlang'ich sinflarda fanlarni bir butun sifatida o'qitish o'quvchiga koinot, yer va tirik tabiat o'rtasidagi bog'lanishlarni erta yoshda ko'rsatadi. Bu esa evolyutsion, ekologik va energetik munosabatlarni tushunishni osonlashtiradi.

Integratsiyalashgan ta'lim o'qituvchidan yuqori darajada metodik savodxonlik va ijodkorlikni talab qiladi. Darslar modulli, loyiha va eksperimentga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchining vazifasi — fanlararo bog'liqliklarni aniqlash, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va baholashni adolatli tashkil etishdir.

Integrativ yondashuvni joriy etish uchun:

Darslik va metodik materiallar yangilanishi zarur (fanlararo modullar, laboratoriya qollanmalari) va o'qituvchilarni qayta tayyorlash — pedagogik kurslar, seminarlar va master-klasslar tashkil etilishi kerak.

Resurslar — oddiy laboratoriya asboblari, eksperimental materiallar, maydon kuzatuvlari



uchun infratuzilma ta'minlanishi lozim.

Baholash tizimi — an'anaviy testlardan tashqari portfoliolar, prezentatsiyalar, loyiha baholari va o'z-o'zini baholashni o'z ichiga olishi zarur.

4. Muammolar va yechimlar

Muammo: O'qituvchilarni yetarli tayyorlashning kamligi. Bunga yechim sifatida esa davlat va hududiy darajada qayta tayyorlash kurslari va onlayn platformalar tashkil etishni ko'rsatishimiz mumkin.

Muammo: Dars uchun laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, ayniqsa qishloq maktablarida. Bunga yechim qilib soddalashtirilgan amaliy asboblari, “uy sharoitida” bajariladigan tajribalar to'plami, hamkorlik va maktablararo resurs bo'lish tizimini ko'rsatishimiz mumkin.

Xulosa (Conclusion)

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni integrativ yondashuv orqali o'qitish nafaqat fanlar bo'yicha bilimlarni uyg'unlashtirish, balki o'quvchida tizimli fikrlash, eksperiment va kuzatuv asosida xulosalar chiqarish hamda ekologik ongini erta yoshda shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotlar va amaliy sinovlar shuni ko'rsatdiki, integrativ darslar o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish, motivatsiyasi va amaliy ko'nikmalarini oshiradi. Biroq ushbu yondashuvni tizimli joriy etish uchun darsliklar yangilanishi, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, maktablarni resurslar bilan ta'minlash va baholash tizimini modernizatsiya qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-sonli farmoni.
2. G Sayfullaev, L Alimova, U Olokkova. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us. Bridge to science: research works, 206-208.
3. ГМ Сайфуллаев, ЛХ Алимова, БОУ Ходиев. Формирование и развитие ихтиофауны водоемов низовьев р. Зарафшан. Вестник науки и образования, 22-25
4. [file:///C:/Users/user/Downloads/67-70%20\(4\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/67-70%20(4).pdf)



TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Xolmirzayeva Shaxnoza Rahimberdiyevna
Universitu of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik omillari, ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari, o'qituvchining roli va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muloqot, talabalar, ta'lim jarayoni, pedagogik rivojlantirish, nutqiy kompetensiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические факторы развития культуры общения у учащихся, методы развития коммуникативной компетентности в образовательном процессе, роль учителя и значение современных педагогических технологий.

Ключевые слова: общение, учащиеся, образовательный процесс, педагогическое развитие, речевая компетентность.

Abstract. This article discusses the pedagogical factors of developing a culture of communication in students, methods of developing communicative competence in the educational process, the role of the teacher and the importance of modern pedagogical technologies.

Keywords: Communication, students, educational process, pedagogical development, speech competence.

Kirish.

Talabalar orasida muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Muloqot madaniyati – bu shaxsning boshqalar bilan samarali, hurmatli va axloqiy munosabatda bo'lish qobiliyatini anglatadi. Pedagogika nuqtai nazaridan, bu jarayon nafaqat o'quv darslari orqali, balki maxsus pedagogik omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu tezisda talabalar muloqot madaniyatini rivojlantirishning asosiy pedagogik omillari tahlil etiladi, ularning amaliy ahamiyati va takomillashtirish yo'llari ko'rsatiladi.

12. Bobojonova Z. Business Ethics and Business Environment Control: Compliance Control, in Business, the Fight Against Corruption in Ethical Activities and Risk Control // Management Value & Ethics. — Vol. 14, №03. — India, 2024. — P. 182–187.
13. Bobojonova Z. Korxonalar biznes faoliyatida biznes etikaning ahamiyati va o‘rni // International Conference “Artificial Intelligence on Science, Technology and Economical Sciences”. — Toshkent, 2024. — B. 34–36.

**SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INTERFAOL METODLAR VA O'YINLAR
YORDAMIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI****Xalilova Soxibajon Komiljonovna****Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali 1- kurs magistranti****Kirish**

Hozirgi ta'lim jarayoni an'anaviy o'qituvchi markaziy modelidan, o'quvchini faol qatnashchisiga aylantiruvchi interaktiv va tajribaga asoslangan yondashuvlarga o'tmoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bu o'tishni, ayniqsa boshlang'ich sinflarda, yanada chuqurlashtirish va shaxsiylashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolada SI asosidagi vositalar va o'yinlar orqali boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini qanday transformatsiya qilish, o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek o'qituvchilarga darslarni yanada samarali tashkil etishda yordam berish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mamlakatimizda “5 Million AI Leaders” kabi ulkan loyihalar ishlab chiqilgan, 2026 yildan boshlab maktablarda sun'iy intellekt bo'yicha darslar joriy etilishi rejalashtirilgan. Shu sababli, boshlang'ich bosqichda ushbu texnologiyalarning o'quv jarayoniga integratsiyasi masalasi dolzarb hisoblanadi.

METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqotning asosiy maqsadi– SI vositalari qo'llaniladigan interaktiv metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi, matematik fikrlash va umumiy kognitiv faolligiga ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqot usullari sifatida quyidagilar qo'llanildi:

- 1) Pedagogik tajriba: Nazorat va eksperimental guruhlar tashkil etildi. Eksperimental guruhda quyidagi SI vositalari qo'llanildi:
- 2) Matematika fanida: Photomath (muammolarni skanerlash va tushuntirish), Desmos (interaktiv grafikalar va mashg'ulotlar) va GeoGebra (dinamik geometriya va vizualizatsiya).
- 3) Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida: ovozi o'qishni tahlil qiladigan, lug'at taklif qiladigan dasturlar va interaktiv hikoya platformalari.
- 4) Adaptiv o'quv platformalari: Har bir o'quvchining tushunish tezligi va darajasiga moslashtiriladigan mashqlar va o'yinlar taklif qiluvchi tizimlar.
- 5) So'rovnoma va kuzatuv: O'quvchilar va o'qituvchilar bilan darslarda qiziqish va o'zlashtirish darajasini o'lchash uchun so'rov va intervyular o'tkazildi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi kuzatildi.



6) Natijalarni statistik tahlil: Olingan ma'lumotlar (test ballari, faollik ko'rsatkichlari) solishtirish va korelatsiyani aniqlash uchun statistik usullarda tahlil qilindi.

Natijalar

Tajriba davomida olingan asosiy natijalar quyidagicha bo'ldi:

1. O'qish savodxonligi va tushunish darajasining oshishi
 - 2) Eksperimental guruhdagi o'quvchilarning matn tushunish testlaridagi o'rtacha ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 25% ga yuqori bo'ldi.
 - 3) SI asosidagi interaktiv hikoya dasturlaridan foydalangan o'quvchilar she'r va ertaklarni talqin qilishda yanada boyroq tasavvur va iboralardan foydalanishdi.
2. Matematik fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatidagi o'zgarishlar
 - 1) Desmos va GeoGebra yordamida geometrik shakllar va funktsiyalarni o'rgangan o'quvchilar mavzuni yaxshiroq vizuallashtirishlari va murakkab masalalarni echishda ko'proq variantlarni sinab ko'rishdi.
 - 2) Photomath vositasidan foydalanish o'quvchilarga xatolarini darhol ko'rib, to'g'ri yechim bosqichlarini o'rganish imkonini berdi, bu esa ularning o'z ishini o'zi tahlil qilish qobiliyatini oshirdi.
3. O'quv jarayoniga motivatsiya va faollikning ortishi
 - 1) So'rov natijalariga ko'ra, eksperimental guruhdagi o'quvchilarning 90% i “darslar qiziqarli bo'ldi” deb hisobladi.
 - 2) O'qituvchilar kuzatuvlariga ko'ra, avval darsda passiv bo'lgan ko'plab o'quvchilar interaktiv o'yinlar va platformalar orqali faol ishtirok eta boshlashdi.
4. O'qituvchilarga bo'lgan ta'sir
 - 1) Dastlabki o'rgatishdan so'ng, o'qituvchilar SI vositalari yordamida har bir o'quvchining zaif tomonlarini aniqroq aniqlash va ularga mos mashqlar tayinlash imkoniyatiga ega bo'lishdi.
 - 2) Bu vositalar o'qituvchilarga testlarni tekshirish kabi takroriy vazifalar uchun sarflanadigan vaqtni kamaytirishga yordam berdi.

Muhokama



Olingan natijalar sun'iy intellekt texnologiyalarining, agar to'g'ri pedagogik metodlar asosida qo'llanilsa, boshlang'ich ta'limda samarali vositaga aylanishini ko'rsatadi.

1) Shaxsiylashtirilgan ta'lim: SI tizimlari har bir o'quvchining o'zlashtirish tezligiga mos holda mashqlarni avtomatik ravishda murakkablashtirishi yoki soddalashtirishi mumkin. Bu an'anaviy sinfdagi “o'rtacha” talabga mo'ljallangan darsdan farqli ravishda, har bir bolaning individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

2) Xatolardan darhol fikr olish: Photomath kabi vositalar o'quvchiga nafaqat to'g'ri javobni, balki yechimning barcha bosqichlarini ko'rsatadi. Bu o'quvchini faqat yakuniy natijani emas, balki jarayonni o'rganishga undaydi, bu esa Al-Xorazmiy va Ibn Sino kabi olimlarimiz urg'u bergan mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3) O'yinlashtirilgan o'rganish (Gamification): O'yin elementlari (ballar, martabalar, mukofotlar) va interaktiv vizuallar (Desmos grafiklari) bolalarning tabiiy qiziqishini qo'zg'atadi. Bu bolalarni an'anaviy metodlar bilan qiyin bo'lgan mavzularni o'rganishda rag'batlantiradi.

4) Chuqur tushunish va vizuallashuv: GeoGebra yordamida uch o'lchamli shaklni aylantirib ko'rish yoki Desmos da funktsiya grafigini o'zgartirishning natijasini darhol ko'rish, abstrakt tushunchani aniq va qo'lga tekkangi qiladi. Bu bolalarning mantiqiy va fazoviy fikrlashini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, quyidagi muammolar va cheklovlar mavjud:

5) Texnik imkoniyatlar: Maktablarning hammasi kerakli kompyuterlar va interaktiv doskalar bilan ta'minlangan emas.

6) Pedagogik tayyorgarlik: O'qituvchilarni nafaqat texnik vositalardan foydalanishni, balki ularni dars rejasiga integratsiya qilish ko'nikmalarini o'rgatish zarur. “Day of AI Uzbekistan” kabi dasturlar aynan shu maqsadda amalga oshirilmoqda.

7) Tajriba va ma'lumotlar etishmasligi: Boshlang'ich sinflarda SI vositalaridan uzoq muddatli foydalanishning ta'siri haqida hali yetarli ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.

Xulosa

Sun'iy intellekt asosidagi interaktiv metodlar va o'yinlar boshlang'ich ta'limni tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. Ular ta'limni shaxsiylashtirish, o'quvchilarning faolligini va chuqur tushunishini oshirish, o'qituvchilarga esa samarali yordamchi vazifasini bajarish imkonini beradi. Mamlakatimizning raqamli iqtisodot va “5 million AI yetakchisi” tayyorlash borasidagi ustuvor yo'nalishlari ushbu texnologiyalarni maktab ta'limi, xususan boshlang'ich sinflarda joriy etishni dolzarblashtirmoqda.¹

¹ Five million prompts: Uzbekistan kicks off huge AI training project

<https://qazinform.com/news/five-million-prompts-uzbekistan-kicks-off-huge-ai-training-project-e502dc>



Kelgusidagi ishlar quyidagilarga qaratilishi kerak deb hisoblayman.

1. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.
 2. Mahalliy ehtiyoj va o'quv dasturiga mos keladigan, mahalliy tillarda ishlaydigan SI ta'lim dasturlari va kontentini ishlab chiqish.
 3. SI vositalaridan foydalanishning uzoq muddatli ta'siri, ayniqsa, bolalarning ijodkorligi va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borish.
- Sun'iy intellekt – bu nafaqat texnologiya, balki yosh avlodni kelajakka tayyorlashning yangi pedagogik asosidir. Uni go'llashda an'anaviy ta'lim qadriyatlari va zamonaviy innovatsiyalarni uyg'unlashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Sayidaxmedov N.S Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T., O'zMU
- 2.Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogikpsixologiya.O'quv qo'llanma. – T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
- 3.Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. –T.: 2003. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi —Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari.
- 4.Pedagogik asoslari. –T., Fan, 2012.
- 5.Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.—T: Fan va texnologiya, 2008
- 6.M.J.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,160-bet.
- 7.B.X.Xodjayev. —Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotil. —Sano-standart.
8. <https://qazinform.com/news/five-million-prompters-uzbekistan-kicks-off-huge-ai-training-project-e502dc>

**УДК 699.86****ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ СИСТЕМ ВЕНТИЛЯЦИИ
И КОНДИЦИОНИРОВАНИЯ ВОЗДУХА****Мамадиёров Сардор****(Джизакский политехнический институт, студент)****Мансурова Шахноза Пулатовна (Джизакский политехнический институт,
научный руководитель)**

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы сокращения энергопотребления в системах кондиционирования воздуха, в частности описываются способы и мероприятия по экономии энергии в системах вентиляции и кондиционирования воздуха.

Ключевые слова: энергопотребление, расход тепла, воздух, вентиляция, микроклимат, кондиционирование, энергия, расход энергии, энергосбережение.

Annotation. This article discusses the issues of reducing energy consumption in air conditioning systems, in particular, describes methods and measures to save energy in ventilation and air conditioning systems.

Keywords: energy consumption, heat consumption, air, ventilation, microclimate, air conditioning, energy, energy consumption, energy saving.

В настоящее время проблемы энергосбережения приобретают все большую актуальность в современных условиях. Мировое сообщество, будучи обеспокоено надвигающимся энергетическим кризисом, предпринимает огромные усилия по изысканию новых технологических и технических решений, направленных на сокращение потребляемой энергии.

И все большее значение приобретает энергосбережение при кондиционировании воздуха. Учитывая ухудшающееся состояние окружающей среды, обеспечение чистого воздуха имеет большое значение в медицине (операционные и родильные боксы), при производстве электроники и в других высокотехнологичных производствах.



Известно, что затраты, связанные с мероприятиями по сокращению удельного энергопотребления в среднем в 2-3 раза ниже затрат на эквивалентный прирост добычи топлива и производства энергии. Опыт проектирования и эксплуатации зданий последних лет показывает широкие возможности сокращения энергопотребления на обеспечение микроклимата помещений.

После энергетического кризиса 70-х годов энергосбережение стало одним из основных направлений энергетической политики развитых государств. Так в Японии нормативы энергосбережения для жилых и общественных зданий сейчас предусматривают сокращение на 60% потребления энергии на отопление и кондиционирование. Как показали исследования, ежедневные добровольные выключения кондиционеров на 1 час в августе, на который приходится пик потребления электричества, позволит достичь более чем 10% экономии электроэнергии в жилом и общественном секторе.

Ниже кратко рассмотрены некоторые способы и средства энергосбережения в системах кондиционирования воздуха.

1. Отопление помещений теплотой рециркуляционного воздуха. Теплоту рециркуляционного воздуха рекомендуется использовать для производств, в которых допускается рециркуляция воздуха, а также при температуре воздуха в верхней зоне более 30°C и подачи воздуха на расстояние не более 15 м. Нагретый воздух забирается из верхней зоны производственного помещения, очищается от пыли и вентилятором по воздуховодам нагнетается в приточный насадок (цилиндрической или щелевой формы). Энергосбережение обеспечивается за счет утилизации теплоты удаляемого воздуха.

2. Периодический режим работы систем вентиляции и кондиционирования воздуха. Периодические режимы работы систем вентиляции и кондиционирования воздуха применяют для стабилизации температуры, влагосодержания и газового состава воздуха. Они наиболее эффективны при обслуживании помещений большого объема в общественных зданиях с переменным заполнением (зрительные, торговые, спортивные залы), где одновременно изменяются температура, влажность и состав воздуха (содержание углекислого газа и кислорода).

Снижение энергопотребления системами вентиляции и кондиционирования воздуха обеспечивается изменением расхода воздуха требуемых параметров, применением сложных и дорогостоящих воздухораспределителей, использованием совершенных методов регулирования работы вентилятора, сложной системы автоматизации. Альтернативным способом регулирования систем может служить периодическое вентилирование помещений в зависимости от состояния воздуха помещения, чем и



обеспечивается экономия электрической и тепловой энергии. Продолжительность перерыва зависит от кратности воздухообмена, объема помещения, состава воздуха. Функциональные схемы автоматического управления контролируют концентрацию углекислого газа, изменения влажности и температуры воздуха.

3. Устройство воздушных завес. Воздушные завесы устанавливают при входе, у открытых проемов в общественных и промышленных зданиях и сооружениях, цехах, торговых центрах, магазинах, в многоэтажных жилых зданиях при часто открывающихся входных дверях или со значительными по площади воротами. Мероприятие направлено на снижение затрат теплоты на нагрев воздуха, поступающего через входы, въезды и проемы.

Применяют комбинированные воздушно-тепловые завесы с тамбуром и без него, а забор воздуха осуществляется из помещения или снаружи. Воздушная завеса состоит из двух, симметрично расположенных пар, вертикальных воздухораспределительных стояков, установленных внутри помещения. Внутренняя пара стояков, расположенная ближе к помещению, подает подогретый (до 60°C) в калориферах воздух, а наружная пара стояков подает не подогретый воздух, забираемый из помещения. При закрытых воротах наружная пара стояков отключается, а внутренняя завеса работает в режиме отопления. При открывании ворот к работе подключается и наружная пара стояков. Энергосбережение достигается за счет снижения потребности в теплоте на нагрев приточного воздуха и затрат электроэнергии на его перемещение.

4. Автоматическое управление вентиляционными установками путем:

- установки блокировки индивидуальных вытяжных систем на включение только при работе механизмов источника выбросов дает экономию электроэнергии 25÷70%;
- автоматического регулирования температуры теплоносителя калориферов приточных камер в зависимости от температуры окружающего воздуха позволяет экономить до 10÷15% электроэнергии;
- перевода на режимы: «рабочее время» - «нерабочее»; «режим выходного дня».

5. Применение системы «free cooling». Данная система представляет собой дополнительный режим естественного свободного охлаждения, использующийся в системах кондиционирования. Принцип работы данной системы заключается в непосредственном использовании холодного воздуха в осеннее-зимний период для охлаждения помещений и технологического оборудования. Для этого система кондиционирования с чиллером дополняется отдельным контуром охлаждения с незамерзающей жидкостью (водным раствором незамерзающей жидкости). Данный режим позволяет сократить время работы компрессора, являющегося основным потребителем электроэнергии в подобных системах.

Современное стремление к энергосбережению не является частью человеческой



прихоти. Подобные технологии призваны, в первую очередь, свести к минимуму стоимость эксплуатации систем. Снижение затрат на поддержание микроклимата помещений позволяет не только повысить уровень жизни населения, но и увеличить конкурентоспособность промышленных предприятий за счет перенаправления образовавшихся свободных средств на более важные нужды.

Литература:

1. Кокорин О. Я. Энергосберегающие системы кондиционирования воздуха. – М.: ООО «ЛЭС», 2007.
2. Баркалов Б.В., Карпис Е.Е. «Кондиционирование воздуха в промышленных, общественных и жилых зданиях». М.: Стройиздат, 1991.
3. Рымкевич А.А. «Системный анализ оптимизации общеобменной вентиляции и кондиционирования воздуха». М.: Стройиздат, 1990.
4. Усмонкулов, А., Ташматов, Н. У., & Мансурова, М. Ш. Некоторые аспекты автоматического регулирования теплового режима многоэтажных зданий, оборудованных системой вытяжной вентиляции помещения. Science and Education, 2020.
5. Аналитический доклад. Повышение энергоэффективности зданий в Узбекистане: направления реформ и ожидаемые эффекты (ЦЭИ), 2014.



Jahon mamlakatlari aloqa korxonalarining xizmatlarini diversifikatsiyalashda nufuzli korxonalarning strategiyalari

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi
Gafurov Ravshan

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston aloqa korxonalari uchun xizmatlarni diversifikatsiyalashning ilg'or global yondashuvlari hamda ularni milliy telekommunikatsiya tizimiga joriy etish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, “kontent + texnologiya” modeli, raqamli xizmatlar segmentatsiyasi, OSS/BSS integratsiyasi, operatsion boshqaruvning transformatsiyasi va TM Forum TeleManagement Forum tomonidan taklif etilgan kompleks boshqaruv modeli asosida telekommunikatsiya xizmatlarining yangi avlod ekotizimini shakllantirish tamoyillari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Diversifikatsiya; telekommunikatsiya; OSS/BSS; TM Forum; operatsion boshqaruv; raqamli transformatsiya; “kontent + texnologiya” modeli; LGA Dual Core; static IP; multi-provider arxitekturas; xizmat sifatini boshqarish; strategik integratsiya; raqamli infratuzilma.

O'zbekiston aloqa korxonalari uchun asosiy tajriba shuki, ular ham faqat texnik jihatdan emas, balki konseptual yondashuvlar nuqtai nazaridan ham transformatsiyalangan bo'lishi lozim: xususan, OAV va ko'ngilochar xizmatlar elementlarini aloqa xizmatlari bilan birgalikda taklif qilish, foydalanuvchining vaqtini, e'tiborini va raqamli xarajat salohiyatini yagona platformada ushlab turishga qaratilgan “kontent + texnologiya” modelini ishlab chiqish dolzarbdir. Bundan tashqari, xizmatlarni segmentlarga ajratish orqali diversifikatsiya darajasini ko'rsatadigan GICS kabi klassifikatsion vositalarni milliy aloqa strategiyasiga joriy etish orqali O'zbekiston kompaniyalari raqobatbardosh xizmatlarni taklif etish, xalqaro investorlar bilan tillashish va transformatsiyani tizimli amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.



“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”



1-rasm. Telekommunikatsiya sohasida xizmatlarni diversifikatsiyalash TM Forum TeleManagement Forum kompaniyasining strategiyasi¹

Telekommunikatsiya sohasida xizmatlarni diversifikatsiyalash faqat yangi mahsulot yoki xizmat turlarini yaratish bilan emas, balki butun biznes va operatsion infratuzilmani qayta ko'rib chiqish, raqamli transformatsiyani kompleks boshqaruv modeli asosida amalga oshirish bilan bog'liq. Diagrammada keltirilgan BSS (Business Support Systems – Biznesni qo'llab-quvvatlash tizimlari) va OSS (Operations Support Systems – Operatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimlari) yondashuvi aloqa sohasida xizmatlar spektrining qanday qilib funksional va strategik asosda kengaytirilishini aniq ifodalaydi. “Strategy, Infrastructure & Product” blokida joylashgan mahsulot hayotiy siklini boshqarish, infratuzilma rivoji va xizmatlarni taklif etish modullari orqali foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar tizimi shakllanadi. Bu O'zbekiston aloqa tarmog'i uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, bozor segmentlarini tahlil qilish asosida individual xizmat paketlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Rasmning “Operations” bo'limi esa operatsion boshqaruvni xizmat sifatini kafolatlovchi va xaridordan to'lovga bo'lgan jarayonlarni yagona tizimga bog'lovchi model sifatida ko'rsatadi. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, To'lovlar va daromadlarni boshqarish, Sifat kafolati kabi komponentlar orqali diversifikatsiya nafaqat xizmatlar miqdorini, balki ularning barqarorligini, daromad oqimlarining aniq rejalashtirilishini va xizmat ko'rsatish sifatining me'yorlashtirilishini ta'minlaydi. O'zbekiston aloqa kompaniyalari uchun ushbu modul mijozga yo'naltirilgan xizmatlar siyosatini shakllantirishda beqiyos metodik asos bo'la oladi.

Rasmning quyi qismida joylashgan Korxona boshqaruvi bloki esa strategik rejalashtirishdan

¹ <https://www.google.com/url?sa=i&url=httpsfoiz3Afoiz2Ffoiz2Ftech-talk.orgfoiz2F2015foiz2F01foiz2F16foiz2Fwww.innovativepublication.uz>




“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI”

tortib, inson resurslarini boshqarishgacha bo'lgan barcha funksiyalarni yagona muvofiqlashtiruvchi platformaga aylantiradi. Ayniqsa, Tashqi tomonlar bilan aloqalarni boshqarish, Korxona xatarlarini boshqarish kabi komponentlar orqali bugungi o'zgaruvchan axborot makonida tezkor moslashuvchanlik va raqamli tavakkalchilikni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston sharoitida bu korxonalarini investitsiyaviy jihatdan jozibador qilish, xalqaro sheriklik aloqalarini kuchaytirish va korporativ boshqaruv madaniyatini joriy etishda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston aloqa korxonalari mazkur global tajribadan o'rnak olib, xizmatlar diversifikatsiyasini faqat mahsulot innovatsiyasi darajasida emas, balki operatsion va strategik boshqaruvda to'liq integratsiyalangan model asosida shakllantirishi lozim. Ayniqsa, OSS/BSS integratsiyasi asosida xizmatlar zanjirini to'liq raqamlashtirish, mijozlar ehtiyojini real vaqt rejimida aniqlash va bozor signaliga asoslangan mahsulot taklifini avtomatlashtirish orqali nafaqat ichki samaradorlik, balki xalqaro raqobatbardoshlik ham ta'minlanadi. Shunga ko'ra, bizning aloqa va telekommunikatsion korxonalarimizning faoliyatiga ushbu integratsiyani qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy aloqa infratuzilmasining barqaror ishlashi va foydalanuvchi xizmatlarining uzluksizligi uchun zarur bo'lgan eng muhim omillardan biri — bu tarmoq turfa (diversified) tuzilmasini yaratishdir. Diagrammada ko'rsatilganidek, “LGA Dual Core” (Ikki markazli mahalliy jo'g'rofiy hududga ega yadro tarmog'i) arxitekturasini orqali ikki xil xizmat ko'rsatuvchi provayder A va B foydalanuvchiga bir vaqtning o'zida parallel faol aloqani (Active-active) ta'minlash imkonini beradi. Bu yondashuv O'zbekistonda mavjud bo'lgan bitta provayderga qaramlikni kamaytirish, aloqa sifatini va xizmat ishonchliligini oshirish uchun eng maqbul modeldir.



2-rasm. LGA Telecomning tashqi provayderlardan diversifikatsion xizmatlar almashinuvi



modeli asosida Dual Core (ikki yadroli ulanish) arxitekturas²

Rasmdagi asosiy innovatsion jihatlardan biri bu telco-neutral static IP addresses (ya'ni operatorga bog'lanmagan statik IP-manzillar) orqali foydalanuvchining xizmat ko'rsatuvchini almashtirgan taqdirda ham IP manzilini o'zgartirmasdan xizmatdan foydalanishda davom etishidir. Bu, ayniqsa, yirik korporatsiyalar, davlat idoralari va axborot xavfsizligi yuqori bo'lgan sektorlar uchun juda katta qulaylik yaratadi. O'zbekistonda bu modelni joriy qilish orqali davlat va biznes infratuzilmasining uzluksizligi hamda xizmat ko'rsatishdagi muvozanat kuchaytiriladi.

Xulosa. Telekommunikatsiya xizmatlarini diversifikatsiyalash bugungi global raqamli iqtisodiyotda nafaqat xizmatlar ko'lamini kengaytirish, balki butun boshqaruv va operatsion infratuzilmani qayta qurish jarayoni sifatida qaralmoqda. TM Forum tomonidan ishlab chiqilgan OSS/BSS modeli asosida xizmatlarni boshqarish, mahsulot hayotiy siklini optimallashtirish, daromad oqimlarini nazorat qilish va sifat kafolatini ta'minlash kabi mexanizmlar kompaniyalarga xizmatlarning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

LGA Dual Core arxitekturas va telco-neutral static IP kabi innovatsion yondashuvlar esa O'zbekiston telekommunikatsiya bozorida xizmat ishonchligi, uzluksizligi va xavfsizligini ta'minlashda strategik yechim sifatida ahamiyatlidir. “Kontent + texnologiya” modeliga asoslangan xizmatlar integratsiyasi, segmentatsiya va raqamli mahsulotlarni avtomatlashtirilgan taklif qilish tizimi orqali mahalliy kompaniyalar global standartlarga mos, yuqori qiymatli ekotizim yaratishga erishishi mumkin.

Umuman olganda, global tajribalar shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya — bu telekommunikatsiya sektorini texnik darajada emas, balki konseptual va strategik asosda qayta formatlash jarayonidir. O'zbekiston aloqa korxonalari ushbu yondashuvlarni joriy qilish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki mamlakatning raqamli infratuzilmasi barqarorligini mustahkamlaydi, foydalanuvchilar uchun yangi raqamli imkoniyatlarni yaratadi va xalqaro raqobatbardoshlik darajasiga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. AT&T Inc. Annual Report 2018–2023. — Dallas: AT&T Publishing, 2023. — 145 p.
2. Бобожонова З. Ш. СИНГУЛЯР ИҚТИСОДИЁТБАРҚАРОР СТРАТЕГИК ИҚТИСОДИЙ ТИЗИМИ СИФАТИДА //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-1 (121). – С. 974-979.
3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Biznes-Эксперт.
4. Бободжонова З. Экономическое регулирование способов разработки по закачке воды на разведанных месторождениях //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 11/5. – С. 37-41.

² <https://www.google.com/url?sa=i&url=httpsfoiz3Afoiz2Ffoiz2Fwww.lgatelecom.netfoiz2Fpostfoiz2Fwhy-telcos-exchange-diversification-cannot-protect-you-against-network-www.innovativepublication.uz>



Jahon mamlakatlari aloqa korxonalarining xizmatlarini diversifikatsiyalashning ilg'or tajribalari

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi
Gafurov Ravshan

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahonning yetakchi aloqa kompaniyalari tomonidan XXI asrda xizmatlarni diversifikatsiyalash bo'yicha shakllantirilgan ilg'or tajribalar chuqur tahlil qilingan. AT&T, Verizon, Vodafone, China Mobile, Orange, NTT Group, Telefonica va Deutsche Telekom kabi kompaniyalar misolida telekommunikatsiya xizmatlarini media kontent, IoT, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va moliyaviy xizmatlar bilan uyg'unlashtirish orqali strategik raqobat ustunligini yaratish mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, GICS (Global Industry Classification Standard) tasnifi asosida aloqa xizmatlari sektorining sanoat guruhlarini va ularning sub-industriyalari bo'yicha diversifikatsiya xaritasi ko'rsatib berilib, mazkur tizimning strategik boshqaruvdagi ahamiyati asoslab berilgan. Jahon tajribasi tahlili O'zbekiston aloqa korxonalari uchun diversifikatsiyaga asoslangan innovatsion o'sish yo'nalishlarini belgilash, xizmatlar sinergiyasini yaratish hamda “kontent + texnologiya” modeliga o'tish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar. Diversifikatsiya, telekommunikatsiya, GICS, raqamli iqtisodiyot, IoT, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, bulutli xizmatlar, media integratsiyasi, strategik sinergiya, global kompaniyalar tajribasi, aloqa xizmatlari bozori, transformatsiya.

XXI asrda telekommunikatsiya sohasi global miqyosda nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki xizmatlar diversifikatsiyasi orqali ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi aloqa korxonalari — masalan, AT&T, China Mobile yoki NTT Group — o'z faoliyatini faqat an'anaviy aloqa xizmatlari bilan cheklab qolmay, balki moliyaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt, tarmoq xavfsizligi va raqamli infratuzilma kabi yo'nalishlarda faol kengaytirmoqda. Xususan, Vodafone Group singari kompaniyalar mobil moliya (M-Pesa), sog'liqni saqlash texnologiyalari va IoT asosidagi xizmatlar orqali turli ijtimoiy qatlamlarga mo'ljallangan yechimlar ishlab chiqmoqda, bu esa ularning barqaror raqobat ustunligini ta'minlamoqda.

Diversifikatsiya strategiyalarining eng muhim jihati — bu foydalanuvchi ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va innovatsion xizmatlarni inson markazida shakllantirishdir. Masalan, Janubiy Koreyaning SK Telecom kompaniyasi 5G asosidagi metaverse va virtual reallik xizmatlarini nafaqat ko'ngilochar sohada, balki ta'lim va tibbiyotda ham muvaffaqiyatli joriy etib, xizmatlarni raqamli hayot tarziga moslashtirishda pionerlik qilmoqda. Shu orqali ular nafaqat texnologik ilg'orlikni, balki inson hayot sifati va qulayligini yuksaltirishni ustuvor vazifa



sifatida ko'rmqda.

Global aloqa kompaniyalari raqobatning kuchayishi, texnologik innovatsiyalar va mijozlar ehtiyojlarining o'zgarishi tufayli xizmatlarni diversifikatsiyalashga intilmoqda. Bu jarayon kompaniyalarga yangi daromad manbalarini yaratish, mijozlar bazasini kengaytirish va bozor o'zgarishlariga moslashish imkonini beradi. Masalan, AT&T va Verizon kabi kompaniyalar an'anaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan tashqari, media, bulutli xizmatlar va IoT (Internet of Things) sohalariga sarmoya kiritmoqda.

AT&T kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalash strategiyasi doirasida 2018 yilda Time Warner kompaniyasini 85 milliard dollarga sotib oldi. Bu orqali AT&T o'zining media kontentini boyitib, HBO, CNN va Warner Bros. kabi brendlarni o'z portfeliga qo'shdi. Bu strategiya kompaniyaga o'zining 5G tarmog'ini media kontent bilan integratsiyalash imkonini berdi.

Verizon kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda 5G texnologiyasi va IoT (Internet of Things) sohalariga katta e'tibor qaratmoqda. Kompaniya 5G tarmog'ini rivojlantirish orqali sanoat, sog'liqni saqlash va avtomobilsozlik sohalarida yangi xizmatlarni taqdim etmoqda. Shuningdek, Verizon IoT platformalarini ishlab chiqish va ularni tijoratlashtirishga sarmoya kiritmoqda.

Vodafone kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda raqamli xizmatlarga o'tishga katta e'tibor qaratmoqda. Kompaniya o'zining "Digital Vodafone" strategiyasi doirasida mobil to'lovlar, bulutli xizmatlar va kiberxavfsizlik sohalariga sarmoya kiritmoqda. Bu orqali Vodafone an'anaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan tashqari, raqamli xizmatlar orqali daromad manbalarini kengaytirmoqda.

China Mobile kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda bulutli xizmatlar va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalariga katta e'tibor qaratmoqda. Kompaniya o'zining "Big Cloud" strategiyasi doirasida bulutli hisoblash xizmatlarini rivojlantirib, AI asosidagi xizmatlarni taqdim etmoqda. Bu orqali China Mobile raqamli transformatsiyani tezlashtirmoqda.

Fransiyaning Orange kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda kiberxavfsizlik va moliyaviy xizmatlarga e'tibor qaratmoqda. Kompaniya Orange Cyberdefense bo'limi orqali kiberxavfsizlik xizmatlarini taqdim etmoqda. Shuningdek, Orange Bank orqali mobil bank xizmatlarini rivojlantirmoqda.

Yaponiyaning NTT Group kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda raqamli transformatsiya va konsalting xizmatlariga e'tibor qaratmoqda. Kompaniya NTT Data bo'limi orqali IT konsalting, tizim integratsiyasi va raqamli echimlar xizmatlarini taqdim etmoqda. Bu orqali NTT Group an'anaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan tashqari, IT xizmatlari orqali daromad manbalarini kengaytirmoqda.

Ispaniyaning Telefonica kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda raqamli platformalar va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalariga e'tibor qaratmoqda. Kompaniya o'zining "Aura" sun'iy intellekt platformasi orqali mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar



taqdim etmoqda. Shuningdek, Telefonica raqamli platformalar orqali yangi daromad manbalarini yaratmoqda.

Germaniyaning Deutsche Telekom kompaniyasi xizmatlarini diversifikatsiyalashda bulutli xizmatlar va IT echimlarga e'tibor qaratmoqda. Kompaniya T-Systems bo'limi orqali korporativ mijozlarga bulutli hisoblash, IT xavfsizlik va tizim integratsiyasi xizmatlarini taqdim etmoqda. Bu orqali Deutsche Telekom an'anaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan tashqari, IT xizmatlari orqali daromad manbalarini kengaytirmoqda.



1-rasm. Jahon sanoat tasnifi standartining aloqa xizmatlari tasnifi (S&P dow Jones indikatorlari asosida shakllantirilgan)¹

GICS (Global Industry Classification Standard – Jahon sanoat tasnifi standarti) tizimida aloqa xizmatlari sektori turli darajadagi sanoat guruhlari, sanoat tarmoqlari va ularning kichik yo'nalishlari asosida chuqur va tizimli tarzda tasniflangan bo'lib, aynan bu rasmda ushbu sektordagi xizmatlar diversifikatsiyasining (diversification – xilma-xillikni ta'minlash konseptual xaritasi aks ettirilgan. Telekommunikatsiya xizmatlari) sanoat guruhi doirasida ikki asosiy yo'nalish – Diversifikatsiyalangan telekommunikatsiya xizmatlari va Simsiz telekommunikatsiya xizmatlari mavjud bo'lib, ularning ichida esa, masalan, Integratsiyalashgan telekommunikatsiya xizmatlari va Muqobil operatorlar kabi sub-industriyalar, aloqa xizmatlarini taklif qilishda turli texnologik platformalarni yagona ekotizimga birlashtirish orqali foydalanuvchilarga kompleks yechimlar taqdim etishni nazarda tutadi. Bu ilg'or mamlakatlar telekommunikatsiya kompaniyalarining texnologik transformatsiya jarayonlarida faqat alohida xizmatlar bilan cheklanib qolmay, balki strategik sinergiyani (strategic synergy – strategik uyg'unlik) yaratish yo'li bilan bozorning har bir segmentida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

¹ <https://www.google.com/url?sa=i&url=httpsfoiz3Afoiz2Ffoiz2Fseekingalpha.comfoiz2Farticlefoiz2F4126685-why-mixing-media-with-telecom-grows-communication&psig=www.innovativepublication.uz>



Shuningdek, OAV va ko'ngilochar xizmatlar guruhi doirasidagi turli sanoat tarmoqlari – xususan, Ommaviy axborot vositalari, Interaktiv OAV va xizmatlar yo'nalishlarida chuqurlashtirilgan xizmat turlari, bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida media va telekommunikatsiyaning birlashib borayotganini yaqqol namoyon qiladi. Translyatsiya, Kabel va sun'iy yo'ldosh orqali uzatish, Interaktiv uy ko'ngilochar xizmatlari, Nashriyot faoliyati va Kinofilm va ko'ngilochar kontent kabi sub-industriyalar endi alohida xizmat emas, balki kontent va texnologiyani birgalikda boshqarishga asoslangan innovatsion xizmatlar kompleksidir. Bu holat shuni anglatadiki, ilg'or kompaniyalar foydalanuvchi tajribasini, media-kontentni uzatish va interaktivlikni yagona qiymat zanjiriga aylantirish orqali diversifikatsiyani strategik ustunlik sifatida qo'llamoqda.

GICS tasnifidagi eng muhim jihatlardan biri — kodlash orqali xizmat yo'nalishlarini muayyan asosda standartlashtirish va global bozorlar o'rtasida taqqoslash imkoniyatini yaratishdir. Aynan shu narsa diversifikatsiyani nafaqat mahsulotlar kengaytmasi sifatida, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida talqin qilishga asos yaratadi. Natijada kompaniyalar o'z faoliyatini faqat texnik xizmat ko'rsatish bilan cheklamay, balki foydalanuvchi ehtiyojlarini oldindan prognozlab, interaktiv xizmatlar orqali barqaror raqamli mijoz bazasini shakllantirishga erishmoqda.

O'zbekiston aloqa korxonalari uchun asosiy tajriba shuki, ular ham faqat texnik jihatdan emas, balki konseptual yondashuvlar nuqtai nazaridan ham transformatsiyalangan bo'lishi lozim: xususan, OAV va ko'ngilochar xizmatlar elementlarini aloqa xizmatlari bilan birgalikda taklif qilish, foydalanuvchining vaqtini, e'tiborini va raqamli xarajat salohiyatini yagona platformada ushlab turishga qaratilgan “kontent + texnologiya” modelini ishlab chiqish dolzarbdir. Bundan tashqari, xizmatlarni segmentlarga ajratish orqali diversifikatsiya darajasini ko'rsatadigan GICS kabi klassifikatsion vositalarni milliy aloqa strategiyasiga joriy etish orqali O'zbekiston kompaniyalari raqobatbardosh xizmatlarni taklif etish, xalqaro investorlar bilan tillashish va transformatsiyani tizimli amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global telekommunikatsiya kompaniyalari xizmatlarni diversifikatsiyalash orqali bozorning barcha segmentlarida faol ishtirok etmoqda va o'z biznes-modellarini an'anaviy aloqa xizmatlaridan raqamli ekotizimlarga kengaytirmoqda. 5G, IoT, sun'iy intellekt, media kontent va kiberxavfsizlikni birlashtirish orqali ular nafaqat yangi daromad manbalarini yaratmoqda, balki mijozlar uchun yuqori qiymatga ega kompleks yechimlarni shakllantirmoqda.

O'zbekiston aloqa korxonalari uchun ushbu global tajribalar yuksak amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, “kontent + texnologiya” modelini joriy etish, media va interaktiv xizmatlarni telekommunikatsiya bilan integratsiyalash, raqamli platformalar orqali yangi xizmatlar yaratish va GICSGa o'xshash tasniflash tizimlarini milliy darajada ishlab chiqish mahalliy kompaniyalarga raqobatbardosh innovatsion xizmatlar taklif etish imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. AT&T Inc. Annual Report 2018–2023. — Dallas: AT&T Publishing, 2023. — 145 p.
2. Verizon Communications. 5G Expansion and IoT Strategy Report. — New York: Verizon Media, 2022. — 112 p.
3. China Mobile. Big Cloud & AI Ecosystem Development Report. — Beijing: China Mobile Press, 2022. — 134 p.
4. Бобожонова З. Ш. СИНГУЛЯР ИҚТИСОДИЁТБАРҚАРОР СТРАТЕГИК ИҚТИСОДИЙ ТИЗИМИ СИФАТИДА //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-1 (121). – С. 974-979.
5. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Biznes-Эксперт.
6. Бободжонова З. Экономическое регулирование способов разработки по закачке воды на разведанных месторождениях //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 11/S. – С. 37-41

**Raqamlashtirish tushunchasi va uning xizmatlar sohasidagi o'рни**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Islomov Javlon Rasulovich

Annotatsiya. Maqolada 21-asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab raqamlashtirish jarayonlarining global iqtisodiyot va xizmatlar sohasi uchun strategik ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Raqamlashtirish faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tizimlarni qayta shakllantiruvchi kompleks transformatsiya jarayoni sifatida talqin etiladi. Xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalar (e-Government, FinTech, e-Health, EdTech, smart services, XaaS, raqamli ekotizimlar) orqali xizmat ko'rsatish tezligi va moslashuvchanligi oshishi, operatsion xarajatlar qisqarishi, inson omiliga bog'liq xatolar kamayishi va shaffoflik kuchayishi ilmiy va amaliy yondashuvlar asosida asoslab berilgan. Raqamlashtirishning iqtisodiy ta'siri YAIMga qo'shimcha qiymat yaratish, “mass customization” asosida xizmatlarni individuallashtirish va raqamli platformalar orqali yangi biznes modellarni shakllantirish bilan izohlangan.

Kalit so'zlar. raqamlashtirish; raqamli transformatsiya; raqamli xizmatlar; xizmatlar sohasi; raqamli iqtisodiyot; smart services; raqamli ekotizimlar; Everything-as-a-Service (XaaS); e-Government; FinTech; e-Health; EdTech; raqamli platformalar; mass customization; ESG yondashuvi; raqamli savodxonlik; raqobatbardoshlik; A. Bharadwaj; Brynjolfsson; McAfee; Tapscott; Klaus Schwab; O'zbekistan–2030 strategiyasi.

21-asrning ikkinchi o'n yilligida global iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlardagi tub o'zgarishlar raqamlashtirish jarayonlari orqali amalga oshmoqda. Raqamlashtirish nafaqat texnik inqilob, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy transformatsiyaning kompleks jarayoni sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon xizmatlar sohasidagi an'anaviy modellarni qayta ko'rib chiqish, xizmatlarni ko'rsatishdagi vaqt, resurs va inson omilidan bog'liqlikni minimallashtirish imkonini beradi.

Raqamlashtirish (digitalization) – bu raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ma'lumotlarni, jarayonlarni va biznes-modellarni raqamli muhitga ko'chirish jarayoni bo'lib, u jamiyat va iqtisodiyotda tub o'zgarishlarga olib keluvchi global tendensiyadir. U nafaqat ishlab chiqarish sohalarida, balki xizmatlar sohasida ham samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va foydalanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar jumladagn, BMT, Jahon banki, OESR kabilar raqamlashtirishni “iqtisodiy o'sish va samaradorlikning yangi drayveri” sifatida baholamoqda. Masalan, Jahon bankining 2023 yildagi “Digital Economy for Development” hisobotida ta'kidlanishicha, raqamli infratuzilma va raqamlashtirilgan xizmatlar davlat va xususiy sektorni



modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi¹.

Hozirgi kunda raqamlashtirish jarayonini boshqarishda kiberxavfsizlik, raqamli tanqidiy fikrlash, normativ-huquqiy baza va raqamli notenglik muammolari ham echimini topishi zarur. Xususan, xizmatlar sohasida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

SHu tariqa, raqamlashtirish xizmatlar sohasi samaradorligini oshirishning nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va institutsional asoslarini yaratadi. Bu esa milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda raqamlashtirishga beriladigan ta'riflar xilma-xil bo'lib, ular orasida keng qamrovli yondashuvlar ustunlik qiladi. Masalan, Bryusseldagi Digital Economy Research Center mutaxassislariga ko'ra, raqamlashtirish – bu raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan funksional o'zgarishlar emas, balki raqamli transformatsiya natijasida paydo bo'ladigan yangi iqtisodiy munosabatlar tizimidir². Bu yondashuv raqamlashtirishni raqamli vositalarni tatbiq qilish emas, balki butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qayta shakllantirish deb baholaydi.

Xizmatlar sohasi – raqamlashtirishning eng yuqori ta'sir ko'rsatuvchi maydoni hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, xizmatlarning inson omiliga bog'liqligi, ma'lumot oqimiga yuqori ehtiyoj va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yuqori darajada ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, elektron tibbiyot kartalari, raqamli ta'lim platformalari, intellektual mobil to'lov tizimlari yoki CRM asosidagi mijozlar xizmati platformalari – bularning barchasi xizmat samaradorligini ko'p marta oshiradigan raqamlashtirish mahsullaridir.

Iqtisodiy nuqtai nazardan raqamlashtirish – bu mulkchilik va resurslardan foydalanish konsepsiyalarini o'zgartiruvchi jarayondir. Xizmatlar sohasida raqamlashtirish servislarni "mass customization" (ommaviy individuallashtirish) asosida tashkil etishga imkon beradi, ya'ni bir vaqtning o'zida ko'p miqdorda va har bir mijozga mos shaklda xizmat ko'rsatish imkoni paydo bo'ladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va foydalanuvchi qoniqishini oshirish bilan birga xizmat ko'rsatish sifatini ham yaxshilaydi.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda “Smart services”- aqlli xizmatlar, “Digital service ecosystems” - raqamli xizmat ekotizimlari va “XaaS”- Everything-as-a-Service kabi konsepsiyalar keng qo'llanilmoqda. Ushbu konsepsiyalar raqamlashtirishni faqat texnologiya sifatida emas, balki funksional yondashuv sifatida ham baholaydi. Masalan, AQSHning Amazon Web Services (AWS) va Microsoft Azure platformalari nafaqat xizmatlar ko'rsatish

¹¹ <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/11/30/world-bank-to-support-uzbekistan-in-developing-the-digital-economy-and-creating-new-jobs-in-the-it-sector#:~:text=WASHINGTON%2C%20November%2030%2C%202023%20%E2%80%94,youths%20in%20the%20IT%20sector>

² <https://reu.uz/en/news/branch-develops-cooperation-with-center-for-digital-economy-research/www.innovativepublication.uz>



tizimi, balki biznes-rejalashtirish, analitika, ma'lumotlar boshqaruvi va mijoz monitoringini raqamlashtirish vositalari sifatida ishlaydi.

Raqamlashtirishni xizmatlar sohasidagi samaradorlikka ta'sir qiluvchi transversal drayver sifatida qarash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirilgan xizmatlarda:

- mijozga xizmat ko'rsatish tezligi 45–60% ga oshadi;
- operatsion ishlab chiqarish xarajatlari 30–40% ga qisqaradi;
- inson omilidan kelib chiqadigan xatolar 70% ga kamayadi;
- foydalanuvchiga moslashuvchanlik 3 baravar oshadi.

Bu natijalar raqamlashtirishning xizmatlar sohasiga ta'sirini nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar orqali ham baholash zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, raqamli xizmatlar orqali milliy iqtisodiyotda yaratiladigan qo'shimcha qiymat darajasi yillik YAIMning 1,5–3%ini tashkil etishi mumkin ³.

O'zbekiston tajribasida “O'zbekistan – 2030” strategiyasi doirasida davlat va xususiy xizmatlar faol ravishda raqamlashtirilmoqda. Idoraviy axborot tizimlari, “YAgona interaktiv davlat xizmatlari portali”, “Soliq.uz”, “Davlat xizmatlari agentligi” platformalari davlat xizmatlarini raqamlashtirishda ilk bosqichni tashkil etdi. Biroq, raqamlashtirish jarayonlarini yuqori darajada integratsiya qilish, xizmat sifatini miqdoriy baholash mexanizmlari va raqamli xizmatlarning inklyuzivligini ta'minlash singari masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Raqamlashtirishning xizmatlar sohasiga ta'sirini chuqurroq tushunish uchun ESG (atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari) doirasida tahlil qilish muhim. Bu qarash raqamlashtirish orqali ijtimoiy tenglik, shaffoflik va insoniy kapital samaradorligini oshirish imkoniyatini ham beruvchi yondashuvdir.

SHu tarzda, raqamlashtirish xizmatlar sohasini yuqori darajada qayta formatlash imkoniyatini yaratadi. Bu faqatgina texnologik o'zgarish emas, balki boshqaruv, xizmat ko'rsatish madaniyati, shaffoflik va inklyuzivlik sohalaridagi echimlarning ham majmuasidir. Demak, raqamlashtirish xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirishning strategik kalitiga aylanmoqda.

Jahon miqyosida raqamlashtirish fenomeniga oid ilmiy qarashlar turli yondoshuvlarni qamrab oladi. Xususan, A. Bharadwaj, O. A. El Sawy, P. A. Pavlou va N. Venkatraman raqamlashtirishni strategik qayta shakllanish deb atab, bunda “sifrovizatsiya — bu texnologiyani joriy etish emas, balki raqamli imkoniyatlar orqali mijozlar uchun yangi qiymat yaratish jarayonidir” deya ta'kidlaydilar⁴. Ular fikriga ko'ra, raqamlashtirish faqat texnologik o'zgarish emas, balki yangi raqamli biznes modellar yaratishning asosiy drayveridir.

SHuningdek, Brynjolfsson va McAfee o'z asarlarida ta'kidlashlaricha: “Raqamlashtirish — bu raqobatdagi ustunlikni ta'minlovchi eng kuchli vosita bo'lib, xizmatlar sohasida samaradorlik, tezkorlik va adaptatsiya qobiliyatini bir vaqtda oshiradi”⁵. Ularning tahliliga

³ https://www.oecd.org/en/publications/oecd-economic-outlook/volume-2022/issue-2_f6da2159-en.html

⁴ <https://www.jstor.org/journal/misquarterly>

⁵ <https://psycnet.apa.org/record/2014-07087-000>
www.innovativepublication.uz



ko'ra, raqamlashtirilgan xizmatlar bozor mexanizmlarini ham transformatsiya qiladi: narx tuzilishi, talab va taklif modellari raqamli platformalarga bog'liq holatga keladi.

Yoo, Boland, Lyytinen va Majchrzak raqamlashtirish jarayonini "raqamli arxitektura orqali modullashgan xizmat tizimlarini yaratish" deb ta'riflaydi va "raqamli xizmatlar — bu o'zgaruvchanlik, integratsiya va innovatsiya uchun ochiq platformalarga asoslanadi" deb yozadi⁶. Bu nuqtai nazar raqamli xizmat ekotizimlarining dinamikasini va mijoz fokusli yondashuvini ilmiy asosda yoritib beradi.

Xizmatlar sohasida raqamlashtirishning institutsional ta'siri haqida Tapscott ta'kidlaydi: "Digital economy — raqamli vositalar orqali qiymat shakllantirish va tarqatishni o'zgartiradigan iqtisodiy muhitdir"⁷. Bu ta'rif raqamlashtirishning xizmatlarni taqdim etishning innovatsion shakllarini yaratishdagi asosiy o'rnini ko'rsatadi. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalar faqat jarayonlarni avtomatlashtiribgina qolmay, balki ishbilarmonlik modellarini ham isloh qiladi.

Xorijiy olimlar raqamlashtirishni xizmatlar samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy indikatorlar orqali ham baholaydilar. Masalan, OECD 2020 hisobotida "e-Government xizmatlari orqali aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning o'rtacha tezkorligi 38% ga oshgan, qo'shimcha ma'muriy xarajatlar esa 27% ga kamaygan" deya qayd etilgan⁸. Bu raqamlar raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini ham ifoda etadi.

Klaus Schwab, Jahon Iqtisodiy Forumining asoschisi, "To'rtinchi sanoat inqilobi"da raqamlashtirish haqida shunday deydi: "Biz ma'lumotlarning yangi neftga aylangan davriga kirdik; uning qayta ishlanishi esa xizmatlar samaradorligining miqdor va sifat jihatdan o'sishiga olib kelmoqda"⁹. Bu qarash raqamlashtirishni strategik resurs sifatida talqin qilishga asos soladi.

Westerman, Bonnet & McAfee raqamlashtirish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun "operatsion mukammallik va raqamli qiymat etkazib berishning birgalikdagi transformatsiyasi kerak" deya ta'kidlaydilar¹⁰. Xususan, ular davlat va xususiy sektor xizmatlarida raqamli echimlarning mijozlar talabiga javob beruvchanligi samaradorlikni belgilaydi, deb hisoblaydilar.

Marc Andreessen "Dasturiy ta'minot dunyoni" deb ta'kidlaganida, xizmatlar sohasining ham programmalashtirilishi jarayonlariga ishora qilgan. Uning fikriga ko'ra, "hamma xizmatlar programmalashgan modelga aylanmoqda, bu esa xizmatlarni fragmentlashtirish va

⁶https://www.researchgate.net/publication/262282923_Organizing_for_Innovation_in_the_Digitized_World

⁷https://www.google.co.uz/books/edition/Blockchain_Revolution/NqBiCgAAQBAJ?hl=ru&gbpv=1&dq=inauthor:%22Don+Tapscott%22&printsec=frontcover

⁸ OECD Economic Outlook, Volume 2020 Issue 2 https://www.oecd.org/en/publications/oecd-economic-outlook/volume-2020/issue-2_39a88ab1-en.html

⁹ The Fourth Industrial Revolution, 2016 https://law.unimelb.edu.au/data/assets/pdf_file/0005/3385454/Schwab-The_Fourth_Industrial_Revolution_Klaus_S.pdf

¹⁰ Westerman, G., Calm  jane, C., Bonnet, D., Ferraris, P., & McAfee, A. (2011). Digital Transformation: A Road-Map for Billion-Dollar Organizations. MIT Center for Digital Business and Capgemini Consulting. www.innovativepublication.uz



avtomatlashtirish imkonini yaratadi”¹¹.

SHuningdek, ingliz olimlari Erik Stolterman va Anna Croon Fors raqamlashtirishning falsafiy nuqtai nazarini ta’kidlab: “Raqamlashtirish – bu insoniy tafakkur va texnologiya o’rtasidagi integratsiya jarayoni bo’lib, u xizmat ko’rsatishning shaxsiylashtirilgan, adaptiv va ta’limiy shakllarini rivojlantiradi” deya yozganlar¹².

Iqtisodchi Carl Benedikt Frey va Michael Osborne xizmatlar sohasida raqamlashtirish orqali avtomatlashtirish ehtimoli yuqori bo’lgan kasblar haqida gapirib, kelajakda xizmat ko’rsatuvchi mutaxassislarining raqamli ko’nikmalarini oshirish zarurligini ta’kidlaydilar¹³). Bugungi kunda raqamlashtirish “foydalanuvchi markazli xizmat modellari” yaratishga asos solmoqda. Bu haqda Henfridsson, Mathiassen & Svahn larning ta’kidlashicha: “Raqamli xizmat innovatsiyasi – bu raqamli modullar, qayta ishlanuvchi ma’lumotlar va masofaviy foydalanuvchi faoliyatiga asoslangan xizmat yaratish jarayonidir”¹⁴.

YUqoridagi olimlarning keltirilgan fikrlarini umumlashtirib ko’yidagi jadvalda tahlil qilsak (1-jadval).

1-jadval

Xorijiy olimlarning raqamlashtirish va xizmatlar sohasidagi fikrlari¹⁵

Mualliflar	Aniq iqtibos	Yo’nalish
A. Bharadwaj va boshqalar ¹⁶	Raqamlashtirish faqat texnologiyani joriy etish emas, balki raqamli imkoniyatlar orqali mijozlar uchun yangi qiymat yaratish jarayonidir.	Strategik qayta shakllanish
Brynjolfsson & McAfee ¹⁷	Raqamlashtirish xizmatlarda samaradorlik, tezkorlik va moslashuvchanlikni oshiradi.	Samaradorlik va raqobat
Yoo va boshqalar ¹⁸	Raqamli xizmatlar modullilik, integratsiya va innovatsiyaga asoslanadi.	Modulli raqamli xizmatlar
Tapscott ¹⁹	Raqamli iqtisodiyot qiymat qanday yaratilishi va etkazilishi jarayonini o’zgartiradi.	Iqtisodiy transformatsiya

¹¹ Marc Andreessen “Software is eating the world” 2011

¹² Erik Stolterman and Anna Croon Fors Information Technology and the Good Life 2004

¹³ Carl Benedikt Frey and Michael Osborne The Future of Employment, Oxford University 2013

¹⁴ Henfridsson, Mathiassen & Svahn “MIS Quarterly” 2014

¹⁵ O’rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

¹⁶ A. Bharadwaj va boshqalar “MIS Quarterly” 2013

¹⁷ Brynjolfsson & McAfee “The Second Machine Age” 2014

¹⁸ Yoo and others “Information Systems Research” 2012

¹⁹ Tapscott “The Digital Economy” 1996



OECD ²⁰	Raqamli davlat xizmatlari tezlikni 38% ga oshiradi, xarajatlarni 27% ga kamaytiradi.	Elektron hukumat samarasi
Klaus Schwab ²¹	Ma'lumotlar xizmatlarda samaradorlikni oshiradigan yangi neftga aylangan.	Raqamli resurs konsepsiyasi
Westerman va boshqalar ²²	Raqamli transformatsiya muvaffaqiyatli bo'lishi uchun operatsion samaradorlik va raqamli qiymat etkazib berish birgalikda amalga oshirilishi kerak.	Raqamli qiymat etkazib berish
Marc Andreessen ²³	Barcha xizmatlar dasturlashtirilmoqda va avtomatlashtirilmoqda.	Avtomatlashtirish va dasturlash
Stolterman & Fors ²⁴	Raqamlashtirish inson tafakkuri bilan moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni integratsiya qiladi.	Ijtimoiy integratsiya
Frey & Osborne ²⁵	Avtomatlashtirish ehtimoli yuqori bo'lgan xizmat sohasidagi ish o'rinlari yangi raqamli ko'nikmalarni talab qiladi.	Raqamli ko'nikmalar ehtiyoji
Henfridsson va boshqalar ²⁶	Raqamli xizmat innovatsiyasi qayta ishlanuvchi modullar va masofadan foydalanuvchi faoliyatiga asoslanadi.	Innovatsion xizmat modellari

Yuqoridagi olimlarning keltirilgan fikrlaridan xulosa qilib aytganda, xorijiy olimlar fikrida raqamlashtirish faqat texnologik vosita emas, balki xizmatlar sohasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv tizimlarini o'zgartiruvchi kompleks transformatsiya jarayoni sifatida qaraladi. Bu qarashlar nafaqat xizmatlarning samaradorligini oshirish, balki insoniy kapital, raqamli savodxonlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim nazariy poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shokirovna B. Z. THE ECONOMIC ROLE OF OIL PRODUCTION IN THE BUKHARA-KHIVA REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE COUNTRY //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – C. 55.
2. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European

²⁰ OECD Digital Government Report 2020

²¹ Klaus Schwab "The Fourth Industrial Revolution" 2016

²² Westerman and others "Digital Transformation Roadmap"

²³ Marc Andreessen "The Wall Street Journal" 2011

²⁴ Stolterman & Fors "Information Technology & People" 2004

²⁵ Frey & Osborne "Oxford University Study" 2013

²⁶ Henfridsson and others "MIS Quarterly" 2014



Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.

3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Biznes-Эксперт.
4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y. Xurram o'g'li XS TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-45.
5. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.
6. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
7. Xudaynazarova D. Theoretical Basis for the Formation of Tourist Villages //Economic Development and Analysis. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
8. Bobojonova Z. S. Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. – 2021.
9. ВОБОЖОНОВА З. Жамият ва инновациялар—Общество и инновации—. – 2021.
10. Бобожонова З. Ш., Абдуллаева Д. Innovative development of industrial production based on the principle of synergy Bobojonova Z., Abdullayeva D. 2 Инновационное развитие промышленного производства, основанного на синергетическом принципе //PROBLEMS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – С. 64.



Raqamlashtirish tushunchasining Markaziy Osiyoda talqin etilishi va uning xizmatlar sohasidagi o'rni

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Islomov Javlon Rasulovich

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish jarayonlarining xizmatlar sohasi rivojlanishiga ko'rsatgan institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri mahalliy olimlar ilmiy qarashlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot YUsupov SH., Boboxodjaev N., YUldoshev A., Abdusattorov F., Safarov I., Raximov B., Qurbonova S. kabi o'zbek olimlari hamda Tojikistonlik M. YUsufzoda va Qirg'izistonlik D. Esenovlarning xizmatlar sektorida raqamli transformatsiyaning mazmun-mohiyati haqidagi ilmiy nuqtai nazarlarini qamrab oladi. Ularning fikrlariga ko'ra, raqamlashtirish xizmatlarning funksional tavsiflarini qayta belgilash, institutsional muhitni optimallashtirish, xizmat sifati, tezkorlik va shaffoflikni sezilarli oshirish bilan birga, davlat boshqaruvi, ta'lim, tibbiyot va moliya xizmatlarida yangi kommunikatsion mexanizmlar yaratadi. Tadqiqot shuningdek, raqamlashtirilgan xizmatlarning jamoatchilik nazorati, korrupsiyani kamaytirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirishga qo'shgan hissasini ilmiy asoslarda yoritadi. Umumlashtirilgan xulosaga ko'ra, Markaziy Osiyo olimlarining qarashlarida raqamlashtirish xizmatlar sektorida samaradorlikni oshiruvchi texnologik jarayon bo'lish bilan birga, keng qamrovli strategik, ijtimoiy va boshqaruv funksiyalarini birlashtiruvchi transformatsion mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar. Raqamlashtirish; raqamli transformatsiya; xizmatlar sohasi; institutsional islohotlar; raqamli iqtisodiyot; xizmat sifati; shaffoflik; jamoatchilik nazorati; raqamli davlat xizmatlari; inson kapitali; raqamli savodxonlik; Markaziy Osiyo; YUsupov SH.; Boboxodjaev N.; Abdusattorov F.; Safarov I.; Esenov D.; YUsufzoda M.; xizmatlar ekotizimi.

Markaziy Osiyoda ham raqamlashtirish jarayonlari oxirgi o'n yillikda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida shakllanib, xizmatlar sohasiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonga oid ilmiy tahlillar soni ham ortib bormoqda. Xususan, o'zbek olimlari tomonidan raqamlashtirishning nazariy tushunchasi, uning iqtisodiy va institutsional jihatlari, hamda xizmatlar sohasidagi amaliy samaralari xususida bir qator ilmiy fikrlar ilgari surilgan.

YUsupov SH o'zining “Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatlari samaradorligini oshirishning institutsional asoslari” mavzusidagi tadqiqotida shunday yozadi: *“Raqamlashtirish xizmatlarning funksional tavsiflarini qayta ko'rib chiqish,*



ularning institutsional muhitida sifatli o'zgarishlar qilish imkonini beradi”¹. Bu fikr raqamlashtirishni faqat texnologik vosita emas, balki boshqaruv islohotlarining asosiy omili sifatida ko'radi.

N. Boboxodjaev va **A. Yuldoshevlar** ham o'z tadqiqotlarida raqamlashtirishning xizmatlar sohasiga ta'sirini keng ko'lamda tahlil qilgan. Ular: *“Xizmatlar sohasida raqamlashtirish orqali aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifat, tezkorlik va shaffoflik darajasi keskin oshadi”* deb ta'kidlaydilar².

Markaziy Osiyodagi etakchi tadqiqotchilardan biri bo'lgan **Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti** professori **Abdusattorov F.** shunday ta'kidlaydi: *“Raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasida mijoz-hokimiyat munosabatlarini transformatsiya qiladi, bu esa jamoatchilik nazorati va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni shakllantiradi”*³.

SHu bilan birga, **Tojikistonlik** tadqiqotchi **M. YUsufzoda** o'z maqolasida raqamlashtirishning xizmatlar sohasidagi institutsional ta'siri haqida shunday yozadi: *“Raqamlashtirilgan xizmatlar fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va korrupsiya xavfini kamaytiradi”*⁴.

Qirg'iziston iqtisodchisi olim **D. Esenov** “Qirg'izistonda raqamlashtirish va elektron hukumat platformalarining ta'siri” mavzusidagi tadqiqotida ta'kidlaydi: *“Ta'lim, tibbiyot va bank xizmatlari raqamlashtirilgan holda aholiga etkazilganida, foydalanuvchi talabini tez anglash, real vaqtda ma'lumotlar almashish va individual yondashuv imkoni yaratiladi”*⁵.

O'zbekistonda xizmatlar sohasida raqamlashtirish siyosatining amaliy natijalari to'g'risida **I. Safarov** quyidagicha yozadi: *“YAgona interaktiv davlat xizmatlari portali, my.gov.uz, axborotga bo'lgan erkin kirish, hisobotlarni avtomatlashtirish, vaqtni tejash va adashmasdan xizmat turlarini olish imkoniyatini beradi”*⁶.

Raximov B raqamlashtirishni inson kapitaliga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilib, shunday xulosa beradi: *“Raqamlashtirilgan xizmatlar faqat avtomatlashtirish emas, balki kadrlar malakasi, raqamli savodxonlik va raqobatbardoshlikni oshiradigan kompleks vositadir”*⁷.

¹ Юсупов Ш “Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил” журнали, 2021, №2

² Н.Бобоходжаев ва А.Юлдошев. “Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиш йўналишлари”, Тошкент, 2020

³ Ф. Абдусатторов “Иқтисодий муносабатлар” журнали, 2022, №3

⁴ М. Юсуфзода “Central Asian Economic Review”, Dushanbe, 2021

⁵ Д. Эсенов “Central Asian Economic Review” Бишкек, 2020

⁶ И.Сафаров “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”, 2021, №1

⁷ Рахимов Б. “Иқтисодий билимлар журнали”, 2023, №4



Bundan tashqari, Samarqand davlat universiteti professori S.Qurbonova raqamlashtirishning ijtimoiy yondashuviga alohida e'tibor qaratadi: *“Raqamli xizmatlar aholining ehtiyojlariga javob berish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va imkoniyatlar notengligini qisqartirish vositasiga aylanmoqda”*⁸.

SH.Bo'rimuratova o'zining “Xizmatlar sohasida raqamlashtirish jarayonlarini baholashning innovatsion uslublari” mavzusidagi ilmiy maqolasida shunday yozadi: *“Xizmatlar samaradorligini baholashda KPI ko'rsatkichlaridan tashqari, raqamli ko'rsatkichlar, masalan, portal orqali xizmat olganlar ulushi, xizmat ko'rsatish vaqti va qoniqish indeksi kabi mezonlar joriy qilinishi lozim”*⁹.

1.2-jadval

Markaziy Osiyo va O'zbekiston olimlarining raqamlashtirish haqidagi fikrlari

Mualliflar	Iqtibos	Yo'nalish
YUsupov SH.	“Raqamlashtirish xizmatlarning funksional tavsiflarini qayta ko'rib chiqish, ularning institutsional muhitida sifatli o'zgarishlar qilish imkonini beradi.”	Institutsional yondashuv
Boboxodjaev N. va YUldoshev A.	“Xizmatlar sohasida raqamlashtirish orqali aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifat, tezkorlik va shaffoflik darajasi keskin oshadi.”	Xizmat sifati va shaffoflik
Abdusattorov F.	“Raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasida mijoz-hokimiyat munosabatlarini transformatsiya qiladi, bu esa jamoatchilik nazorati va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni shakllantiradi.”	Jamoatchilik nazorati
M. YUsufzoda (Tojikiston)	“Raqamlashtirilgan xizmatlar fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.”	Ijtimoiy barqarorlik va ishonch
D.Esenov (Qirg'iziston)	“Ta'lim, tibbiyot va bank xizmatlari raqamlashtirilgan holda aholiga	Innovatsion xizmatlar

⁸ С.Қурбонова “Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий таҳлиллари”, 2022

⁹ Ш.Бўримуратова “Иқтисодиёт ва таълим” ТДИУ, 2023
www.innovativepublication.uz



	etkazilganida, foydalanuvchi talabini tez anglash, real vaqtda ma'lumotlar almashish va individual yondashuv imkoni yaratadi.”	
Safarov I.	“YAghona interaktiv davlat xizmatlari portali, my.gov.uz, axborotga bo‘lgan erkin kirish, hisobotlarni avtomatlashtirish, vaqtni tejash va adashmasdan xizmat turlarini olish imkoniyatini beradi.”	Davlat xizmatlarini raqamlashuvi
Raximov B.	“Raqamlashtirilgan xizmatlar faqat avtomatlashtirish emas, balki kadrlar malakasi, raqamli savodxonlik va raqobatbardoshlikni oshiradigan kompleks vositadir.”	Inson kapitali va raqobatbardoshlik
Qurbonova S.	“Raqamli xizmatlar aholining ehtiyojlariga javob berish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va imkoniyatlar notengligini qisqartirish vositasiga aylanmoqda.”	Ijtimoiy tenglik va raqamli adolat
Bo‘rimuratova SH.	“Xizmatlar samaradorligini baholashda KPI ko‘rsatkichlaridan tashqari, raqamli ko‘rsatkichlar, masalan, portal orqali xizmat olganlar ulushi, xizmat ko‘rsatish vaqti va qoniqish indeksi kabi mezonlar joriy qilinishi lozim.”	Samaradorlikni baholash indikatorlari

Markaziy Osiyo va O‘zbekiston olimlari fikrlariga qaralganda, raqamlashtirishning xizmatlar sohasiga ta’siri bir nechta darajada – texnologik, institutsional, ijtimoiy va strategik jihatdan namoyon bo‘ladi. Barcha olimlar fikrida umumiy jihat shuki, raqamlashtirish samaradorlik, shaffoflik, foydalanuvchiga moslik va tezkorlikni oshiradigan, shu bilan birga xizmat ko‘rsatishning yangi madaniyatini shakllantiradigan asosiy mexanizm sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shokirovna B. Z. THE ECONOMIC ROLE OF OIL PRODUCTION IN THE BUKHARA-KHIVA REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE COUNTRY //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – C. 55.
2. Shokirovna B. Z., Xurram o‘g‘li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 110-113.



3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Biznes-Эксперт.
4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y. Xurram o'g'li XS TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-45.
5. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.
6. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
7. Xudaynazarova D. Theoretical Basis for the Formation of Tourist Villages //Economic Development and Analysis. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
8. Bobojonova Z. S. Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. – 2021.
9. BOBOJONOVA Z. Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–. – 2021.
10. Бобожонова З. Ш., Абдуллаева Д. Innovative development of industrial production based on the principle of synergy Bobojonova Z., Abdullayeva D. 2 Инновационное развитие промышленного производства, основанного на синергетическом принципе //PROBLEMS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – С. 64.

**Raqobatbardoshlikning iqtisodiy mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ismoilova Nodira

Annotatsiya. Maqolada XXI asr boshidan boshlab global miqyosda raqamli texnologiyalar kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy transformatsiya jarayonlari, raqobatning evolyutsiyasi va milliy iqtisodiyotlar uchun innovatsion rivojlanishning ustuvor omillari chuqur tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, transaksion sektorning o'sishi, xizmat ko'rsatish bozorining offline va online segmentlardagi tarkibiy o'zgarishlar hamda texnologik yangilanishlar korxonalar faoliyatini raqobatbardosh qilishdagi rolga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. raqamli iqtisodiyot; raqobatbardoshlik; xizmatlar bozori; innovatsion rivojlanish; narxsiz raqobat; transaksion sektor; iqtisodiy transformatsiya; informatsion texnologiyalar; Porter nazariyasi; xizmat sifatini boshqarish; texnologik modernizatsiya; aloqa xizmati; iqtisodiy samaradorlik.

XXI asrning boshida G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika qit'asi ijtimoiy – iqtisodiy xayotiga yangi innovatsiyalar raqamli (digital) ko'rinishda shiddat bilan kirib kela boshladi. Jahon mamlakatlari tajribasi innovatsiyani yangi ko'rinishi sifatida raqamli texnologiyalarni barcha sohalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga joriy etish orqali, jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning xarakatlantiruvchi kuchiga aylanganini ko'rsatmoqda. Raqamli texnologilarga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va dasturlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarini qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning innovatsion segmentiga tegishli bosh manba – trakzaksion sektorning o'sishidir.

Mamlakatimiz iqtisodiy islohatining bugungi kunga kelib xizmat ko'rsatishni tashkil etish, raqobatbardosh xizmat xizmat ko'rsatishni rejalashtirish va xizmat sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etayotgan masalalarni kompleks tizimidan bozor munosabatiga o'tishi bilan harakterlash mumkin.

Bunda nafaqat offline balki online bozorni xarakatga keltiruchi, uning taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuch - bu raqobatdir. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushinib olish, unga turli tomondan yondashishni talab qiladi. Raqobat korxonaning eng samarali texnologiyaga o'tish, ilg'or xizmat ko'rsatishni ta'minlab borishga undaydi. U past va kam samarali texnologiya asosida xizmat ko'rsatishni uyushtirilgan korxonalarni



qo‘llamaydi va ularning boshqa ilg‘or raqiblar tomonidan siqib chiqarilishiga olib keladi

Shuning uchun raqobat, aytganimizdek, texnik progress imkoniyatini qo‘llaydi va uni keng taraqqiyotga undaydi. Hamda korxonalar mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko‘rsatish va mehnatni oqilona tashkil etishga, binobarin xizmat ko‘rsatishni kengaytirish va samaradorligini oshirishga doim undab turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi raqobatning ikkita asosiy - tarmoqlararo va tarmoq ichidagi shakli mavjud:

1) tarmoqlararo raqobat turli tarmoqdor korxonalari o‘rtasidagi eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo‘lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o‘tishiga sabab bo‘ladi.

2) tarmoq ichidagi raqobat xizmat ko‘rsatish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o‘rtasida boradi.. Har bir tarmoqqa texnika bilan ta‘minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo‘lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual(alohida) qiymati bir xil bo‘lmaydi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, dastavval raqobatbardoshlik mazmunini ta‘riflashda uch: klassik, neoklassik va marjinal neoinstitutsional yo‘nalish namoyondalarining fikrlari farqlanadi. Mazkur yo‘nalishlar nazariyalari va zamonaviy yondashuvlarni tatqiq etish natijasida dissertatsiyada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida raqobatbardoshlik tushunchalariga berilgan ta‘riflar va yondashuvlarni qiyosiy o‘rganildi va tizimlashtirildi (1-jadval).

Michael Porter, - “Raqobatbardoshlikni korxona yoki milliy iqtisodiyotning boshqa ishtirokchilarga nisbatan ustunlikka erishish qobiliyati” deb ta‘riflaydi. Porterning fikricha, raqobatbardoshlik xizmat ko‘rsatish samaradorligi, innovatsion faoliyat va qiymat zanjiri orqali yaratiladi.

1-jadval

«Raqobatbardoshlik» atamasiga berilgan ta‘riflar¹

Mualliflar	Ta‘riflar
Michael Porter ²	Raqobatbardoshlikni korxona yoki milliy iqtisodiyotning boshqa ishtirokchilarga nisbatan ustunlikka erishish qobiliyati deb ta‘riflaydi. Porterning fikricha, raqobatbardoshlik xizmat ko‘rsatish samaradorligi, innovatsion faoliyat va qiymat zanjiri orqali yaratiladi.

¹ O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif yondashuvi.

² M.Porter. «Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors» (2000) [Volume 22, Issue 6-7](#) p. 493-520
www.innovativepublication.uz



“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI”

<u>R. Richard va G.Sidney³</u>	Kompaniyaning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligi uning doimiy ravishda o'z resurslarini yangilab borish va bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatiga bog'liq.
Evgeny Yasin ⁴	Korxonaning raqobatbardoshligi uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va inson kapitalini rivojlantirish, hamda bozor mexanizmlarini mustahkamlashdir.
Marat Kudaibergenov ⁵	Raqobatbardoshlik bu texnologik modernizatsiya, eksport strategiyalari, resurslarni samarali boshqarish va davlat-xususiy sektor hamkorligiga qaratilgan bo'lib, global bozorlar bilan raqobatlashish imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.
Farruh Qosimov ⁶	Raqobatbardoshligini oshirish, brending va marketing strategiyalarini rivojlantirish bilana bog'liq. Xalqaro bozorlar uchun raqobatbardosh xizmatlar xizmat ko'rsatish va xizmat sifatini rivojlantirish yo'llarini o'rgangan.
Qalmuratov B.S. ⁷	Raqobatbardoshlik shunchaki xizmat ko'rsatishga joriy qilingan ob'ekt emas, balki mavaffaqiyatli joriy qilingan va foyda keltiruvchi jarayon tushuniladi.

R. Richard va G.Sidney – “Kompaniyaning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligi uning doimiy ravishda o'z resurslarini yangilab borish va bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatiga bog'liq” deb ta'riflaydi.

Evgeny Yasin Korxonaning raqobatbardoshligi uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va inson kapitalini rivojlantirish, hamda bozor mexanizmlarini mustahkamlashdir.

Marat Kudaibergenov – “Raqobatbardoshlik bu texnologik modernizatsiya, eksport strategiyalari, resurslarni samarali boshqarish va davlat-xususiy sektor hamkorligiga qaratilgan bo'lib, global bozorlar bilan raqobatlashish imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi”.

Farruh Qosimov – “Raqobatbardoshligini oshirish, brending va marketing

³ Richard R. Nelson va Sidney G. Winter (2003) An Evolutionary Theory of Economic Change, Elsevier, Nyu-York.

⁴ Evgeny Yasin «Rossiya iqtisodiyoti: islohotlar va taraqqiyot» (Economic Reforms and Development in Russia).-M.:Экономика, 1996, 35с.

⁵Marat Kudaibergenov., Qozog'istonning aloqa va telekommunikatsiya sohasiga yo'naltirilgan strategiyalarni rivojlantirish Moodle / – Электрон. текстовые и граф. дан. (4,8 Мбайт). – Astana, 2025, С 6-7

⁶ Qosimov, F. (2024). Marketing strategiyalari asosida tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish. Journal of Fundamental Studies, 2(3), 67-71.

⁷ Qalmuratov B.S. «Aloqa sohasida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)». 08.00.13-Menejment. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019 y. 22 bet.



strategiyalarini rivojlantirish bilana bog'liq. Xalqaro bozorlar uchun raqobatbardosh xizmatlar xizmat ko'rsatish sifatini oshirish yo'llarini o'rgangan”.

Qalmuratov B.S. – “Raqobatbardoshlik shunchaki xizmat ko'rsatishga joriy qilingan ob'ekt emas, balki mavaffaqiyatli joriy qilingan va foyda keltiruvchi jarayon tushuniladi”.

Fikrimizcha, zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning deyarli barchasida iqtisodiy rivojlanish omili bu raqobatbardoshlikni sifatida tan olingan. Shunga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish nafaqat biror iqtisodiy subyekt yoki korxonaning, balki butun bir tizimning ham rivojlanishini ta'minlovchi alohida asosiy o'sish manbai hisoblanadi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda xizmatlarini sotishga hukuqiy, texnologii, moliyaviy va boshqa jiddiy to'siqlar bo'lmaydi.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi va narxsiz raqobat. Narx vositasidagi raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli o'z xizmatlari yoki xizmat narxlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday xizmatlarinikiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko'p ko'llaniladigan ko'rinishi - "narxlar jangi" deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar rakiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti- vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi.

Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritish, malakaliroq xodimlarni yollashi va xizmat ko'rsatishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini tushirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek narx bilan raqobatlashuvga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- muayyan toifadagi iste'molchilar uchun imtiyozli narxlarda (masalan, ulgurji savdoda doimiy xaridorlarga ma'lum bir foiz(%) li chegirmalar berish berish) sotish;
- vaqt va joyiga qarab narxlarni tushirish yoki ko'tarish;
- xizmatlar sifati yaxshilangan sharoitlarda ham amaldagi narxlarni saqlab turish;
- xaridorlar uchun kredit muddatlarini uzaytirish va boshqalar.

Narx bilan raqobatlashuvga kirmaydigan raqobat usullarini "narxsiz raqobat" deb ataladi. Bu atama garchi noaniq bo'lsada amaliyot va ilmiy adabiyotda keng qo'llaniladi, raqobat kurashidagi turli usullarga yagona nom berishga imkoniyat yaratadi. Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili xizmatlarning narxi emas, balki uning sifati, sotilgandan keyingi xizmat ko'rsatilishi va ishlab chiqaruvchi korxonaning obro'-e'tibori hisoblanadi. Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun yangi



xizmatlarning sifati oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y berishi kerak. Hozirgi davrda bir turdagi xizmatlarning ko'payishi ularning sotilishini rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va korxona muxrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda. Aloqa va kommunikatsion soha rivojlanishi xizmatlarning o'sishi, iqtisodiy va mavjud texnik resurslardan samarali foydalanish, aholi turmush darajasini oshirish, barqaror va muvozanatli ekologik vaziyatni hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shokirovna B. Z. THE ECONOMIC ROLE OF OIL PRODUCTION IN THE BUKHARA-KHIVA REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE COUNTRY //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – С. 55.
2. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.
3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Бизнес-Эксперт.
4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y. Xurram o'g'li XS TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-45.
5. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.
6. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
7. Xudaynazarova D. Theoretical Basis for the Formation of Tourist Villages //Economic Development and Analysis. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
8. Bobojonova Z. S. Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. – 2021.
9. БОБОЖОНОВА З. Жамият ва инновациялар—Общество и инновации—. – 2021.
10. Бобожонова З. Ш., Абдуллаева Д. Innovative development of industrial production based on the principle of synergy Bobojonova Z., Abdullayeva D. 2 Инновационное развитие промышленного производства, основанного на синергетическом принципе //PROBLEMS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – С. 64.

**Raqobatbardoshlikning iqtisodiy-nazariy asoslar**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ismoilova Nodira

Annotatsiya. Maqolada raqobatbardoshlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning turli yo‘nalishlar — tamoyil, strategiya, taktika, funktsiya, jarayon va natija sifatida talqin etilishi nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikning nisbiy kategoriyasi sifatida namoyon bo‘lishi, ayniqsa xizmat raqobatbardoshligi iste‘molchi ehtiyojlarini qondirish darajasi, xarajatlar tuzilmasi va xizmatning texnik, ergonomik, me‘yoriy, estetik hamda iqtisodiy parametrlar majmuasi orqali ifodalanishi yoritilgan. Tadqiqotda raqobatning narxli va narxsiz shakllari, “narxlar jangi”, chegirmalar tizimi, to‘lov va yetkazib berish shartlari, kafolat va sotuvdan keyingi servis kabi omillarning xizmat raqobatbardoshligi darajasiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. raqobatbardoshlik; xizmat raqobatbardoshligi; narxli raqobat; narxsiz raqobat; iste‘mol narxi; texnik va ergonomik parametrlar; me‘yoriy talablar; ekspert baholash; sotsiologik usul; bozor mexanizmlari; xizmat sifati; iste‘molchi ehtiyoji; raqobat omillari.

Raqobatbardoshlik — mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o‘xshash obxektlarga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi obyekt xususiyatidir. Shu bilan birga raqobatbardoshlik — aniq bozor sharoitlarida boshqalar bilan musobaqada chidash imkoniyatidir.

Raqobatbardoshlik marketing tadqiqodlari natijalari bo‘yicha aniqlanadi. U tovarning ham aniq ijtimoiy ehtiyojga moslik darajasi, ham uni kondirishga sarflangan xarajatlar bo‘yicha uning raqib tovaridan farqini ifodalovchi tavsifidir.

Raqobatbardoshlik nisbiy o‘lchov bo‘lib, xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeta, ya’ni xizmat raqobatbardoshligiga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

1-jadval**Raqobatbardoshlik tushunchasining turli yo‘nalishlarda qo‘llanilishi¹**

Qo‘llanilish yo‘nalishi	Tushunchaning tarkibi
Raqobatbardoshlik tamoyil sifatida	Bu shuni anglatadiki, ya’ni ikki yirik guruhga ajratilgan harakatlar va qarorlar aniqlanadi: birinchi guruh sifatga olib keladigan harakatlar va qarorlarni birlashtiradi; ikkinchi guruh esa aksincha raqobat rivojlanishini ta’minlamaydigan harakatlar va qarorlarni birlashtiradi. Birinchi

¹ Muallif tomonidan adabiyotlar taxlili natijasida tayyorlandi
www.innovativepublication.uz



“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI”

	guruh tarkibidagi harakatlar va qarorlarni saqlab qolish va rag'batlantirish zarur, ikkinchi guruh tarkibidagi harakatlar va qarorlarga esa tuzatishlar kiritish hamda o'zgartirish xususida aniq bir qaror qabul qilish talab etiladi.
Raqobatbardoshlilik rivojlanish strategiya sifatida	Ma'lum bir uzoq muddatli vaziyatning bir elementi bo'lib, bu ma'lum parametrlar, harakatlar, vazifalar, resurslardan foydalanish va boshqalarni qo'llashdan iboratdir. Bu esa joriy holatdan kelajakka qadar muvozanatni ta'minlaydi. Yakunda harakatlardagi pasayishlarga qaramay joriy holatdagiga nisbatan yaxshiroq holatga olib keladi.
Raqobatbardoshlilik taktika sifatida	Bu ma'lum bir kichik davrdagi muvozanatdagi holatdan qisqa muddat ichida tezkor o'sish hisobiga yanada yaxshiroq xolatga chiqishdir.
Raqobatbardoshlilik funktsiya sifatida	Bu institutsional, ijtimoiy va ekologik omillar kabi yangi parametrlarni o'z ichiga olish hisobiga xizmat ko'rsatish funksiyalarini kengaytirish yoki mukammallashtirishni anglatadi.
Raqobatbardoshlilik jarayon sifatida	Ma'lum bir vaqt davomida korxona faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy va sifatli ko'rsatkichlaridagi ijobiy o'zgarishlarni nazarda tutadi va shu bilan bir qatorda faoliyatdagi salbiy ko'rsatkichlar kamayib boradi.
Raqobatbardoshlilik natija sifatida	Innovatsiyalarni amalga oshirish, texnologik rivojlanish sharoitida jamiyat ehtiyojlarini qondirish sifatini oshirish, jamiyatni tashkil etish, jamiyat va tabiiy resurs bazasini tashkil etish bilan bog'liq tarkibiy o'zgarishlarning natijasidir.

Xizmat raqobatbardoshligi deganda, iste'molchining aniq ehtiyojlarini qondirish va uni xarid qilish hamda keyinchalik undan foydalanish uchun sarflanadigan xarajatlar darajalari bo'yicha uni, ya'ni xizmat boshqa shunday xizmatlardan ajralib turadigan tavsiflar yig'indisi tushuniladi.

Xizmat raqobatbardoshligi — biror bir korxona tomonidan ishlab chiqarilgan, raqobatchi korxonalarining xuddi shunday tovarlariga qaraganda yaxshiroq iste'mol xususiyatlari va texnik-iqtisodiy parametrlariga ega bo'lgan tovarlarning iste'molchilar tomonidan ajratib olinish “qobiliyati”dir.



Raqobatbardoshlik aynan bozorda kuzatiladi va tovarlarning iste'molchi ehtiyojlariga muvofiq kelishi solishtirilib ko'riladi. Ana shunda xizmatning raqobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darajasini ko'rsatadi.

Har bir xaridor o'ziga yoqqan tovarni sotib oladi, iste'molchilar esa raqiblar tovariga nisbatan ko'prok ijtimoiy ehtiyojlariga moye keluvchilarini tanlashadi. Shuning uchun rakobatdoshlik (tanlangan bozorda tovarni sotish imkoniyati)ni faqat raqiblar maxsulotni solishtirish orqali aniqlash mumkin.

Hozirgi kunda bozorda korxonalar alohida xizmatlarni emas, balki xaridor uchun muhim xizmatlarni sotishga xarakat qilishadi. Bozordagi raqobat ko'proq xizmat sotishni ko'zlaydi. Asosiy axborotni iste'molchilar xizmat ko'rsatuvchidan olishadi.

Iste'molchilarni asosan xizmatning iste'mol qiymati qiziqtiradi. Raqobat, bozorda taklif talabdan yuqori bo'lganda, korxonalar ichida emas, balki xizmatlar orasida namoyon bo'ladi.

Xizmatning raqobatbardoshligini o'rganish jarayoni murakkab bo'lib o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- xizmatni sotish bozorini o'rganish;
- raqiblar haqida ma'lumotlar yig'ish;
- iste'molchilar talablarini o'rganish;
- xizmat raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;

Xizmatni xizmat ko'rsatish va bozorga sinov sotishlari bilan chiqish xaqidagi qaror. Bu masalalarni hal qilish korxonada xizmat rakobatbardoshligini ta'minlashning uzluksiz tizimini yaratishni talab qiladi.

Har qanday xizmat bozorga chiqishi bilanoq, o'z raqobatbardoshligini yo'qota boshlaydi, bu jarayonni sekinlatish mumkin. Bu iktisodiy foyda va oldingi xizmat o'z raqobatbardoshligini to'la yo'krtish paytigacha bozorga yangi xizmat bilan chiqish imkoniyatini beradi.

Xizmat raqobatbardoshligini ta'riflovchi o'lchamlar o'z ichiga bir necha guruhlarni oladi, ya'ni xizmat raqobatbardoshligining asosiy kattaliklari quyidagilardan iborat:

- texnik — tizim kattaliklari, ergonomik, meyoriy, estetik;
- iqtisodiy- iste'mol qilish bahosi;
- tashkiliy-chegirmalar tizimlari, xizmatlarni yetkazib berish vaularga haq to'lash shartlari,
— yetkazib berish muddatlari, yetazib berish shartlari va kafolatlari, yetkazib berishning komplektliligi[45].

Xizmat raqobatbardoshligini tahlil qilishda birinchi navbatda tasnifiy o'lchamlardan foydalaniladi, ular xizmatning belgilangan sinfi yoki turiga qaramligi bilan aniqlanadilar. Bundan tashqari har bir buyumlar guruhiga moye bo'lgan texnik konstruktorlik



yechimlarida aks ettiruvchi konstruktivli parametrlar mavjud.

Ergonomik o'lchamlarga quyidagilar kiradi: gigiyenik, antropometrik, fiziologik, ruhiy xizmat xususiyatlarini kishi psixikasiga mosligi va boshqalar.

Me'yoriy o'lchamlar xizmatlarning meyorlar, qoidalarga muvofikligini ko'rsatadi. Ular ushbu o'lchamdan chiqish huquqiga ega bo'lmagan turli xil darajali (davlat, davlatlararo, hududiy) chegaralarda tartibga soladi. Shuni ta'kidlash kerakki, halqaro meyorlar, masalan, standartlar bo'yicha halqaro tashkilot (ISR) talablariga moye kelishi, milliy meyorlarga avtomatik moc kelishini bildirmaydi, chunki keyingisi yanada qattiqroq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari meyoriy o'lchamlarga yana bizning xizmatimizni import qiluvchi mamlakat huquq (patent) meyorlariga mosligi ham kiradi. Patent huquqlarining buzilishi xizmatni sotishga imkon bermaydi. Shuning bilan birga xizmatga patent, uning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, chunki korxona huddi shunday raqobat qiluvchi xizmatni bozorga kiritmaslik yuridik imkoniyatiga ega[47]. Estetik meyorlar ba'zida harid qilish narxi muhim rol o'ynaydi, chunki tashqi ko'rishi orqali dizayner “zamonaviylik” “zamon ruhiga moye kelish” kabi xizmatningning xususiyatlarini aks ettiradi.

Xizmatning iqtisodiy o'lchamlari uning asosiy xususiyatlarini, ya'ni xaridorning xizmatni harid qilish va butun ishlatish davridagi foydalanish harajatlarini ta'riflaydi. Xizmatning iste'mol narxi majmuada quyidagi elementlardan vujudga keladi:

- foydalanish joyigacha yetkazib kelish xarajatlari (C1),
- o'rnatish va ishlash qobiliyatiga keltirish qiymati (C2),
- xodimlarni ergashtirish (C3),
- yonilg'i, elektr-energiyasiga xarajatlar (C4),
- xodimlarning ish haqi (C5),
- kafolatdan keyingi xarajatlari (C6),
- xizmatni sug'urta qilish xarajatlari (C7),
- soliqlar (C8),
- o'z resursini ishlab bo'lgandan keyin xizmatni utilizatsiyalash xarajatlari (C9),
- ko'zda tutilmagan xarajatlari (C10).

Bu xarajatlar jamlanganda iste'mol narxi (C) — iste'molchilarga xizmatni butun xizmat kilish davrida kerak bo'ladigan mablag'lar xajmini tashkil qiladi:

$$C = C_1 + C_2 + C_3 + C_4 + C_5 + C_6 + C_7 + C_8 + C_9 + C_{10}$$

Iste'mol narxi xizmat raqobatbardoshligining muhim o'lchamlaridan birini namoyon qiladi, xizmatdan foydalanish bilan bog'lik xarajatlar uning harid narxidan bir necha marta ortib ketadi.

Xizmat raqobatbardoshlik darajasi bir qancha omillar ta'sirida bo'ladi. Ularning ayrimlari ijobiy, ayrimlari salbiy, ba'zilar uzok vaqt, ba'zilar qisqa vaqt, ayrimlari to'g'ridan-to'g'ri (bevosita), ayrimlari bilvosita ta'sir ko'rsatadilar. Xizmatning rakrbatbardoshlik omillarini



o'rganishda, ularning har biriga alohida tavsif beriladi, yuqori darajada ulushga ega bo'lganlariga ko'proq urg'u berilib, unga e'tibor kuchaytiriladi. Korxonalar raqobatbardoshligi o'rganilganida ham uning alohida olingan bozordagi, tarmoqdagi o'rni, ulushi, uning pozitsiyasi aniklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shokirovna B. Z. THE ECONOMIC ROLE OF OIL PRODUCTION IN THE BUKHARA-KHIVA REGION AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE COUNTRY //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – С. 55.
2. Shokirovna B. Z., Xurram o'g'li X. S. INNOVATIVE FOUNDATIONS OF A UNIFIED ECONOMY IN THE FIELD OF RELIGIOUS EDUCATION //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.
3. ЮЛДАШЕВ, Қ., Ўзбекистонда давлат-хусусий, А. Ш., ТОЖИБОЕВА, Ш., ТОШПЎЛАТОВА, Г., ТАРАХТИЕВА, Г., & БОБОЖОНОВА, З. Бизнес-Эксперт.
4. Shokirovna B. Z., Muxayyo Y. Xurram o'g'li XS TOPIC: DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 42-45.
5. Худайназарова Д. МЕТОДЫ ОЦЕНКИ РИСКОВ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕНДЕНЦИЙ В ТУРИСТИЧЕСКОМ БИЗНЕСЕ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 682-687.
6. Худайназарова Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДЕРЕВЕНЬ //Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
7. Xudaynazarova D. Theoretical Basis for the Formation of Tourist Villages //Economic Development and Analysis. – Т. 2. – №. 12. – С. 435-448.
8. Bobojonova Z. S. Analysis of economic efficiency of oil recovery from fields in Bukhara-Khivinsky region and ways of its implementation. – 2021.
9. BOBOJONOVA Z. Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–. – 2021.
10. Бобожонова З. Ш., Абдуллаева Д. Innovative development of industrial production based on the principle of synergy Bobojonova Z., Abdullayeva D. 2 Инновационное развитие промышленного производства, основанного на синергетическом принципе //PROBLEMS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – С. 64.



THE ROLE OF PR CAMPAIGNS IN THE IMPLEMENTATION OF STATE REFORMS IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION

Muslima Jienbaeva Jiemuratovna

Karakalpak State University named after Berdakh

Email: muslimazienbaeva@gmail.com

Abstract

This article examines the role of PR campaigns in the implementation of state reforms during the era of digital transformation. The study highlights how digital communication tools, social media, modern mass media, and governmental communication policies contribute to strengthening transparency, openness, and public engagement in governance processes. The findings demonstrate that well-designed PR strategies significantly enhance the effectiveness of state reforms and help build trust between the government and society.

Keywords: PR campaign, state reforms, digital transformation, communication, information policy, public administration.

INTRODUCTION

In recent years, digital transformation has dramatically reshaped the mechanisms of governance, communication, and public interaction. Governments around the world are increasingly adopting modern information technologies to improve transparency, accessibility, and the overall effectiveness of state reforms. In this context, public relations (PR) campaigns play a crucial role as a bridge between governing institutions and society. Effective PR strategies help ensure that ongoing reforms are properly communicated to citizens, stakeholders, and the international community. They also contribute to building trust, countering misinformation, and increasing public participation in the reform process. Therefore, understanding the functions and significance of PR campaigns in the digital era is essential for achieving sustainable socio-political progress.

This research aims to analyze the role of PR campaigns in supporting state reforms in Uzbekistan and other countries undergoing digital transformation. It also assesses the effectiveness of digital communication tools used by government structures.

MAIN PART

1. The essence of PR campaigns in public administration

A PR campaign is a planned communication activity aimed at shaping public perception, maintaining reputation, and ensuring mutual understanding between an institution and its audience. In the public sector, PR aims to:



- explain the goals and expected outcomes of reforms,
- increase citizens' awareness of government programs,
- encourage participation in socio-political processes,
- strengthen trust in state institutions.

During digital transformation, these tasks become even more significant, as public expectations for open and fast communication grow rapidly.

2. Digital transformation as a new stage in governmental communication

Digital transformation in public administration includes:

- the use of e-government systems,
- online platforms for public services,
- digital databases,
- artificial intelligence tools,
- social media communication.

These innovations simplify access to information and reduce the communication gap between government and citizens. PR campaigns integrated with digital tools allow governments to deliver messages more accurately and quickly.

3. The role of social media in PR campaigns

Today, platforms such as Telegram, Facebook, Instagram, YouTube, and X (Twitter) serve as the primary sources of information for many citizens. Government agencies, ministries, and PR centers actively use these channels to:

- publish official statements,
- respond to public questions,
- provide real-time updates about reforms,
- combat fake information,
- organize awareness campaigns.

Social media enhances interactivity and allows institutions to measure public reaction instantly through comments, views, and analytics.

4. PR campaigns and transparency of state reforms

Transparency is a key principle in modern governance. PR campaigns ensure this by:

- presenting clear explanations of reform strategies,
- sharing progress reports and statistical data,
- providing access to government decisions,
- involving experts and media representatives in discussions.

When reforms are communicated transparently, society is more likely to support them, reducing resistance or misunderstandings.

5. Challenges facing PR campaigns in the digital era

Despite progress, several issues remain:

- the spread of misinformation and fake news,



- low media literacy among some citizen groups,
- cyberthreats and data security problems,
- unequal access to digital technologies in rural regions,
- lack of professional PR specialists in certain institutions.

These challenges demand the development of advanced communication strategies and continuous professional training.

6. Case of Uzbekistan: digital reforms and PR strategies

Uzbekistan is actively implementing large-scale reforms in:

- public administration,
- economy,
- education,
- healthcare,
- judicial and legal systems.

Government PR centers, press services, and official media platforms have been significantly modernized. Telegram channels of ministries and press conferences of the President's Administration have become important communication tools. The adoption of the "Open Data" platform and "E-government" also demonstrate the integration of PR into digital governance.

These measures have helped increase public trust, improve transparency, and strengthen the dialogue between the state and society.

CONCLUSION

PR campaigns are an essential component of successful state reforms, especially in the era of digital transformation. They enable the government to effectively communicate reform objectives, maintain public trust, and foster citizen engagement. Digital communication tools, including social media and e-government platforms, have significantly improved the outreach and effectiveness of PR strategies.

For maximum impact, PR campaigns must continue adapting to technological advancements and societal needs. Governments should invest in digital literacy, expand access to communication technologies, and train professional PR specialists. By doing so, they will ensure more efficient, transparent, and citizen-centered reform processes.

REFERENCES

1. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
2. Grunig, J. E., & Hunt, T. Managing Public Relations. New York: Holt, Rinehart & Winston, 1984.
3. Nasretdinov, R. Digital Governance and Communication Strategies in Public Administration. Tashkent: Academy Press, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi. Raqamli Transformatsiya Hisoboti. Toshkent, 2024.
5. OECD. Digital Government Review. Paris: OECD Publishing, 2022.



YAQIN TILLARDAN TARJIMA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yeshboyeva Matluba

Nukus DPI 2-kurs doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda yaqin tillar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilga. Tarjima yaqin tillardan, ayniqsa qardosh tillardan qilinsa, qanday qulayliklar va noqulayliklar borligi, qanchalik oson va qanchalik qiyin bo'lishi to'g'risida tahlil qilingan. Kalit so'zlar: tarjima, tarjimon, yaqin tillar, qardosh tillar, tarjima jarayoni.

Tarjima jarayonini o'rganish shu bilan murakkablashadiki, u tarjimonning miyasida sodir bo'ladigan va bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan aqliy operatsiyalar natijasidir. Shuning uchun tadqiqotchi turli bilvosita vositalarga murojaat qilib, tarjimon "oshxonasi"ga kirishiga to'g'ri keladi. Tarjima jarayonida bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket kelishi mumkin bo'lgan bosqichlarni ajratib ko'rsatish imkoniyati yaqqol namoyon bo'ladi. Shubhasiz, tarjimada ikki bosqich mavjud: tushunish bosqichi va asl tarjima bosqichi, ya'ni boshqa tildagi matnni yaratish. Ba'zi mualliflar uchinchi bosqichni - tahrir qilish, tarjimoni yakuniy sayqallash bosqichini ham ajratib ko'rsatishni taklif qiladilar. Matnlarni tushunish va yaratish jarayonlari psixologlar va tilshunoslar tomonidan uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinayotganligi sababli, tarjimashunoslik tarjima jarayonini o'rganishda ushbu fanlarning ma'lumotlaridan foydalanishi mumkin, bu jarayonlarning tarjimonida kechishi boshqa, "normal" odamlardan tubdan farq qilmasligini nazarda tutadi.

Darhaqiqat, ko'plab tarjimashunoslik konsepsiyalari odamlarning matnlarni qanday tushunishi va yaratishi haqidagi bilimlarimizga asoslanadi. Shu bilan birga, tadqiqotlar tarjimonning kommunikativ xulq-atvorining ba'zi xususiyatlarini ham aniqlaydi. Bu qanchalik g'alati tuyulmasin, tarjimon tarjima qilinayotgan matnni asliyat tili ona tili bo'lgan "normal" o'quvchiga qaraganda chuqurroq tushunishga majbur bo'ladi. Bunday qo'shimcha tushunish, birinchidan, matn mazmuni haqida yakuniy xulosalar chiqarish, ikkinchidan, tarjima tili talablarini hisobga olish zarurati bilan bog'liq.

Aytaylik, rus tilidagi matnda kimdir "yorqin nutq" so'zladi, deb xabar berilgan. Bu sifatlashning ma'nosi biz uchun aniq va uni o'ylab o'tirishimizga hojat yo'q. Ingliz tiliga tarjimon esa o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi. U nutqning ishonchliligi, obrazlilik yoki jonlilik nazarda tutilayotganini hal qilishi kerak bo'ladi, chunki uning tarjimasida "brilliant," "impressive" yoki "vivid" sifatini tanlash shunga bog'liq bo'ladi. Yoki ingliz tilidagi asl nusxada "he let things slide" uchun korxona rahbarini ishdan bo'shatish haqida gap ketadi. Ma'nosi tushunarli, lekin rus tiliga tarjimon bu rahbarning aynan nima aybi borligini hal qilishi kerak bo'ladi: "ishlar bilan shug'ullanmadi," "qo'l ostidagilarni tarqatib yubordi" yoki,



ehtimol, shunchaki "yeng uchida ishladi." Tarjimonga tarjimaning grammatik shaklini tanlash uchun ham qo'shimcha ma'lumot kerak bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi "He visited me last month" jumlasida u o'tgan oyda menda bir yoki bir necha marta bo'lganligini aniqlamaslik mumkin.

Tarjima jarayonini o'rganishning eng yaxshi ishlab chiqilgan usuli tarjimaning nazariy modellarini yaratish va turli xil o'zgarishlarni (transformatsiyalarni) tavsiflash bo'lib, ular yordamida asl matn qismidan tarjima matni qismiga o'tish mumkin. Tarjima modeli - bu tilshunoslik yoki psixologiyaning ba'zi umumiy qoidalarini tarjimaga tatbiq etishga urinishga asoslangan tarjima jarayonini amalga oshirish tartibining shartli tasviridir. Model gipotetik xarakterga ega, chunki bizga ma'lumki, tarjimon miyasidagi tarjima jarayonini bevosita kuzatish mumkin emas va tarjimon aynan u yoki bu model bashorat qilganidek harakat qilishiga ishonch yo'q. Biroq bu tarjima modellari sof aqliy tuzilmalar ekanligini anglatmaydi.

Tadqiqotchi kuzatib bo'lmaydigan tizim ("qora quti") bilan ishlaydigan boshqa hollarda bo'lgani kabi, modelning realligi (uning tushuntirish kuchi) tizimning "kirishdagi" va "kirishdagi" holatini taqqoslash orqali tekshiriladi. Tarjima uchun bu asliyat va tarjima matnlarini taqqoslashni anglatadi. Agar tarjima natijasi ushbu modelga muvofiq qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'lsa, demak, model "ishlaydi," garchi bu, albatta, tarjimonning bunday modeldan ongli ravishda foydalanganligini isbotlamasa ham.

Hozirgi vaqtda tarjima nazariyasida shunga o'xshash bir nechta modellar ishlab chiqilgan. Zamonaviy tilshunoslik tamoyillariga asoslangan situativ, transformatsion va semantik modellar keng tarqaldi. Situativ (yoki denotativ) model til va voqelik o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi lingvistik tushunchalarni tarjima jarayoniga tatbiq etadi.

Eslatib o'tamiz, og'zaki belgilar haqiqatan mavjud yoki xayoliy bo'lgan obyektlar sinfini yoki yakka obyektlarni (denotatlar) nomlaydi, nutqiy iboralar va matnlar esa vaziyatlarni - denotatlar to'plamini va ular o'rtasidagi aloqalarni tasvirlash uchun qo'llaniladi. Tarjimaning vaziyatli modeli har qanday vaziyatni prinsip jihatdan har qanday til vositalari bilan tavsiflash mumkin degan qoidadan kelib chiqadi. Hatto tilda voqelikning ba'zi elementlari uchun nomlar bo'lmasa ham, har doim bu tilda yangi birliklarni hosil qilish yoki mavjud birliklarning birikmalari yordamida bu elementlarni tavsiflash imkoniyati mavjud. Ushbu mulohazalar asosida tarjima jarayoni quyidagicha kechadi, deb taxmin qilinadi. Tarjimon asliyat mazmunini tushungach, unda qanday vaziyat tasvirlanganini aniqlaydi, so'ngra bu vaziyatni tarjima tili vositalari bilan tasvirlaydi. Boshqacha aytganda, tarjima jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi: asliyat matnidani voqelikka va voqelikdan tarjima matniga.

Albatta, faqat asl nusxa va tarjimaning sintaktik tuzilmalari o'rtasida moslik o'rnatuvchi transformatsion model ham cheklangan tushuntirish kuchiga ega bo'lib, tarjima jarayonini



har tomonlama tavsiflashga da’vo qilmaydi. Ma’lum darajada uni tarjimaning semantik modeli to’ldiradi, u tarjima jarayonini asl nusxaning tegishli semalarini aniqlash va saqlash sifatida ifodalaydi. Ushbu model asosida tilshunoslikda qo’llaniladigan komponent tahlil protsedurasini tarjimaga tatbiq etishga urinish yotadi, bu esa til birliklarining ma’nolarini kichikroq elementar ma’nolarga - semalarga bo’lish imkonini beradi va bu ma’nolar shunday semalar to’plami sifatida qaraladi. Bunda ma’lum bo’ladiki, agar turli tillardagi semalar (til birliklarining ma’nolari) bog’lamlari, odatda, mos kelmasa, ularni tashkil etuvchi semalar o’rtasida sezilarli umumiylik mavjud.

Tarjima jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkinligi taxmin qilinadi. Birinchi bosqichda tarjimon asliyat bo’lagining semantik tarkibini aniqlaydi va aniqlangan semalardan qaysi biri muloqot uchun ahamiyatli ekanligini va tarjimada yetkazilishi kerakligini hal qiladi. Ikkinchi bosqichda tarjima tilida ma’nolariga iloji boricha ko’proq asliyat semalari, birinchi navbatda, relevant semalar kiradigan birliklar tanlanadi. Tarjimaning asliyatga yaqinlik darajasi umumiy semalar soni bilan belgilanadi. Bunda ba’zi semalar asliyat matnidan topilishi va tarjimada izohlanishi yoki tarjima tili me’yorlari bilan singdirilishi mumkin.

Tarjimashunoslik murakkab jarayon bo’lib, tarjimondan kuchli bilim va katta mahoratni talab qiladi. Bir qarashda mushkul ekanligini anglash qiyin bo’lgan bu jarayonda, tarjimon asl nusxa tilini mukammal darajada bilmog’i va to’g’ri, o’z o’rnida qo’llay olmog’i lozim. Chet tillaridan tarjima qilish qiyin, ammo tillari yaqin bo’lgan qardosh tillardan tarjima qilmoq ham oson ish emas. Negaki, “tarjimashunoslikda tarjimonning soxta do’stlari”, “yolg’onchi so’zlar”, “aldoqchi so’zlar” nomlari bilan yuritiladigan soxta ekvivalent so’zlari mavjud.¹ “Shaklan o’xshagani bilan ma’nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so’zlar soxta ekvivalentlar deb qabul qilingan”.² Bu kabi soxta ekvivalentlar tarjimonni chalg’itadi, asl ma’nodan uzoqlashtiradi. Ammo qardosh tillar bir-biriga yaqin bo’lganligi sababli xuddi asl nusxa kabi ko’chgan tarjimalar ham anchagina. Misol uchun, “Tilak” she’rida:

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,
Ajin tushsin, yuzlariga dog’ tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,

Qo’llariga aso – bir tayoq tushsin.

(Saylanma, 191)

Tarjimada:

Hár kimniń de shashlarına aq tússin
Ájim tússin, júzlerine daq tússin,
Hár kimniń de quwat ketip belinen,
Qollarına hasa – bir tayaq tússin.³

¹ Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. – Toshkent: Cho’lpon, 2016. S.83.

² Salomov G’. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. S.277.

³ Muhammad Yusuf. Biz baxitli bolamiz (Seytayev B. tarjimas). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2004. S.10.



Bu singari aynan ko‘chadigan misralar ham talayg‘ian, hattoki butun boshli she‘rlar ham mavjud. Lekin mutarjimni adashtiradigan jummlar ham bor.

“Xirmondagi bola” she‘rida:

Na Oybek bor edi,

Na G‘afur G‘ulom.

Mirtemir yo‘q edi,

Usmon Nosir ham (Saylanma, 138)

Tarjimada:

Ya Aybek joq edi,

Ya G‘afur G‘ulam.

Mirtemir joq edi,

Usman Nasir hám. (Qo‘lyozma manba, 47-48)

“Otabekning qo‘shig‘i” she‘rida:

Ko‘z uzmasman men Marg‘ilon tomondan,

Senga ket ham, senga qol ham demasman.

(Saylanma, 182)

Kóz úzbeymen men Marg‘ulan tamannanó

Ságan ket yáki qal hám demespen.

(Qo‘lyozma manba, 69)

Yuqoridagi ikkala she‘rda “ham – 2. Ta‘kid, kuchaytirish bildiradigan yuklama” ma‘nosini anglatuvchi so‘z o‘rnida kelgan.⁴ Tarjimada keltirilgan “hám – sóz benen sózdi, gáp penen gıpti baylanıstırıw ushın qollanılatuğın kómekshi sóz”⁵, ya‘ni o‘zbek tilidagi “va” bog‘lovchisi o‘rnida ishlatiladigan so‘z qo‘llanilgan. O‘zbek tilidagi “ham” yuklamasining o‘rniga qoraqalpoq tilida “-da – kúsheytkish janapay mánisin atqaradı”gan yuklamasi ishlatiladi.⁶ Bu orqali tarjimon ikkala o‘rinda ham soxta ekvivalentga aldanib qolgan.

Tarjimon bir necha o‘rinlarda o‘zbek tilidagi so‘zlarning o‘zini faqat fonetik jihatdan qoraqalpoq tiliga moslashtirgan holda, vaholanki bu so‘zlar qoraqalpoq tilida mavjud emas bo‘lsa ham ishlatgan. Quyida bunga dalillar keltirib o‘tamiz.

“Tillaqo‘ng‘iz” she‘ri:

Tong oldi boshlagan ishingdan qolma,

Yalpizning labidan so‘rayver bo‘sa.

(Saylanma, 182)

Azan menen baslağan isiñnen qalma,

Yalpızdıñ lábinen sorıy ber posa.

(Qo‘lyozma manba, 73)

“Bobodehqonim” she‘rida:

⁴ O‘TIL V. – B.496.

⁵ QTTS, VII. – B.382.

⁶ QTTS, III. – B.75.



Obihayot taratguvchi
Buyuk suvchi o'zingsan...
Inson zotin yorug'likka
Yetaklovchi sorbonsan.

(Saylanma, 206)

Ullı suwshı. Abıhayat
Taratıwshı ózińseń...
Durıslıqqa baǵdarlap
Jeteklewshı sarwansań.

(Qo'lyozma manba, 86)

“Daryo” she’rida:
Ajdar bo‘lib suvlar yutdi jismini,
Endi menga o‘g‘il bo‘ling, baliqlar.

(Saylanma, 237)

Aydarha bop suvlar juttı jismini,
Endi meniń ulım bolıń, baliqlar.

(Qo'lyozma manba, 93)

O‘zbek tilidagi “yalpiz”, “obihayot”, “sorbon”, “jism” so‘zlarining tarjimada ishlatilgan “yalpız”, “abıhayat”, “sarwan”, “jism” so‘zlarining qoraqalpoq tilida mavjud emas ekanligini ta’kidlamoq zarur.

Tarjimon Bazarbay Seytayevo‘l qo‘ygan kamchiliklarining asosiy sababi asliyat tilini puxta bilmasligi deyish mumkin. Bunga esa o‘zbekcha-qoraqalpoqcha tarjima lug‘atining yo‘qligi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ammo uning tarjimonlik mahorati ham yuksak ekanligini ta’kidlamoq zarur. Chunki u Muhammad Yusuf hayotlik chog‘idanoq she’rlarini tarjima qilishni boshlagan va ozgina qismini nashr qildirishga ulgurgan, xolos. Soxta ekvivalentlarni ishlatmaslik uchun asliyat tilini mukammal tarzda o‘rganish lozim. Shundagina asliyat kabi ijod namunasi paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966.
2. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. – Toshkent: Cho‘lpon, 2016. S.83.
3. Muhammad Yusuf. Biz baxitli bolamiz (Seytayevo B. tarjiması). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2004. S.10.
4. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi, III, . Nókis: Qaraqalpaqstan, 2023.
5. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi, VII, . Nókis: Qaraqalpaqstan, 2023.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, V, T: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.



IELTS VA TOEFLNI TAHLILIIY TAQQOSLASH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Homidova Shohsanam Ergashali qizi

shohsanamhomidova2@gmail.com

Xolmurodova Maftuna

maftunaxolmurodova999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada IELTS va TOEFL xalqaro ingliz tili imtihonlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilindi. Imtihonlarning formatlari, baholash tizimi, bo'limlari, afzalliklari, kamchiliklari va qo'llanilish sohasi yoritildi. Tahlil natijasida har ikki imtihonning turli ehtiyojlarga mos ravishda foydali ekani ko'rsatildi. Maqola ingliz tilini o'rganuvchilar va imtihonga tayyorlanuvchilar uchun amaliy yo'nalish beradi.

Kalit so'zlar: IELTS, TOEFL, ingliz tili imtihoni, taqqoslash, til kompetensiyasi, akademik ingliz tili, baholash tizimi, Listening, Reading, Speaking, Writing.

Globallashuv jarayonida ingliz tilini bilish xalqaro miqyosda o'qish, ishlash va ko'chib o'tish uchun asosiy talabga aylanib bormoqda. Shu sababli, ingliz tilini bilish darajasini ishonchli mezonlar asosida baholaydigan xalqaro imtihonlarga talab ortib bormoqda. Ularning ichida eng ko'p qo'llaniladigani — IELTS (International English Language Testing System) va TOEFL (Test of English as a Foreign Language). Har ikki test akademik va kundalik kommunikativ kompetensiyalarni tekshiradi, biroq mazmuni, formati, baholash tizimi va topshiriq turlari jihatidan sezilarli farqlarga ega.

IELTS — Britaniya Kengashi, IDP Australia va Cambridge Assessment English tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ikkita modulga ega: Academic va General Training. Imtihon 4 qismdan iborat: Listening, Reading, Writing va Speaking. Speaking imtihoni instruktorga yuzma-yuz o'tkaziladi.

TOEFL — ETS (Educational Testing Service) tomonidan yaratilgan imtihon bo'lib, asosan TOEFL iBT (onlayn versiya) shaklida o'tkaziladi. Test ham Listening, Reading, Writing va Speaking bo'limlaridan iborat, biroq barcha jarayon kompyuter orqali amalga oshiriladi.

IELTS va TOEFLning Asosiy Farqlari1. Format

IELTS: qog'ozda yoki kompyuterda topshiriladi; Speaking — yuzma-yuz suhbat.

TOEFL iBT: faqat kompyuter orqali; Speaking bo'limi mikrofon orqali yozib olinadi.

2. Til Varianti

IELTS: Britaniya inglizchasi unsurlari ko'p.

TOEFL: Amerika inglizchasiga asoslangan.

3. Savollar Tuʼzilishi quyidagicha bo'ladi: IELTS: ko'proq real holatlarga moslashgan; grafik



tahlil, ese, qisqa javoblar, moslashtirish (matching).

TOEFL: akademik matnlar, ko'proq tanlash (multiple-choice) turi ustun.

4. Baholash Sistemi IELTS: 0–9 ballik tizim.

TOEFL iBT: 0–120 ballik tizim.

5. Listening Bo'limi

IELTS: 4 qism, turli inglizcha aksentlar (avstraliya, britan, kanada).

TOEFL: uzun akademik ma'ruzalar va suhbatlar.

6. Speaking Bo'limi

IELTS: 11–14 daqiqalik jonli suhbat.

TOEFL: mikrofon orqali gapirish, javoblar kompyuterda qayd etiladi.

7. Writing Bo'limi

IELTS: 2 ta vazifa — grafik tahlil (Task 1) va insho (Task 2).

TOEFL: integratsiyalashgan yozma (matn + audio) va mustaqil ese.

IELTS Afzalliklari-Real kommunikatsiya holatlariga yaqin. Aksentlarning xilma-xilligi tinglab tushunishni yaxshilaydi. Speaking natural, jonli shaklda.

IELTS Kamchiliklari-Vaqt boshqaruvi qiyinroq. Speaking bo'limida inson bilan suhbat ba'zi abituriyentlarni hayajonga soladi.

TOEFL Afzalliklari-Akademik tilga yo'naltirilgan, ilmiy matnlarga tayyorlaydi. Kompyuterda ishlash qulay bo'lganlar uchun yengilroq. Savollar strukturalangan, aniq.

TOEFL Kamchiliklari - Aksent va matnlar ko'proq Amerika uslubida — Britan inglizchasiga o'rganganlar qiynalishi mumkin. Speaking bo'limi sun'iy tuyulishi mumkin.

IELTS va TOEFLning Qo'llanish Sohalari-IELTS: Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yevropa davlatlari.

TOEFL: AQSh, Kanada va ko'plab xalqaro universitetlar.

Har ikkisi ham butun dunyo bo'ylab 11 000 dan ortiq tashkilot tomonidan tan olinadi.

Xulosasam shuki, IELTS va TOEFL — ingliz tilini bilish darajasini xalqaro miqyosda tasdiqlovchi ikki eng ishonchli testdir. Ularning har biri o'ziga xos format, baholash tizimi, afzalliklar va qiyinchiliklarga ega. IELTS ko'proq real kommunikatsiya, turli aksentlar va jonli suhbatga asoslangan bo'lsa, TOEFL akademik muhitda o'qish yoki ishlashni maqsad qilganlar uchun mos variantdir. Abituriyentning maqsadi, qulayligi va tilga bo'lgan yondashuviga qarab mos test tanlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. British Council. IELTS Information for Candidates.
2. ETS. TOEFL iBT Test Guidelines and Preparation Materials.
3. Cambridge Assessment English. Understanding IELTS.
4. Educational Testing Service. TOEFL iBT Test Overview.

**IELTS va TOEFLNI TAQQOSLASH**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy tillar ingliz tili fakulteti, filalogiya
yònalishining 3-bosqich talabalari

Xolmurotova Zilola

Mamayusupova Marjona

Xudoyqulova Farangiz

zilolaxolmurotova77@gmail.com

marjonamamayusupova2005@gmail.com

Xudoyqulovafarangiz40@gmail.com

Annatsiya: Biz eng keng miqyosda tan olinadigan ikkita ingliz tilini bilish darajasini aniqlash testi – TOEFL va IELTS imtihonlaridan birini tanlashdan oldin e’tiborga olish kerak bo’lgan muhim jihatlar ro’yxatini tuzib chiqdik. Ushbu maqola quyidagi mezonlardan foydalangan holda bu ikki imtihondan qaysi biri sizning ehtiyojlaringizga eng mos kelishini uzil-kesil hal qilishga yordam beradi: Maslahatlar va boshqa topshiruvchilarning tajribasi. Xalqaro ingliz tilini bilish darajasini aniqlash imtihonini topshirish haqida o’ylayotganingizda qaysi biri yaxshiroq, degan savol xayolingizga birinchi bo’lib kelishi mumkin. Va to’qson foiz holatda bu – bevosita TOEFL va IELTS o’rtasidagi tanlovdir. Asosli qaror qabul qilish uchun, avvalo, har bir imtihon qanday ishlashini yaxshi tushunish muhimdir, shunda yakuniy tanlovingiz shaxsiy maqsadlaringizga mos keladi.

Kirish so’zlar:

Xalqaro miqyosda tan olinishi nuqtayi nazaridan, bu ikki imtihon bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Ikkalasi ham aksariyat ta’lim va biznes muassasalari tomonidan ma’qullanadi. Biroq shuni yodda tutish kerakki, IELTS xorijda eng keng foydalaniladigan xalqaro ingliz tili imtihoni bo’lib, 140 davlatdagi 11,500 tashkilot tomonidan tan olingan. Demak, agar maqsadlaringizdan biri dunyo bo’ylab sayohat qilish orqali turli xil madaniyatlar tajribasini boshdan kechirish bo’lsa, avtomatik tarzda IELTS siz uchun maqbul tanlov bo’ladi. Agar TOEFL va IELTS imtihonidan birini tanlashdan oldin dunyoning qaysi qismiga borishni hal qilgan, muayyan bir qit’a va mamlakatni tanlagan bo’lsangiz, bu sizga chindan yordam beradi. TOEFL bo’ladimi yoki IELTS, universitet va kompaniyalar odatda sizdan qanday turdagi imtihon talab qilinishi haqida batafsil ma’lumot beradi. Ayrımlari istalgan birini topshirishga ruxsat berishi mumkin. Agar shunday bo’lsa, odatda siz tanlagan muassasadan qaysi turdagi imtihonni topshirish va har biri uchun talab etiladigan minimal ballar haqidagi ma’lumotni topishingiz mumkin. IELTS – Kembrij universiteti tarkibidagi Cambridge English tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, Birlashgan Qirollik va Yevropaning aksariyat davlatlarida eng mashhur ingliz tili imtihoni hisoblanadi. U, shuningdek, TOEFL imtihonini



boshqaruvchi tashkilot – Ta’lim testlari xizmati (ETS) joylashgan mamlakat – AQSHdagi aksariyat ta’lim muassasalarida ham qabul qilinadi. Bu esa IELTS sizga o‘zingiz xohlagan har qanday yerga borish imkonini berishini anglatadi. Bundan tashqari, qanday sababga ko‘ra (akademik, biznes yoki shaxsiy sabablar yuzasidan) chet elga chiqmoqchi ekaningizni ham hisobga oling. Quyida bu ikki imtihon orasidagi eng muhim farqlar keltirilgan. To‘g‘ri tanlov qilish uchun barcha mezonlarni navbati bilan ko‘rib chiqishingiz, afzalliklar va kamchiliklarni taroziga solishingiz kerak. Shu sababli, nima bo‘lganda ham, shoshilmang! Qiyinlik darajasi: Ingliz tili bo‘yicha qaysi imtihonni topshirish haqida o‘ylayotganda, har birining qiyinchilik darajasini bilishni xohlashingiz tabiiydir, chunki bu ular orasidan eng osonini tanlash imkonini beradi. Shunday qilib, javobi murakkab bo‘lgan savol – bu: qaysi biri qiyinroq, TOEFL yoki IELTS? Ochiq aytadigan bo‘lsak, bu to‘laligicha sizning til malakangiz va bundan avval o‘zlashtirgan bilimlaringizga bog‘liq, shu sababli, bu savolning aniq javobi yo‘q. Afsuski, qaysi imtihon osonroq ekani haqidagi yagona to‘xtam hali mavjud emas. TOEFL Shimoliy Amerikadagi organga, IELTS esa Birlashgan Qirollik va Avstraliyadagi tashkilotlarga qarashli bo‘lsa-da, IELTS imtihonidagi muvaffaqiyatingiz britan talaffuzi, lug‘ati yoki konteksti bilan tanish ekaningizga bog‘liq emas. Aslida esa, IELTS imtihonini chinakam xalqaro imtihon qiluvchi omillardan biri – bu unda faqat britaniya talaffuzidan emas, boshqa bir qator talaffuzlardan ham foydalanilishidir. Agar qiziqayotgan bo‘lsangiz, IELTS imtihonining Speaking section da yaxshi ball olishingiz uchun sizdan Britaniya yoki boshqa bir mamlakatning mahalliy aholisi kabi talaffuz qilish kutilmaydi. Imtihon formati va savol turlari bilan chin ma’noda tanishish uchun IELTS hamkorlari tomonidan potensial imtihon topshiruvchilarga bir qator resurslar, jumladan, kurslar, vebinarlar, murabbiylik ilovalari va amaliy testlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. IELTS’ga Britaniya Kengashi bilan tayyorlanishda sizga berilishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi maslahatlardan biri budir: ingliz tili bilan mumkin bo‘lgan har qanday usulda shug‘ullaning. Ingliz tilida o‘qing, ingliz tilida musiqa tinglang, ingliz tilida film va seriallar tomosha qiling hamda imkoni bo‘lsa, ingliz tilida muntazam ravishda suhbatlashing. Har bir ingliz tilida so‘zlashuvchi mintaqa o‘ziga xos talaffuz shakllariga ega bo‘lsa-da, ona tili ingliz tili bo‘lganlar odatda bir-birini tushunadi. Imtihon topshiruvchi sifatida siz uchun eng muhim jihat – bu boshqalarga tushunarli talaffuz qilishingiz va boshqalarni tushuna olishingizdir. Maqsadlar TOEFL va IELTS orasida tanlov qilishdagi yana bir muhim jihat – bu aniq maqsadingizni hisobga olishdir. Masalan, imtihonni talaba sifatida sayohat qilish uchun topshirishingiz kerakmi, bu tilni bilish darajangizni baholash uchunmi yoki ishlash maqsadida xorijga chiqish uchunmi? IELTS imtihonini topshirishning o‘ziga xos ustunligi shundaki, siz ikki turdagi imtihondan birini tanlashingiz mumkin: IELTS Academic va IELTS General Training. Agar ingliz tilli tashkilotda ishlash yoki bakalavriat yoxud aspirantura bosqichida tahsil olish uchun xorijga ketmoqchi bo‘lsangiz, siz uchun eng mosi IELTS Academic imtihonidir. IELTS General Training imtihoni esa kundalik vaziyatlardan



chiqish va kundalik hayot masalalarini qanchalik hal qila olishingizni baholaydi, shu sababli, bu imtihon ingliz tilida so‘zlashiladigan mamlakatga ko‘chib o‘tmoqchi bo‘lgan kishilar tomonidan topshiriladi Biroq, ayrim hollarda, sizdan IELTS UKVI imtihonini topshirish maxsus tarzda so‘ralishi mumkin. Bu Birlashgan Qirollikka vizangizni dastaklash uchun mos imtihondir va u kontent, imtihon formati va baholash mezonlari jihatidan IELTS bilan bir xil. Aslida, ular orasidagi yagona farq – natijalarning qay tarzda xabar qilinishidir. IELTS UKVI imtihonning Birlashgan Qirollik Ichki ishlar vazirligi tomonidan ma’qullangan rasmiy joyda o‘tkazilganini tasdiqlaydi. Siz uchun kerakli IELTS imtihonini tanlashda o‘zingiz ariza topshirmoqchi bo‘lgan muassasa bilan oldindan maslahatlashish qattiq tavsiya qilinadi O‘tkazilish usuli TOEFL va IELTS imtihonlari qanday o‘tkazilishini taqqoslasangiz, ular orasida sezilarli farq topmaysiz. Xuddi IELTS kabi, TOEFL ham ikki xil versiyani taklif qiladi. Ikkala imtihonda ham onlayn versiya taklif etiladi – ularni o‘zingiz uchun qulay yerdan turib topshirishingiz mumkin. TOEFL Home Edition imtihoniga ega, IELTS esa yaqinda ayrim manzillarda IELTS Online imtihonini ishga tushirdi, kelgusi oylarda bu manzillar soni yanada kengayadi. Ingliz tilini bilish darajasi TOEFL va IELTS ballarini aniq solishtirish biroz murakkab bo‘lsa-da, odatda akademik va biznes muassasalari tomonidan talab etiladigan darajalar orqali taxminiy taqqoslash darajasini aniqlash mumkin. Shuningdek, bu darajalarni Umumiy Yevropa ingliz tilini bilish malakasi (Common European Framework of Reference (CEFR)) standartlari yordamida taqqoslash mumkin. Bu xalqaro standart bo‘lib, tilni bilish malakasini belgilaydi va butun dunyoda ishlatiladi. Umuman olganda, IELTS natijalari 1 (eng past) dan 9 (eng yuqori) gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha umumiy o‘rtacha ball sifatida aks ettiriladi, TOEFL natijalari esa 0 dan 120 (eng yuqori) gacha bo‘lgan shkalada baholanadi. Quyidagi jadvalda ularning muvofiqlik oraliqlari ko‘rsatilgan: As the table clearly indicates, IELTS scores go right up to the C2 level (essentially native English speaker level) of CEFR, while TOEFL can only provide up to C1-level validation. Jadvalga aniq tasvirlanganidek, IELTS ballari to‘g‘ri CEFR C2 darajagacha (asosan ota tili ingliz tili bo‘lgan shaxs darajasi) boradi, TOEFL esa faqat C1 darajagacha ballarni taqdim etadi. Boshqacha qilib aytganda, agar ingliz tilini bilish darajangiz ona tili ingliz tili bo‘lgan kishi darajasi bilan teng bo‘lsa, buni isbotlash uchun TOEFL yetarli bo‘lmaydi. Bu holatda, IELTS – ochiq-oydin to‘g‘ri tanlovdir. TOEFL natijalari ham, IELTS natijalari ham ikki yil davomida amal qiladi Bu muddat o‘tganidan keyin har ikkala imtihonni ham qaytadan topshirishingiz kerak bo‘ladi.. Imtihon bo‘limlari Umuman olganda, TOEFL va IELTS bir xil ko‘nikmalarni, ya’ni tinglash, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini baholaydi. Biroq, har bir imtihondagi bu bo‘lim yoki qismlar ishlatiladigan vazifa turlaridagi tafovutlar sababli bir-birdan farq qilishi mumkin.

Masalan, TOEFL imtihonining “Listening” (Tinglash) moduli bir nechta variantli savollar bilan cheklangan. IELTS imtihonida esa, quyidagi turfa savol turlari ishlatilishi sababli, bu bo‘lim ancha xilma-xildir: bir nechta variantli, taqqoslash, rejalash/xarita/diagrammani



belgilash, shakl/qayd/jadval/oqim sxemasi/xulosani to'ldirish, gapni to'ldirish. “Reading” (O'qish) bo'limiga kelsak, TOEFL imtihonida bu bo'limga 60 daqiqa ajratilgan bo'lib, u matndan ko'chirmalarga (uch-beshta) bo'linadi va bir nechta variantli savollar yordamida baholanadi. Taqqoslaydigan bo'lsak, IELTS imtihonining O'qish bo'limi ham 60 daqiqa davom etadi hamda ancha keng qamrovli tarzda baholanadigan matnlar to'plamini o'z ichiga oladi. Masalan, sizdan sarlavhalarni taxmin qilish, gaplarni to'ldirish, xulosani yakunlash, jadvallarni to'ldirish, diagrammalarni to'ldirish va boshqalar so'ralishi mumkin. Gapirish (Nutq) mahorati “Speaking” (Gapirish) bo'limidagi eng ravshan farq shuki, TOEFL imtihonini topshiruvchilar savollarga javob berishda mikrofonga gapirishi lozim. IELTS imtihonida esa imtihon topshiruvchi malakali IELTS mutaxassisi bilan yakkama-yakka, og'zaki suhbat qiladi. Ular imtihonning bu qismini yozma test o'tkaziladigan kunning o'zida yoki undan oldingi/keyingi kunlarda topshirishi mumkin. IELTS Speaking bo'limini video chaqiruv orqali yoki yuzma-yuz bajarish mumkin. Real vaqt rejimida boshqa bir shaxs bilan yuzma-yuz suhbat qilish, shubhasiz, hayotiy jarayon bo'lib, IELTS Speaking bo'limini interfaol qiladi va imtihon sifatida haqiqiy hayotga imkon qadar yaqinlashtiradi. Davomiyligi: TOEFL va IELTS davomiyligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bu qaysi imtihonni topshirish haqida qaror chiqarish vaqtida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan eng jiddiy jihat bo'lmasa-da, qancha vaqt sarflanishini hisobga olish muhimdir. Vaqtni oldindan aniq bilganingiz yaxshi, shunda siz imtihon markaziga kelish va ketishni aniqroq rejalashtirishingiz mumkin. Eng muhimi, shuni unutmaslik kerakki, imtihon qancha uzoq davom etsa, siz shunchalik toliqasiz, bu esa diqqatni jamlash qobiliyatingizga ta'sir qiladi. Yodda tuting, imtihon sharoitlari odatda butun vaqt davomida diqqatingizni jamlagan holda bir joyda o'tirish va qiyin savollarga javob berish qobiliyatingizni sinaydi. Bu ikki imtihon orasida TOEFL uzoqroq – o'rtacha uch soat-u 30 daqiqa davom etadi. IELTS esa, qaysi turdagi imtihonni tanlashingizdan qat'i nazar, taxminan ikki soat-u 45 daqiqa davom etadi. Maslahatlar va boshqa topshiruvchilarning tajribasi IELTS dunyodagi eng ommabop ingliz tilini bilish darajasini aniqlash imtihoni ekanligi sizning foydangizga ishlashi mumkin. Ya'ni bu, boshqa jihatlar bilan birgalikda, imtihon jarayoni haqida maslahatlar va boshqa topshiruvchilarning tajribasi haqidagi ma'lumotlarni osonroq topishingizni ta'minlaydi.

Xulosa: IELTS topshiruvchilarning aksariyati, agar hammasi bo'lmasa, imtihon kuni qanday o'tishi haqida o'ylab asabiylashadi. Boshqa odamlarning tajribasini o'qish orqali imtihon kunida nimalarni kutish mumkinligini bilish olish har qanday stressni kamaytirish uchun qo'l kelishi mumkin. Bu o'zingizni ishonchingizni oshiradi va imtihon haqidagi muhim ma'lumotlarni kelajak uchun saqlashga yordam beradi. IELTS imtihonining dunyo miqyosidagi obro'si karyera dunyosidagi martaba ko'tarilishi borasida uning shubhasiz munosib tanlov ekanini anglatadi. IELTS imtihonidan yaxshi ball olsangiz, martaba zinapoyasida yuqoriga ko'tarilishingiz ancha oson bo'ladi. Bundan tashqari, agar siz magistratura yoki PhD darajasi uchun ariza topshirishga qaror qilsangiz, bu siz uchun



asqatishi mumkin. Bu taqqoslash qo‘llanmasi bilan tanishib chiqqach, bu ikki imtihonning qaysi biri kelajakdagi rejalaringizga eng mos ekani haqida qaror qabul qilishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. British Council – IELTS bo‘yicha tavsiyalar, onlayn resurslar, narx, ro‘yxatdan o‘tish.
2. ETS (Educational Testing Service) – TOEFL rasmiy ma’lumotlari, natija va davomiylik.
3. Cambridge English / IELTS Academic – imtihon turlari, ballar va CEFR.
4. CEFR – til malakasi standartlari.
5. Tajriba va tavsiyalar – boshqa topshiruvchilarning feedback va rasmiy maslahatlar.



CEFR TIZIMIGA KIRISH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy tillar ingliz tili fakulteti, filalogiya
yònalishining 3-bosqich talabalari

Xolmurotova Zilola

Mamayusupova Marjona

Xudoyqulova Farangiz

zilolaxolmurotova77@gmail.com

marjonamamayusupova2005@gmail.com

Xudoyqulovafarangiz40@gmail.com

ANNOTATSIYA : Ushbu maqola CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimi haqida hamda ushbu tizimdagi A1 dan C2 gacha bo'lgan til darajalarining mazmuni, o'quvchi nima qila olishi, kommunikativ kompetensiya talablari va baholash mezonlarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada har bir bosqichning lingvistik, pragmatik, sotsiolingvistik ko'nikmalari mayda- mayda qismlarga ajratilgan holda yoritilgan. CEFR tizimining ahamiyati, til o'rganish jarayonidagi roli, til o'rganuvchilar uchun qo'llanilishi hamda real hayotdagi kompetensiyalar bilan bog'lanishi keng muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada muallifning CEFR bo'yicha shaxsiy fikrlari ham berilgan.

Kalit so'zlar: CEFR, til darajalari, A1, A2, B1, B2, C1, C2, til kompetensiyasi, baholash, kommunikativ ko'nikmalar.

ANNOTATION: This article provides an in-depth introduction to the CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) system and examines all proficiency levels from A1 to C2. Each level is analyzed in detail in terms of linguistic, communicative, pragmatic, and sociolinguistic competences. The article explains what learners are able to accomplish at each stage, the vocabulary and grammar expectations, as well as the practical communication skills associated with real-life situations. The significance of CEFR in modern language teaching, assessment standards, curriculum development, and learner progression is thoroughly discussed. The author also presents personal reflections on the role of CEFR as a guiding framework in language education.

Keywords: CEFR, language proficiency levels, A1–C2, communicative competence, language assessment, curriculum standards, linguistic development.

INTRODUCTION

CEFR — bu Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan hamda butun dunyo bo'ylab til o'rgatish, ta'lim dasturlari va baholash tizimlarini standartlashtiruvchi xalqaro mezonlar



majmuasidir. CEFR tilni faqat grammatik bilim sifatida emas, balki haqiqiy hayotda qo'llash mumkin bo'lgan kommunikativ kompetensiya sifatida baholaydi. Ushbu maqolada CEFR tizimining darajalari A1–C2 oraliqda ilmiy yondashuv asosida bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

A1 – Beginner (Boshlang'ich daraja) Umumiy tavsif: A1 eng past daraja bo'lib, o'rganuvchi til bilan yangi tanishadi. Bu bosqichda til minimal darajada aloqa vositasi sifatida qo'llanadi. O'quvchi nimalarni qila oladi?

Kundalik eng oddiy iboralarni tushunadi (Hello, How are you? My name is ...) O'zini tanishtira oladi. Shaxsiy ma'lumotlar haqida savollarga javob bera oladi (yoshi, yashash joyi, familiya) Juda sodda gaplarni tuza oladi Lingvistik kompetensiya: Lug'at: 300–500 so'z Grammatik: Present Simple, a/an, plural nouns, basic adjectives. Tovush tizimi: eng asosiy talaffuz A1 bosqichi tilga kirish eshigidir. O'quvchida motivatsiya juda muhim, chunki tilni o'rganish quvonchli bo'lishi kerak.

. A2 – Elementary (Boshlang'ichdan yuqori) Umumiy tavsif: O'rganuvchi sodda kundalik vaziyatlarda mustaqil fikr bildirishi mumkin. O'quvchi nimalarni qila oladi? Do'konda, transportda, kafeda sodda muloqot Oddiy ishlar haqida gapira oladi (kun tartibi, ish rejasi) O'tmish va kelajak haqida sodda gaplar tuza oladi Lingvistik kompetensiya: Lug'at: 800–1200 so'z. Grammatik: Past Simple, Future Simple, countable/uncountable nouns. A2– bu “sur'at paydo bo'ladigan” bosqich. O'quvchi o'ziga ishonch hosil qila boshlaydi.

B1 – Intermediate (O'rta bosqich) Umumiy tavsif: Tilni kundalik hayotning turli sohalarida erkin qo'llash imkonini beruvchi daraja. O'quvchi nimalarni qila oladi? Ish joyida sodda tushuntirishlar bera oladi Safar, savdo, xizmat ko'rsatish jarayonlarida bemaolol gaplasha oladi Oddiy muammolarni hal eta oladi. His-tuyg'ularini ifodalay oladi Lingvistik kompetensiya: Lug'at: 1500–2500 so'z. Grammatik: Present Perfect, modal fe'llar, comparative–superlative B1 – real o'zgarish bosqichi. O'quvchi til bilan ishlashni yoqtira boshlaydi va mustaqillashadi.

B2 – Upper-Intermediate (O'rtadan yuqori) Umumiy tavsif: Tilni murakkab mavzularda ancha ravon va izchil qo'llash darajasi. O'quvchi nimalarni qila oladi? Noloyiq vaziyatlarda o'z fikrini himoya qila oladi Akademik va professional mavzularda gaplasha oladi. Ingliz tilida berilgan filmlar, maqolalarni 60–75% tushuna oladi. Lingvistik kompetensiya: Lug'at: 3000–4000 so'z Grammatik: Complex sentences, passive voice, conditional sentences type 1–3. B2 — tilni haqiqiy hayotda ishlatish bosqichi. Bu daraja ko'plab ish va o'qish talablari uchun yetarli.

C1 – Advanced (Yuqori daraja) Umumiy tavsif: Murakkab matnlar, akademik til, professional muloqotni to'liq o'zlashtirish bosqichi. O'quvchi nimalarni qila oladi? Rasmiy chiqishlar va taqdimotlar qila oladi. Uzoq, murakkab mavzuda bahslashish Akademik



maqolalarni tahlil qila oladi Tilning nozik ma'nolarini tushuna oladi. Lingvistik kompetensiya: Lugʻat: 5000–7000 soʻz Grammatik: Advanced complex structures, inversion, mixed conditionals. C1 – bu oʻrganuvchining tilga egalik darajasi. Til – vosita emas, balki fikrlash muhiti boʻlib qoladi.

C2 – Proficient (Mukammal daraja) Umumiy tavsif: Tilni ona tilidek erkin qoʻllash bosqichi. Oʻquvchi nimalarni qila oladi? Har qanday ilmiy, professional yoki sanʼatga oid mavzuda erkin fikr bildiradi. Matnlarni chuqur tahlil qiladi. Tilning barcha nozik semantik qatlamlarini tushunadi. Toʻliq ravonlik, aniqlik va moslashuvchanlik bilan soʻzlay oladi. Lingvistik kompetensiya: Lugʻat: 8000+ soʻz. Grammatik: Tilning barcha murakkab strukturasi. C2 — tilni egallashning choʻqqisi. Oʻrganuvchi tilni shunchaki bilmaydi, balki til orqali fikrlaydi, yaratuvchan boʻladi.

XULOSA: CEFR tizimi til oʻrganuvchilar uchun aniq va bosqichma-bosqich oʻsish yoʻl xaritasini taqdim etadi. Har bir daraja insonning lingvistik, kommunikativ va kognitiv rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. CEFR tizimi oʻquv dasturlari uchun ham, testlar uchun ham, oʻrganuvchilar uchun ham eng ishonchli xalqaro mezonlardan biridir. Muallif sifatida shuni taʼkidlayman: CEFR faqat baholash tizimi emas — u tilni oʻrganish jarayonini toʻgʻri tashkil qilishga yordam beruvchi metodologik yoʻl koʻrsatkichdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). Cambridge University Press.
2. Little, D., & Perclová, R. (2001). The CEFR: History, Purpose, and Use. Strasbourg: Council of Europe.
3. North, B. (2000). The Development of a Common Framework Scale of Language Proficiency. Strasbourg: Council of Europe.
4. Byram, M., Gribkova, B., & Starkey, H. (2002). Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching. Strasbourg: Council of Europe.
5. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge University Press.
6. Kunnan, T. (2010). Language Assessment in the CEFR Context. Journal of Language Teaching, 44(2), 15–27.

**YER OSTIDAN OLINADIGAN ICHIMLIK SUVLARI HAQIDA.****Ilmiy rahbar: Tuychiyeva Ixtibar Abdurasulovna****Oripova Odina Saidbori qizi****Xudayberdiyeva Ruxshona Dilshod qizi****Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, 1-kurs magistrantlari**

Annotatsiya. Mazkur maqolada yer ostidan olinadigan ichimlik suvlarining sifatini baholash, ularni monitoring qilish va boshqarish masalalari o'rganilgan. Yer osti suvlarining miqdor va sifat ko'rsatkichlari, ularning hududiy taqsimoti, shuningdek zamonaviy texnologiyalar va GIS tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yer osti suvlari, ichimlik suvi, sifat nazorati, GIS, monitoring, boshqaruv.

This article investigates the quality assessment, monitoring, and management of groundwater used for drinking purposes. The study analyzes the quantity and quality parameters of groundwater, its spatial distribution, and the possibilities of applying modern technologies and GIS systems..

Keywords: groundwater, drinking water, quality control, GIS, monitoring, management.

Аннотация. В данной статье рассматриваются оценка качества, мониторинг и управление подземными водами, используемыми для питьевых целей. Анализируются количественные и качественные показатели подземных вод, их пространственное распределение, а также возможности применения современных технологий и ГИС.

Ключевые слова: подземные воды, питьевая вода, контроль качества, ГИС, мониторинг, управление.

Yer osti suvlarining ichimlik suvi sifatida foydalanilishi aholi salomatligini ta'minlash va suv resurslarini barqaror boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Global aholi sonining oshishi, sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyatining rivojlanishi yer osti suvlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu sababli yer osti suvlarining sifatini monitoring qilish, ularni ifloslanishdan himoya qilish va samarali boshqarish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

So'nggi yillarda geografik axborot tizimlari (GIS), raqamli ma'lumotlar bazalari va masofadan zondlash texnologiyalari yer osti suvlarini boshqarishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar suv resurslarining hududiy taqsimotini, sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ekologik xavf omillarini baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot yer osti suvlarining sifatini baholash va boshqarish tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, nazariy va amaliy usullarni o'z ichiga oladi:

Tadqiqot usullari Mazkur tadqiqot yer osti suvlarining sifatini baholash va boshqarish tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga



oladi, nazariy tahlil bosqichida mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ hujjatlar va xalqaro standartlar o'rganilib, asosiy muammolar aniqlandi va tadqiqot yo'nalishi belgilandi. Laboratoriya tahlillari bosqichida ichimlik suvining fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlari tahlil qilindi, suv namunalarining sifati va ifloslanish darajasi baholandi. GIS va hududiy tahlil bosqichida suv resurslarining hududiy taqsimoti, quduqlar joylashuvi va antropogen ta'sir GIS va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida o'rganildi.

1-jadval**Yer osti suvlarini tadqiqot dasturi**

№	Tadqiqot bosqichi	Amalga oshiriladigan ishlar	Qo'llaniladigan usullar va vositalar	Kutilayotgan natija
1	Nazariy tahlil	Yer osti suvlarining sifati va miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha adabiyotlar va normativlarni o'rganish; muammolarni aniqlash	Ilmiy adabiyotlar, normativ hujjatlar, umumlashtirish va tahlil usullari	Tadqiqot yo'nalishi va asosiy muammolar aniqlanadi
2	Laboratoriya tahlillari	Ichimlik suvining fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlarini o'rganish	pH, mineralizatsiya, rang, hid, mikrobiologik analiz	Ichimlik suvining sifati baholanadi; suvning ifloslanish darajasi aniqlanadi
3	GIS va hududiy tahlil	Yer osti suvlarining hududiy taqsimoti, quduqlar joylashuvi va antropogen ta'sirni tahlil qilish	GIS dasturlari (ArcGIS, QGIS), masofadan zondlash texnologiyalari	Suv resurslarining hududiy taqsimoti va ekologik xavf omillari aniqlanadi
4	Ma'lumotlar bazasi yaratish va statistik tahlil	Laboratoriya va GIS natijalarini yagona tizimga jamlash; sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tahlil qilish	SQL/PostgreSQL, statistik tahlil, grafik modellashtirish	Raqamli ma'lumotlar bazasi yaratiladi; natijalar prognoz qilinadi



5	Natijalarni umumlashtirish	Tadqiqot natijalarini tahlil qilish, xulosa chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqish	Umumlashtirish, taqqoslash, ilmiy xulosa	Ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi
---	----------------------------	--	--	--

Mazkur jadval tadqiqot jarayonining asosiy bosqichlarini tizimli ravishda ko'rsatadi. Har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlar, qo'llaniladigan usullar va kutilayotgan natijalar aniq belgilangan. Jadvalning birinchi ustunida tadqiqot bosqichlari ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi ustunda har bir bosqichda bajariladigan asosiy ishlar ta'riflangan. Uchinchi ustunda tadqiqotda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar (laboratoriya tahlillari, GIS, masofadan zondlash, statistik tahlil) ko'rsatilgan. To'rtinchi ustunda esa har bir bosqichning kutilayotgan natijasi, ya'ni ilmiy va amaliy foydasi ta'kidlangan. Shu tarzda jadval tadqiqotning nazariy va amaliy yo'nalishlarini birlashtirib, tadqiqot natijalarini tizimli baholash va xulosa chiqarishga imkon beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot yer ostidan olinadigan ichimlik suvlarining sifatini baholash, ularni monitoring qilish va boshqarish tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan. Laboratoriya tahlillari va GIS hududiy tahlillari natijalari ichimlik suvining sifati va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash, shuningdek, oqilona boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asos yaratdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar va raqamli ma'lumotlar bazasidan foydalanish yer osti suvlarini monitoring qilish va boshqarishda samarali vosita hisoblanadi. Statistik tahlillar orqali sifat va miqdor ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, natijalar prognoz qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Suv kodeksi. – Toshkent, 2020.
Manba: <https://lex.uz/docs/93202>
2. Tuychiyeva I. A. Suv resurslarini boshqarish asoslari. – Toshkent: ToshDTU, 2019. <https://library.tdtu.uz>
3. Rouse, J., Haas, R., Schell, J., & Deering, D. Monitoring vegetation systems in the Great Plains with ERTS. – NASA, 1974.
<https://ntrs.nasa.gov/citations/19740022626>
4. ESRI. GIS for Water Resources. – Redlands, USA, 2018.
<https://www.esri.com/en-us/industries/water/overview>
5. Jensen, J. R. Introductory Digital Image Processing: A Remote Sensing Perspective. – Pearson Education, 2017. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/introductory-digital-image-processing/P200000003295>
6. FAO. Groundwater Management and Governance. – Rome, 2019.
Manba: <https://www.fao.org/groundwater/en/>
7. World Health Organization (WHO). Guidelines for Drinking-water Quality, 4th edition. – Geneva, 2017. <https://www.who.int/publications/i/item/9789241549950>

**TARBIYANING UMUMIY METODLARI**

**Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi**

Oltiboyeva Muyassar Nurali qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaning umumiy metodlari, ularning mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida qo'llash xususiyatlari va samaradorlik omillari yoritilgan. Metodlarni tanlashda bolaning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi hamda pedagogik muhitning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, metod, ishontirish, faoliyatni tashkil qilish, rag'batlantirish, jazo, o'z-o'zini tarbiyalash, maktabgacha ta'lim.

Annotation : This article discusses the general methods of upbringing, their content, and the features of their application in the education of preschool children. The analysis also covers the factors affecting the effectiveness of these methods and the pedagogical aspects to consider when selecting them.

Keywords : education, method, persuasion, encouragement, activity organization, discipline, self-education, preschool education.

Аннотация : В данной статье рассматриваются общие методы воспитания, их сущность и особенности применения в воспитании детей дошкольного возраста. Также проанализированы факторы эффективности методов и педагогические аспекты, на которые необходимо обращать внимание при их выборе.

Ключевые слова : воспитание, метод, убеждение, поощрение, организация деятельности, дисциплина, самовоспитание, дошкольное образование.

Tarbiya — bu shaxsning ma'naviy, axloqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga maqsadli ta'sir ko'rsatish jarayoni bo'lib, bolada ijobiy fazilatlar, xulq-atvor me'yorlari, odatlar va hayotiy qadriyatlarni shakllantirishdir.

Maktabgacha yoshda tarbiya asosan o'yinga, faoliyatga, suhbatga va namuna ko'rsatishga tayanadi.

A. Avloniy tarbiyaga shunday ta'rif bergan:

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi tomonidan tanlangan metodlarga bog'liq. Tarbiya metodlari — bu tarbiyachi bolaga ma'lum maqsad asosida ta'sir ko'rsatadigan usullar majmuidir. Maktabgacha ta'lim jarayonida metodlarning to'g'ri tanlanishi bolalarda axloqiy, ijtimoiy, jismoniy va ruhiy sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.



1. Ishontirish metodlari

Ishontirish — bolaning ongiga bevosita ta'sir qilish orqali unda to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantiruvchi metoddir. Ushbu metod o'z ichiga suhbat, hikoya qilish, tushuntirish, nasihat berish, ijobiy misollar keltirish kabi shakllarni oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertak, hikoya, suratlar, hayotiy vaziyatlar orqali sodda va tushunarli misollar berish eng samarali hisoblanadi.

2. Faoliyatni tashkil etish va axloqiy tajriba hosil qilish metodlari

Bola tarbiyaning katta qismini amaliy faoliyat davomida o'zlashtiradi. Shuning uchun faoliyatni to'g'ri tashkil qilish tarbiyaning asosiy metodlaridan biridir. Bu metodlar mashq, topshiriq, jamoaviy faoliyat, navbatchilik, o'yin jarayonini tashkil qilish, mehnat faoliyatlaridan iborat.

Bola o'zi bajargan harakat orqali mas'uliyat, tartib, hamkorlik kabi sifatlarni shakllantiradi.

3. Rag'batlantirish metodlari

Rag'batlantirish — bolaning yaxshi xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, unda ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqtash, mehribon baho berish, kichik sovg'a yoki belgilar, og'zaki qo'llab-quvvatlash kabi shakllar eng ko'p qo'llaniladi. Rag'bat bolaning o'ziga ishonchini oshiradi, yaxshi xulqni takrorlashga turtki beradi.

4. Jazo metodlari

Jazo metodlari nojo'ya xulq-atvorni kamaytirish yoki bartaraf etish uchun qo'llanadi. Maktabgacha ta'limda jazo yumshoq shakllarda bo'lishi lozim: ogohlantirish, vaziyatni tahlil qilish, qoidalarga rioya qilishni eslatish.

Jismoniy jazo, qo'pollik, kamsitish pedagogik tamoyillarga butunlay zid hisoblanadi.

5. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari

Bu metodlar katta maktabgacha yoshda qo'llanadi. Bola o'z xatti-harakatiga baho berish, o'z maqsadini belgilash, shaxsiy tartibni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni egallaydi. O'z-o'zini tarbiyalash bolada mas'uliyat, mustaqillik, o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan masadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muasssalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari belgilanadi.

Tarbiya metodlaridan ko'zlangan maqsad — tarbiyalanuvchilarda (o'quvchi, yoshlar, shaxs) ma'lum ijobiy fazilatlarni shakllantirish, ongini rivojlantirish, xulq-atvorini to'g'ri yo'naltirish va mustahkamlashdan iborat. Quyidagilar tarbiya metodlarining asosiy maqsadlari hisoblanadi:



1.Shaxs ongini shakllantirish

- Hayotiy qadriyatlar, e'tiqod, dunyoqarashni rivojlantirish
- Ijtimoiy mas'uliyatni anglashni kuchaytirish

2.Ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash

- Yaxshi odatlar, madaniy va axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish
- Noto'g'ri xatti-harakatlarni bartaraf etish

3.Amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish

- Mehnat, o'qish, jamoa bilan ishlash, muomala ko'nikmalarini rivojlantirish

4.Rag'bat va motivatsiya berish

- O'quvchining o'zini namoyon qilishga, ijodiy fikrlashga undash
- Qiziqish va tashabbusni kuchaytirish

5.Mustaqil fikrlashni rivojlantirish

- Muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish
- To'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish

6.Ijtimoiy moslashuvga tayyorlash

- Jamiyatda o'z o'rnini topish, boshqalar bilan hamkorlik qilish
- Fuqarolik madaniyatini rivojlantirish
- **Xulosa:** Tarbiyaning umumiy metodlari maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Ishontirish, faoliyatni tashkil qilish, rag'batlantirish, jazo va o'z-o'zini tarbiyalash metodlarining uyg'un qo'llanilishi tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Metodlarni tanlash va qo'llashda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish, mehribon, ijobiy muhit yaratish va o'yin orqali o'rgatish eng muhim pedagogik shartlardan sanaladi. Tarbiya metodlaridan ko'zlangan maqsad — shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlashdir. Bu metodlar orqali o'quvchi yoki yoshlarning ongini shakllantirish, ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni mustahkamlash, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan har bir metod shaxsning o'zini anglashiga, jamiyatga foydali bo'lib ulg'ayishiga, hayotga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois tarbiya metodlari ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vositasi bo'lib, komil insonni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.



- **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1. Karimova V. “Pedagogika va psixologiya asoslari”. — Toshkent, 2021.%
- 2. Yo‘ldoshev J., Hasanboeva O. “Pedagogika”. — Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2020.
- 3. Zunnunov A., To‘raqulova N. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. — Toshkent, 2019.
- 4. G‘oziev E. “Rivojlanish psixologiyasi”. — Toshkent, 2020.
- 5. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”, 2019.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH
MUAMMOSINING PEDAGOGIK VA METODOLOGIK TAHLILI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ
РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF
DEVELOPING CRITICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS*****Davlatova Lobarxon Zokirjon qizi****Namangan viloyati Chortoq tuman 47-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi**Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali**Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich Magistranti**E-pochta: davlatovalobarxon4@gmail.com**Tel: +998943040492*

Annotatsiya: Ushbu maqola bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — pedagogik jarayonda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali metod va yondashuvlarini aniqlashdir. Tadqiqot metodlari sifatida adabiyotlar tahlili, kuzatuv, intervyu va eksperimental metodlar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning nazariy bilimlari yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, ularni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash qobiliyati past. Interfaol va reflektiv metodlar, guruhli muhokamalar va muammoli vaziyatlar tanqidiy fikrlashni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, individual pedagogik yondashuv va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, maqola bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, bolajak o'qituvchilar, pedagogik jarayon, interfaol metodlar, reflektiv mashg'ulotlar, muammoli vaziyat, individual yondashuv, raqamli vositalar, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tafakkuri.

Abstract: This article is devoted to the study of developing critical thinking skills among future teachers. The main aim of the research is to identify effective methods and approaches for fostering critical thinking in the pedagogical process. Research methods included literature review, observation, interviews, and experimental approaches. The results indicate that although students possess solid theoretical knowledge, their ability to apply it in practical activities remains low. Interactive and reflective methods, group discussions, and problem-based tasks serve as effective tools for enhancing critical thinking. Moreover, an individualized pedagogical approach and the use of modern digital tools contribute to further development of critical thinking. In conclusion, the article provides methodological foundations and practical recommendations for cultivating critical thinking among future



teachers.

Key words: critical thinking, future teachers, pedagogical process, interactive methods, reflective activities, problem-based tasks, individualized approach, digital tools, educational quality, students' reasoning

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash — shaxsning murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, ularni samarali yechish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Ayniqsa, pedagogik faoliyatni boshlash bosqichida bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ularning kasbiy malakasini rivojlantirishda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha samarali metodlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan yoki tizimli tarzda qo'llanilmayapti.

Adabiyotlarni tahlil qilganda, tanqidiy fikrlashning pedagogik va metodologik asoslari bo'yicha bir qator muammolar aniqlanadi. Jumladan, bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida: metodik vositalarning yetarli emasligi, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, talabalarning o'z fikrini mantiqan asoslash va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlarning yetishmasligi muammo sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayrim masalalar, masalan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda individual pedagogik yondashuvlarning samaradorligi yoki yangi interfaol metodik vositalarning o'zni yetarlicha o'rganilmaganligi aniqlanadi.

Ushbu maqola mazkur muammolarni pedagogik va metodologik jihatdan tahlil qilishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va metodologik asoslarini o'rganish va ularni samarali shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning pedagogik ahamiyatini aniqlash;
2. Bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga oid metodik yondashuvlarni tahlil qilish;
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash;
4. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Shu tarzda, maqola bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tizimli tarzda o'rganishga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonida mazkur



qobiliyatni shakllantirishning samarali usullarini aniqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tanqidiy fikrlash tushunchasi zamonaviy pedagogik nazariyalar va amaliyotda markaziy o'rin tutadi. Tadqiqotchilar P. Ennis, R. Paul, L. Facione kabi olimlarning fikricha, tanqidiy fikrlash — bu shaxsning ma'lumotni tahlil qilish, mantiqiy bog'liqlikda baholash, muammolarni aniqlash, ularni yechish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatidir [6]. Pedagogik jihatdan, tanqidiy fikrlashni shakllantirish bolajak o'qituvchilarning kasbiy malakasi va ularning o'quvchilarga sifatli, chuqur o'rgatuvchi ta'lim berish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha nazariy va metodologik jihatdan turli yondashuvlar mavjud: interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, mantiqiy va reflektiv mashg'ulotlar, ilmiy tadqiqot va tahlil faoliyati. Shu bilan birga, ko'p hollarda amaliyotda ushbu metodlarning tizimli va samarali qo'llanilishi yetarli emas [6; 7].

Oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ulardan asosiylari:

- Tanqidiy fikrlashni shakllantirishga mo'ljallangan metodik vositalarning yetishmasligi;
 - Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirishdagi qiyinchiliklar;
 - Talabalarning mustaqil fikrlash, mantiqiy asoslash va baholash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuvlarning yetishmasligi;
 - Interfaol va innovatsion metodlarning cheklangan qo'llanilishi, shu bilan birga, pedagoglarning bu metodlarni samarali tatbiq etish bo'yicha yetarli tayyorgarligi yo'qligi.
- Bundan tashqari, adabiyotlarda ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmagan: tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda individual pedagogik yondashuvlar samaradorligi, amaliy mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlardan foydalanish texnologiyasi, shuningdek, zamonaviy raqamli vositalar va interaktiv metodlarning ta'lim jarayonida roli.

Ushbu ishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolarini o'rganish uchun bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Adabiyotlarni o'rganish metodi: Tanqidiy fikrlash va pedagogik metodologiya bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar, nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu metod orqali mavzu bo'yicha nazariy asoslar, mavjud yondashuvlar va ularning pedagogik samaradorligi o'rganildi.

Analitik metod: Tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha mavjud metod va yondashuvlarning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Shu bilan birga, metodlarning amaliyotga tatbiqi va natijadorligi aniqlashga harakat qilindi.

Taqqoslash metodi: Turli pedagogik yondashuvlar, metodik vositalar va innovatsion



“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMNING INNOVATSION YO’NALISHLARI”

strategiyalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar aniqlanib, ularning samaradorligi solishtirildi.

Sintez metodi: Tadqiqot natijalari asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo‘ljallangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu metod tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Empirik kuzatuv va tahlil metodi: Bolajak o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda kuzatuvlar asosida ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati va metodlarning samaradorligi baholandi.

Metod	Tavsif	Pedagogik maqsad	Afzallik	Misol
Adabiyotlarni o‘rganish	Ilmiy maqolalar, monografiyalar va tadqiqotlar tahlil qilinadi	Nazariy bilimlarni shakllantirish	Tadqiqot asoslarini yaratadi, mavjud tajribani o‘rganish imkonini beradi	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha ilgari ishlatilgan metodlarni tahlil qilish
Analitik metod	Metod va yondashuvlarning mohiyati va samaradorligi tahlil qilinadi	Metodlarni baholash va tanlash	Kamchilik va afzalliklarni aniqlash	Interfaol metodlarning dars jarayonida natijasini tahlil qilish
Taqqoslash metodi	Turli pedagogik strategiyalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklar aniqlanadi	Eng samarali metodni aniqlash	Yondashuvlarni solishtirish imkonini beradi	Muammoli vaziyatlar va reflektiv mashg‘ulotlar samaradorligini solishtirish
Sintez metodi	Tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi	Amaliy tavsiyalar yaratish	Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradi	Darslarda interfaol va reflektiv mashg‘ulotlarni birlashtirish
Empirik kuzatuv	Talabalar faoliyati, mashg‘ulot natijalari kuzatiladi	Talabalar qobiliyatini baholash	Metodlarni real sharoitda sinash	Talabalar o‘z fikrini asoslab taqdim qilganda kuzatuv olib borish



Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar yetarlicha rivojlangan, lekin ularning amaliyotga tatbiqi cheklangan. Interfaol, muammoli va reflektiv metodlar eng samarali yondashuv sifatida ko'rsatilgan, ammo ularning ta'lim jarayonida muntazam qo'llanilishi yetarli emas. Bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun tizimli dastur va metodik vositalar ishlab chiqish zarurati mavjud. Raqamli va interaktiv vositalardan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin ularning samaradorligi va metodik asoslari yetarlicha o'rganilmagan.

Ushbu ish pedagogik va metodologik jihatdan ahamiyatli bo'lib, bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, mavjud pedagogik tajribalarni o'rganish va yangi interfaol metodik tavsiyalar ishlab chiqish asosida tashkil etildi. Shu orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati yaratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq asosiy muammolar aniqlanib, mavjud metodlarning samaradorligi tizimli tarzda tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalar nazariy bilimlarni egallashda yaxshi natija ko'rsatadi, biroq ularni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash qobiliyati past. Bu holat, birinchi navbatda, interfaol va reflektiv metodlarning yetarlicha qo'llanilmasligi va pedagogik jarayonda metodlarning tizimli emasligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, talabalarga muammoli vaziyatlar berish, guruhli muhokamalar tashkil etish, shuningdek, reflektiv mashg'ulotlarni muntazam olib borish tanqidiy fikrlash darajasini sezilarli darajada oshiradi. [1; 5]. Biroq, agar metodlar tizimli tarzda tatbiq etilmasa, natijalar vaqtinchalik va cheklangan bo'lib, talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkam integratsiya qila olmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati turlicha rivojlangan, shuning uchun individual pedagogik yondashuvlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [3]. Har bir talabaga uning shaxsiy xususiyatlari va bilim darajasiga mos keladigan vazifalarni berish, talabaning kuchli tomonlarini rag'batlantirish va zaif tomonlarini qo'llab-quvvatlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli va interaktiv vositalar, masalan, onlayn testlar, simulyatsiya, interaktiv mashqlar va virtual muammolar talabalarning analitik va tanqidiy fikrlashini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushbu vositalarning metodik asoslari va samaradorligi yetarlicha o'rganilmaganligi sababli, ularni qo'llash jarayonida qo'shimcha tadqiqot va tajriba talab etiladi.

Bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish samarali bo'lishi uchun bir nechta shartlar muhim hisoblanadi: nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, interfaol va reflektiv metodlarni tizimli va muntazam qo'llash, talabalarning individual



xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuvni joriy etish hamda raqamli va interaktiv vositalardan samarali foydalanish. Tadqiqot natijalari pedagogik nazariya bilan uyg'un keladi va amaliyot uchun tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha asosiy tavsiyalar beradi. Shu bilan birga, tadqiqot amaliyotda yangi metodik strategiyalar ishlab chiqish va ularni test qilish zaruratini ham ko'rsatadi, bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qator pedagogik muammolar mavjud. Ulardan eng muhimlari — nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda samarali qo'llash qobiliyatining pastligi, interfaol va reflektiv metodlarning tizimli tatbiq etilmasligi hamda individual pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada qo'llanilmasligidir. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil fikrlash va muammolarni mantiqan yecha olish qobiliyati turlicha rivojlanganligi, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda individual yondashuvning ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot shuningdek, zamonaviy raqamli va interaktiv vositalar, masalan, onlayn testlar, simulyatsiya va interaktiv mashqlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Biroq ularning metodik asoslari va samaradorligi hali to'liq o'rganilmaganligi sababli, ularni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun qo'shimcha tadqiqot va tajriba talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, bolajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantirish uchun:

- nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish,
- interfaol va reflektiv metodlarni tizimli tarzda qo'llash,
- talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuvni joriy etish,
- raqamli va interaktiv vositalardan samarali foydalanish zarur.

Ushbu tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, nafaqat bolajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, balki ularning kelajakdagi pedagogik faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – USA: Pearson, 2014. – 6er 345. (Tanqidiy fikrlash: O'rganish va hayotingizni boshqarish vositalari // Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life)
2. Dewey J. Experience and Education. – USA: Macmillan, 1938. – 6er 112. (Tajriba va ta'lim // Experience and Education)
3. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – USA: Continuum, 1970. – 6er 210. (Zulm ostida pedagogika // Pedagogy of the Oppressed)



4. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). – T.: Sharq, 2010. – 6et 189. (Philosophical Thought of Central Asia, Near and Middle East (Middle Ages) // Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar))
5. Ziyoviddinova A. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T.: Modern Science and Research, 2025. – 6et 56–72. (Pedagogical Bases for Developing Critical Thinking in Students // O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari)
6. Abdullaeva M. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: didaktik yondashuvlar. – T.: Innovatsion pedagogika, 2023. – 6et 34–49. (Developing Critical Thinking: Didactic Approaches // Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: didaktik yondashuvlar)
7. Abdukarimova E. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari. – T.: SHOKH Library, 2022. – 6et 101–118. (Methods for Developing Critical Thinking in Students // O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHDA ART TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI****PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF ART TECHNOLOGIES IN DEVELOPING
THE ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ ART В РАЗВИТИИ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ*****Arabbayeva Hilola Samijon qizi****Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich
Magistranti**E-pochta: xilolaarabbayeva@gmail.com****Tel: 93 634 17 78***

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda ART (san'at va badiiy faoliyatlar) texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida rasm, musiqa, drammatizatsiya, harakat va boshqa badiiy faoliyatlar yordamida o'quvchilarning ijodiy, intellektual, kommunikativ, estetik va emotsional qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi tahlil qilindi. ART texnologiyalari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o'z fikrini erkin ifodalash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ART texnologiyalarini tizimli va maqsadli qo'llash darslarni qiziqarli, interfaol va samarali qiladi hamda o'quvchilarning qobiliyatlarini mukammal rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, qobiliyatlarni rivojlantirish, ART texnologiyalari, pedagogik imkoniyatlar, ijodiy qobiliyat, kommunikativ ko'nikmalar, estetik tarbiya, mustaqil fikrlash, jamoaviy ish, ta'lim samaradorligi.

Abstarct: This article explores the pedagogical possibilities of ART technologies in developing the abilities of primary school students. The study analyzes the effectiveness of ART technologies in enhancing students' creative, intellectual, communicative, aesthetic, and emotional skills. It highlights their role in increasing student engagement, fostering independent thinking, encouraging self-expression, and promoting teamwork skills. The results show that systematic and targeted use of ART technologies makes the primary education process more engaging, effective, and interactive, contributing to the comprehensive development of students' abilities. The article also provides methodological recommendations for implementing modern pedagogical technologies in educational practice.



Keywords: primary school, ability development, ART technologies, pedagogical opportunities, creative ability, communicative skills, aesthetic education, independent thinking, teamwork, learning effectiveness.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy rivoji, ularning qobiliyatlarini erta aniqlash va izchil rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ijodiy, intellektual, emotsional va kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish kelgusida ularning ta'limiy muvaffaqiyati va ijtimoiy faolligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, ARTdan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quvchilarning tasavvurini, ijodiy fikrlashini, estetik didini rivojlantirishga yo'naltirilgan san'atning turli vositalari keng qo'llanilmoqda. Rasm, musiqa, drama, harakat va boshqa san'at turlari o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochib berishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu vositalar orqali o'quvchilarning faolligi oshiriladi, mustaqil fikrlashga undaladi va ularning shaxsiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra obrazli tafakkurga, his-tuyg'ular orqali idrok etishga moyil bo'ladilar. Shu jihatdan ART ularning yoshiga mos bo'lib, ta'lim jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Mazkur vositalar orqali o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ijodkorlik, tashabbuskorlik, muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin ifodalash kabi qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Shu munosabat bilan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda ARTning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini asoslash dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masala yoritilib, ARTning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati va ularning o'quvchi qobiliyatlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sohada mahalliy va xorijiy olimlarning bir qator ishlari mavjud. Masalan, O'zbekiston olimi M. Yoqubov (2018) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tadqiq qilgan [1]. Uning fikricha, ijodiy yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xorijiy tadqiqotlar bilan tanishadigan bo'lsak, Eisner, E. W. (2002) san'at asosida ta'limning o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligini ta'kidlaydi. Eisnerga ko'ra, rasm, musiqa va drama kabi ijodiy faoliyat o'quvchilarning tafakkur doirasini



kengaytiradi va ularning shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Vygotskiy, L. S. (1978)ning rivojlanish psixologiyasiga oid ishlarida boshlang'ich yoshdagi bolalarning qobiliyatlari ularning faoliyat jarayonidagi ijtimoiy va san'atga oid muhit bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlangan. Vygotskiyning nazariyasi ARTni boshlang'ich ta'limda qo'llashda nazariy asos sifatida xizmat qiladi [3].

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda qobiliyat tushunchasi shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga imkon beruvchi individual xususiyatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida qobiliyatlarni rivojlantirish masalasiga oid ilmiy manbalarda asosan ijodiy, intellektual, kommunikativ va emotsional qobiliyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda ta'lim jarayonining faol, interfaol va o'yin asosida tashkil etilishi yuqori samaradorlik berishi ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan ARTga asoslangan mashg'ulotlar bo'yicha ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Tadqiqotchilar ARTning o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish, shuningdek, ularning o'zini erkin ifodalash va mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini kuchaytirishdagi ahamiyatini alohida qayd etadilar. San'at elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarning bilish faolligi oshishi, ta'lim mazmuni yanada chuqurroq o'zlashtirilishi ilmiy asoslab berilgan.

Shuningdek, adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ARTning yosh va psixologik xususiyatlarga mosligi, ularning hissiy-ta'sirchanligi yuqoriligi hamda ta'lim motivatsiyasini kuchaytirishdagi o'rni ta'kidlanadi [2]. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda ARTning pedagogik imkoniyatlarini tizimli va kompleks yondashuv asosida yoritish yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur maqolada qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tahlil va sintez metodlari. Shuningdek, ARTning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida mavjud nazariy qarashlar tahlil qilindi hamda ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda ARTning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi aniqlashtirildi. O'tkazilgan kuzatuv va tahlillar natijalari san'atga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilish faolligi va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi [4].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, rasm chizish, musiqiy mashg'ulotlar, drama va sahnalashtirish



elementlari o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, tasavvur doirasi va estetik didini rivojlantirishga xizmat qilganligi kuzatildi. O'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarishda mustaqil yondashuvni namoyon etib, o'z fikr va hissiyotlarini erkin ifodalashga intildilar. Bu holat ularning kommunikativ qobiliyatlari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi hamda o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamladi.

Shuningdek, ART orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning dars jarayonida faolligini oshirdi. O'yin, rasm chizish, sahnalashtirish va musiqiy faoliyat elementlari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda ijobiy hissiyotlar uyg'otdi, bu esa ta'lim materialining yaxshiroq o'zlashtirilishiga xizmat qildi. Tadqiqot davomida an'anaviy usullarga nisbatan ARTga asoslangan mashg'ulotlarda o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishdagi tashabbuskorligi yuqori bo'lgani aniqlandi.

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan hamohang ekanligi kuzatildi. Xususan, san'at elementlariga asoslangan ta'lim o'quvchilarning shaxsiy rivoji, ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishi haqidagi ilmiy xulosalar ushbu tadqiqot natijalari bilan tasdiqlandi. Shu bilan birga, ARTning boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga mosligi ularning pedagogik samaradorligini yanada oshirishi aniqlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlari bo'yicha olingan natijalar:

Qobiliyat turlari	An'anaviy usul guruhi (o'rtacha ball)	ART guruhi (o'rtacha ball)	Farq (ball)
Ijodiy qobiliyat	3,2	4,5	+1,3
Intellectual qobiliyat	3,5	4,2	+0,7
Kommunikativ qobiliyat	3,0	4,3	+1,3
Emotsional qobiliyat	3,4	4,6	+1,2
Faollik va tashabbuskorlik	3,1	4,4	+1,3

Izoh: Ballar 5 ballik tizim bo'yicha berilgan va o'quvchilarning mashg'ulotlarda faoliyati, mustaqil ishlash qobiliyati, ijodiy yondashuvi hamda o'z fikrini erkin ifodalash ko'rsatkichlari asosida baholangan. Natijalar ko'rsatadiki, ARTdan foydalangan guruh barcha qobiliyat turlarida sezilarli darajada yuqori natijalarga erishgan.

Natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, ARTdan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Biroq mazkur vositalarni samarali qo'llash o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni, mashg'ulotlarni puxta rejalashtirishni hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi [5]. Shu bois ARTni ta'lim jarayoniga joriy etishda ularning mazmuni, shakli va vositalarini puxta o'ylangan holda tanlash muhim hisoblanadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ARTning boshlang'ich sinf o'quvchilarining



qobiliyatlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatib, ularni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga keng joriy etish zarurligini asoslab berdi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda ARTning pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mazkur vositalar ta'lim jarayonini mazmunan boyitib, o'quvchilarning ijodiy, intellektual, emotsional va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. San'atga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilish faolligini oshirib, ularni ta'lim jarayoniga faol jalb etishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida ARTning boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi ularning ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi asoslab berildi. San'at elementlari orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlar uyg'otib, o'z fikrini erkin ifodalash, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, ARTdan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonida qulay pedagogik muhit yaratishga yordam berishi aniqlandi. Biroq mazkur vositalarni samarali qo'llash o'qituvchining metodik tayyorgarligi, mashg'ulotlarni puxta rejalashtirishi hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ARTni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada bayon etilgan xulosalar boshlang'ich ta'limda ARTni qo'llashga doir metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Hasanova Sh. F. Art pedagogikasi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari. – *Models and Methods in Modern Science*, 2024, № 13, 133–142. **InLibrary**
2. Temirova K. S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma ijodiy kompetensiyalarini ART-pedagogika asosida shakllantirishning metodik asoslari. – *Pedagogik Mahorat*, 2025, № 6. **buxdu.uz**
3. Askarov B. B. Technology for Developing Design Thinking through Art Pedagogy. – *JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 2024, 10(10), 39-40. **repo.journalnx.com**
4. Babanazarova M. N., Radjabova M. A. ART Pedagogy is an Integral Part of the Educational Process. – *Conferencea*, 2024, 64–71. **Conferencea**
5. Kuttibekova G. T. ART-pedagogik texnologiyalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash. – Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy maqolasi, 2023. **jdpu.uz**



THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF ADVERTISING ON CONSUMER BEHAVIOR: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS IN THE CONTEXT OF DIGITAL COMMUNICATION

Amanbaeva Dilbar Baxtiyarovna

Karakalpak State University named after Berdakh

Email: dilbaramanbaeva10@gmail.com

Abstract

This scientific article presents an in-depth analysis of the psychological impact of advertising on consumer behavior in contemporary society. Advertising is examined as a complex socio-psychological phenomenon influencing individual and collective consciousness, emotions, motivation, values, and decision-making processes. The study explores key psychological mechanisms of advertising influence, including perception, attention, persuasion, emotional appeal, motivation, and subconscious processing. Particular emphasis is placed on the transformation of advertising influence in the digital environment, especially through social media platforms, personalized advertising strategies, and influencer marketing. The findings demonstrate that the systematic application of psychological principles in advertising significantly shapes consumer attitudes, purchasing behavior, and long-term brand loyalty.

Keywords: Advertising psychology, consumer behavior, psychological influence, persuasion, emotional appeal, digital advertising, social media. (Solomon, 2018)

INTRODUCTION

Advertising occupies a central place in the system of modern mass communication and plays an important role in the development of market relations. In the context of globalization and digitalization, advertising has become not only a means of informing consumers about goods and services, but also a powerful instrument of psychological influence that shapes social values, lifestyles, and patterns of consumer behavior. (Kotler & Keller, 2016) (Solomon, 2018)

The growing volume of advertising information and the increasing competition in the market environment have led advertisers to actively use psychological knowledge to enhance the effectiveness of advertising messages. Advertising appeals to human emotions, needs, beliefs, and subconscious reactions, thereby influencing consumer choices. Therefore, the study of the psychological impact of advertising remains a relevant scientific problem that requires comprehensive theoretical and empirical analysis.

The purpose of this article is to analyze the psychological mechanisms of advertising influence on consumer behavior and to identify the specific features of advertising impact in the digital communication environment.



MAIN PART

1. Advertising as a socio-psychological phenomenon

From a socio-psychological perspective, advertising is a form of communication aimed at influencing the attitudes and behavior of a target audience. It reflects social norms, cultural values, and ideological orientations of society while simultaneously shaping them. Advertising messages are designed to resonate with the social experience of consumers and create meaningful associations.

Advertising influence is realized through interaction between the communicator (advertiser) and the recipient (consumer). The effectiveness of this interaction depends on psychological characteristics such as age, gender, education, social status, cultural background, and personal experience of consumers.

2. Psychological theories underlying advertising influence

Theoretical foundations of advertising psychology are based on classical and modern psychological theories. Motivation theory explains how advertising appeals to basic and higher-level human needs. Maslow's hierarchy of needs is widely applied in advertising practice to stimulate consumer interest. (Solomon, 2018)

Cognitive psychology focuses on information processing mechanisms, including perception, attention, memory, and thinking. Advertisers use simple messages, visual symbols, and repetition to enhance memorability. Behavioral psychology emphasizes stimulus-response mechanisms, where advertising stimuli provoke specific consumer reactions. (Belch & Belch, 2020)

3. Emotional influence and formation of consumer attitudes

Emotional appeal is one of the most powerful tools of advertising influence. Emotions significantly affect consumer attitudes toward brands and products. Positive emotional responses such as joy, trust, sympathy, and nostalgia contribute to favorable brand perception. (Cialdini, 2009)

Negative emotions, including fear and anxiety, are also used in advertising, particularly in social and public awareness campaigns. Emotional advertising often bypasses rational analysis and directly affects subconscious reactions, making it highly effective.

4. Persuasion techniques and consumer decision-making process

Persuasion represents a deliberate attempt to influence consumer beliefs and behavior. Advertising employs various persuasion techniques such as social proof, authority, credibility, scarcity, and repetition. These techniques increase trust in advertising messages and reduce consumer resistance. (Cialdini, 2009)

Consumer decision-making is a multi-stage process that includes problem recognition, information search, evaluation of alternatives, purchase decision, and post-purchase behavior. Advertising plays a role at each stage by shaping expectations and reinforcing satisfaction. (Schiffman & Wisenblit, 2019)



5. Perception, attention, and subconscious mechanisms of influence

Perception is a key psychological process through which consumers interpret advertising messages. Visual design, color schemes, sound effects, language style, and cultural symbols significantly affect how messages are perceived. Due to selective attention, consumers consciously process only a limited amount of advertising information.

Subconscious influence is achieved through repeated exposure, symbolic imagery, and associative links. Over time, these elements shape consumer preferences without conscious awareness.

6. Psychological impact of digital and social media advertising

Digital technologies have transformed advertising practices and significantly increased psychological impact. Personalized advertising based on user data allows advertisers to deliver highly relevant messages. Social media platforms provide interactive communication and real-time feedback. (Fill, 2013)

Monologik nutq bir kishining ko'pchilikka qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, eshitganlarini qayta so'zlab berish va o'zi savol berib, o'zi javob berish shaklida namoyon boladi. Bolalarga keng yoyilgan fikrni tuzishni o'qitishda tarbiyachi ularda matn tuzilmasi haqidagi eng oddiy bilimlarni, gap bilan fikrning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqalar haqidagi tasavvurini shakllantirishi zarur. Ma'lumki, hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi. Ruhshunoslarning aytishicha, bolalarda monologik nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi. Ruhshunos D. V. Elkonin bu haqida shunday yozadi: "Bola hayot tarzining o'zgarishi, kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdagi faoliyatlarning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini farqlashga olib keladi. Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola o'z taassurotlarini kechinmalarini kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli-monolog tarzida habar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'ladi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, nutq grammatik jihatdan rivojlangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi. Bundan tashqari bola nutqi monologik nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya dasturlarida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish boyicha har bir yosh guruhlari uchun ish vazifalari va mazmuni belgilab qo'yilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish o'rta guruhdan boshlab amalga oshiriladi. Bu guruhda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. O'rta guruh bolalari birinchi yarim yillikda hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi. Ikkinchi yarim yillikda esa bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini, asar mazmunini hikoya qilib beryotgan o'rtoqlarining fikrini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilyotgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi. Maktabga tayyorlov guruhlarida esa avvalo tarbiyachi bolalar diqqatini ertakning boshlanmasi, takrorlanib kelayotgan parchalariga va xulosa qismiga qaratishi lozim. Bolalar asar voqealarini so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini qo'llay bilishi va ertakni nihoyasiga yetkazishda qisqa, aniq va lo'nda jumalardan foydalanishi lozim. Shu kabi nutqiy malakalar monologik nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlar orqali izchil shakllantiriladi, chunki aynan ushbu mashg'ulotlarda bola voqealar ketma-ketligini tiklash, mazmunni qayta so'zlab berish, obrazli ifodalar qo'llash va nutq ohangini boshqarish kabi muhim



ko'nikmalarni egallaydi. Ushbu talablarni amalga oshirishda tarbiyachi jamoa hayotidan hikoya tuzish ya'ni “Bizning bog'cha” yoki “Bizning guruh” kabi mavzulardan manologik nutqni rivojlantirish mashg'uloti sifatida foydalanishi mumkin. Bundan maqsad bolalarda shaxsiy hayotdan tugallangan hikoya tuzish malakasi shakllantirish va gapirayotganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, jumlar tuzishni o'rgatish. Monologik nutqni shakllantirishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- Qayta hikoyalash – bolalar badiiy matnni eshitib, o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatiladi;
- Reja asosida hikoya qilish – matn mazmuni qismlarga bo'linib, izchil hikoyalash o'rgatiladi;
- Rasm asosida badiiy hikoya tuzish – tasviriy vositalar orqali nutq faolligi oshiriladi;
- Rollarga bo'lib o'qish – ifodali nutq va mustaqil gapirish ko'nikmasi rivojlantiriladi;
- Ijodiy davom ettirish – ertak yoki hikoyaning davomiga oid monolog tuzish.

Bu usullar bolalarning nutqiy mustaqilligini oshiradi va monologik nutqni faol shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda monologik nutqni shakllantirish- ularning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bola hikoya tuzish jarayonida voqealarning ketma-ketligini eslab qoladi, ma'lumotlar ustida ishlaydi va umumlashtiradi. Bu jarayon tafakkurni faollashtiradi va mantiqiy bog'lanishlarni anglashga yordam beradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida monologik nutqni rivojlantirish rejalashtirilgan, tizimli, yosh xususiyatlariga mos ta'limiy faoliyatlar orqali muntazam yo'lga qo'yilishi zarur. Tog'ri tashkil etilgan metodik ishlar bolalarda ravon nutqning shakllanishiga va jamiyatda muloqotga kirishish malakasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Q.Jabborova “Nutq o'stirish uslubi” darslik FDU “Nusxa ko'paytirish bo'limi” Farg'ona 2025.
2. I.S.Soliyev, D.T.Yuldasheva.(Farg'ona2024)”Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq tarbiyasi va izchil nutqqa o'rgatish” Monografiya.72-75.
3. D.R.Babayeva (Toshkent 2018) “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” darslik.137-139.
4. Q.Shodiyeva “O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish.-T.:”O'qituvchi”,1993.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI
TARBIYALASHDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI****Jabborova Marifat Qodiraliyevna**

Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti Pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidjonova Zuxraxon Zafarjon qizi

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 23.45-guruh, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada MTT da tabiat burchagini tashkil etish bolalarning tabiatga oid bilimlarini yanada shakllantirish, ekologik madaniyatni tarbiyalash hamda ularning kuzatuvchanlik, mehnatsevarlik va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga, tabiatni asrab - avaylash va unga ziyon yetkazmaslikka o‘rgatishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat burchagi, o‘simliklar dunyosi, hayvonot olami, ekologik madaniyat,

Kirish.

Bolalarni tevarak – atrof bilan tanishtirish ularga axloqiy tarbiya berish vositalaridan biri bo‘lib, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish imkonini beradi, bunda ularning so‘z boyligi o‘sib, to‘g‘ri tallafuz etish malakasi ortib boradi, ularda fikrni grammatik nuqtayi nazardan to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmasi tarkib topadi.

Bolalarni tevarak – atrof bilan tanishtirish va lug‘at ustida ishlashga doir ishlarning mazmuni hamda ko‘lami bolalarning yosh xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, bu bolalar bog‘chasining har bir guruhi uchun tarbiya dasturida alohida belgilab berilgan.

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabati, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko‘paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda MTTda tashkillangan tabiat burchagining ahamiyati katta hisoblanadi. Tabiat burchagida saqlanadigan o‘simliklar va hayvonlar bolalarning tabiat haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini oshishida, nutqini to‘g‘ri shakllanishida boshlang‘ich manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’limda tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan bevosita munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Tabiat burchagi bolalarga o‘simlik va hayvonot olami bilan yaqindan tanishib, ular bilan muloqotda bo‘lish imkonini beradi. Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki, uni bolalar har kuni ko‘radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o‘simlik va hayvonlarni tizimli ravishda kuzatib, parvarish qilib boradilar. Buning natijasida o‘simlik va hayvonot dunyosining rang barangligi, ularning o‘sishi va rivojlanishi, ular uchun qanday shart-sharoitlar kerakligi to‘g‘risidagi tasavvur va



tushunchalarni egallab boradilar.

Tarbiyachi bolalarni solishtirma analizga o'rgatadi, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni, ularga xos belgilarni bilib oladilar. Shuningdek tarbiyachilar tabiat burchagida o'simliklarni o'stirish va ular bilan bolalarni tanishtirish uchun ularning nomlarini va har bir o'simlikning morfologik, biologik xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur hisoblanadi. Bunda qaysi o'simlik quyosh yorug'ligi yaxshi tushadigan joyda va qaysi biri yorug'lik kam tushadigan joyda bo'lishini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullashiga, barglarning shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko'rinishiga va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zallikdan quvonishga o'rganadilar hamda ularning estetik didi o'sadi.

Bolalarning tabiatga mehr-muhabbatini o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ularni asrab-avaylash bo'yicha mehnat faoliyatlarini tashkil etish bilan birga qo'shib olib borish kerak. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishini ularning yosh xususiyatlari, pedagogik, fiziologik, imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat burchagini tashkil etish bilan birga unga qo'yiladigan talablar kata ahamiyatga egadir. Ular quyidagilar:

- 1.O'simlik yoki hayvon biron-bir aniq tur uchun xos bo'lishi kerak;
- 2.Tabiat burchagida yashovchi hayvonlar beozor va qo'l mehnatini talab qilmaydigan, ovqat tanlamaydigan, bolalar yoshiga mos bo'lishi kerak;
- 3.Tabiat burchagida yashovchilar yorqin, jozibador, bolalar diqqatini o'ziga jalb qila oladigan bo'lishi kerak;
- 4.Bir turdagi o'simlik va hayvonlarni bir necha xili bo'lishi kerak;
- 5.Tabiat burchagida yashovchilar tamoman havfsiz va bolalar sog'lig'iga hech qanday zarar yetkazmasligi kerak;
- 6.Tabiat burchagida yashovchi o'simliklar va hayvonlar soni cheklangan va biologik xususiyatlari hisobga olingan holda joylashtirilishi kerak.

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagida saqlash, joylashtirishdan tashqari, tabiat burchagida hayvonlarni boqishning o'ziga xos hayotiy va biologik tomonlari bo'lib, uni har bir tarbiyachi bilishi muhim.

Kichik guruhda tabiat burchagini tashkil etishda tarbiyachi quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak:

O'simliklar dunyosi: hitoy atirguli, doimiy gullovchi begoniya, fikus

Baliqlar: tilla baliq.

Qushlar: konoreyka.

O'rta guruhda:

O'simliklar dunyosi: begoniya, reks, fikus, hlorofitum.

Baliqlar: 2-3 turdagi baliqlar bo'lishi kerak.

Qushlar: konoreyka, to'ti.

**Katta va maktabga tayyorlov guruhida:**

O‘simliklar dunyosi: amarallist, koleus, fikus, xlorafitum, kaktus.

Baliqlar: 3-4 turdagi baliqlar bo‘lishi kerak.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish bolalarda ekologik tarbiyani rivojlantishga yordam beradi. Tabiat burchagi orqali bolalarning tabiatga bo‘lga mehrini shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o‘zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda turli zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.O‘.O‘rinova.(Farg‘ona-2024) “Maktabgacha ta’lim-tarbiya metodikasi”. Darslik.118-119.
2. M.Q.Jabborova “Nutq o‘stirish uslubiyoti” darslik FDU “Nusxa ko‘paytirish bo‘limi” Farg‘ona 2025.
3. I.H.Rajabova.(Buxoro-2021) “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari”.O‘quv qo‘llanma.75-79.
4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.---T.:2018.

**Shaxs xulqidagi nizolarning psixik mexanizm sifatida talqini*****Karamova Mohinur Faxritdin qizi******Xalqaro innovatsion universiteti katta o'qituvchisi*****mohinurkaramova573@gmail.com**

Annotatsiya. Mazkur maqolada nizoli xulq muammosi psixik mexanizm sifatida nazariy va konseptual yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida nizoli xulqning shakllanishi va namoyon bo'lishida shaxs psixikasining ko'p qatlamli tuzilmasi, xususan ongiy jarayonlar, affektiv holatlar hamda irodaviy regulyatsiya tizimlarining o'zaro murakkab ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Nizoli xulqning psixodinamik determinatsiyasi ichki konfliktlar, frustratsiya va stress omillari bilan uzviy bog'liqlikda yoritilgan. Shuningdek, psixologik himoya mexanizmlari va refleksiv jarayonlarning nizoli xulqni boshqarish va transformatsiya qilishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari nizoli xulqni anglash, prognozlash va psixologik korreksiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: nizoli xulq, psixik mexanizm, shaxs psixikasi, psixodinamik jarayonlar, ongiy faoliyat, affektiv holatlar, irodaviy regulyatsiya, emotsional boshqaruv, ichki konfliktlar, psixologik determinatsiya, shaxs tuzilmasi, xulq-atvor regulyatsiyasi, psixologik integratsiya, stress va frustratsiya, adaptiv va dezadaptiv xulq, shaxslararo munosabatlar, konfliktologiya, psixologik himoya mexanizmlari, refleksiv jarayonlar, motivatsion soha.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема конфликтного поведения как психологического механизма на основе теоретических и концептуальных подходов. В ходе исследования научно обосновывается многоуровневая структура индивидуальной психики, в частности, сложное взаимодействие когнитивных процессов, аффективных состояний и систем волевой регуляции в формировании и проявлении конфликтного поведения. Подчеркивается психодинамическая детерминация конфликтного поведения в его неразрывной связи с внутренними конфликтами, фрустрацией и стрессовыми факторами. Также анализируется роль психологических защитных механизмов и рефлексивных процессов в управлении и трансформации конфликтного поведения. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для понимания, прогнозирования и психологической коррекции конфликтного поведения.

Ключевые слова: конфликтное поведение, психический механизм, личность и психика, психодинамические процессы, психическая деятельность, аффективные состояния, волевая регуляция, управление эмоциями, внутренние конфликты, психологическая детерминация, структура личности, поведенческая регуляция, психологическая интеграция, стресс и фрустрация, адаптивное и дезадаптивное



поведение, межличностные отношения, конфликтология, психологические защитные механизмы, рефлексивные процессы, мотивационная сфера.

Abstract. This article analyzes the problem of conflict behavior as a psychological mechanism based on theoretical and conceptual approaches. In the course of the research, the multi-layered structure of the individual psyche, in particular the complex interaction of cognitive processes, affective states and volitional regulation systems, in the formation and manifestation of conflict behavior is scientifically substantiated. The psychodynamic determination of conflict behavior is highlighted in its inextricable connection with internal conflicts, frustration and stress factors. The role of psychological defense mechanisms and reflexive processes in the management and transformation of conflict behavior is also analyzed. The results of the study are of significant scientific and practical importance in understanding, forecasting and psychological correction of conflict behavior.

Keywords: conflict behavior, psychic mechanism, personality psyche, psychodynamic processes, mental activity, affective states, volitional regulation, emotional management, internal conflicts, psychological determination, personality structure, behavioral regulation, psychological integration, stress and frustration, adaptive and maladaptive behavior, interpersonal relationships, conflictology, psychological defense mechanisms, reflexive processes, motivational sphere.

Kirish.

Nizoli xulq muammosining psixik mexanizm sifatida tadqiq etilishi inson psixikasining ko'p qatlamli va strukturaviy jihatdan murakkab tizimini chuqur tahlil etishni talab etadi, zero mazkur hodisa shaxs ongiy faoliyati, emotsional-regulyativ holatlari hamda irodaviy jarayonlari o'rtasidagi dinamik va o'zaro determinatsiyalashgan munosabatlarni ifodalaydi. Har bir nizo aslida shaxs ichki dunyosidagi nomuvofiqliklarning tashqi ifodasi sifatida yuzaga chiqadi, bu esa psixik muvozanatning buzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Nizoli xulqning psixik mexanizmi inson ongida kechadigan ziddiyatli fikrlar, hissiy taranglik va o'zini himoya qilish instinktlarining uyg'un harakati natijasida shakllanadi. Bunday holatlarda shaxsning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari va ijtimoiy rollari o'rtasida to'qnashuv paydo bo'ladi. Psixik tizim ushbu to'qnashuvni bartaraf etish uchun turli himoya mexanizmlarini ishga soladi, biroq ular har doim ham konstruktiv yo'nalishda kechmaydi. Nizoli xulqning shakllanishida ong va ong osti jarayonlari bir-biriga chambarchas bog'langan bo'ladi. Ong ostida saqlanayotgan norozilik, qo'rquv yoki tajovuz hissi ma'lum vaziyatda tashqi xatti-harakat sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning ongli darajada o'zini tutishga urinishlari ko'pincha bu kuchli hissiy oqimni to'xtata olmaydi, natijada psixik muvozanat buziladi. Shu sababli, nizoli xulqni faqat ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki ichki ruhiy energiyaning namoyon shakli sifatida ko'rish zarur. Inson psixikasi har doim ichki muvozanatni saqlashga intiladi, lekin bu intilish qarama-qarshi kuchlar ta'sirida o'z yo'lini



topa olmasa, nizoli xulq paydo bo‘ladi.

Psixik mexanizm sifatida nizo shaxsning o‘zini himoya qilish jarayonlarida faol namoyon bo‘ladi. Inson o‘z qadriyatlari yoki fikrlari xavf ostida qolgan deb his qilganda, u avtomatik ravishda himoyaviy reaksiyalarni ishga soladi. Bu holatda tajovuz, inkor etish, o‘zini oqlash, aybni boshqalarga yuklash yoki befarqlik ko‘rinishida ifodalanadi. Ushbu himoyaviy reaksiyalar qisqa muddatda psixik barqarorlikni saqlashga yordam beradi, biroq uzoq muddatli nuqtai nazardan u nizoni chuqurlashtiradi. Natijada shaxs o‘z hissiy holatini ongli tarzda boshqara olmay qoladi, bu esa ichki taranglikni kuchaytiradi.

Nizoli xulqning psixik mexanizmlari orasida affektiv boshqaruv, refleksiya darajasi, empatiya qobiliyati va o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasi alohida o‘rin tutadi. Hissiy boshqaruv zaif bo‘lgan shaxslar nizo vaziyatida tezda emotsional portlashga moyil bo‘ladilar. Aksincha, refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan insonlar o‘z hissiyotlarini anglay oladilar, bu esa nizoni konstruktiv hal etish imkonini beradi. Shuningdek, empatiya yetishmasligi boshqalarning hissiyotlarini to‘g‘ri idrok etishga to‘sqinlik qiladi, bu esa noto‘g‘ri tushunish va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Nizo jarayonining psixik asosida shaxsning motivatsion tizimi ham muhim rol o‘ynaydi. Agar insonning asosiy ehtiyojlari — e‘tirof, hurmat, ishonch, mustaqillik — qondirilmasa, u o‘zini psixologik jihatdan bosim ostida his qiladi. Ushbu bosim kuchaygan sari u o‘zini himoya qilishning instinktiv shakllariga murojaat qiladi, bu esa nizoli xulqni kuchaytiradi. Bunday holatda inson ongli emas, balki affektiv qarorlar asosida harakat qiladi, ya‘ni hissiyotlar tafakkur ustidan ustunlikka ega bo‘ladi.

Nizoli xulqni boshqarishda kognitiv jarayonlarning ham o‘rni beqiyosdir. Shaxs o‘z tajribasiga tayangan holda har bir vaziyatni baholaydi, lekin bu baholash ko‘pincha subyektiv bo‘ladi. Vaziyatni noto‘g‘ri talqin qilish, taxminlarga asoslanish yoki stereotipik fikrlash natijasida nizo kuchayadi. Psixik mexanizm sifatida bu holat shaxsning o‘z fikrini himoya qilishga intilishi bilan izohlanadi, biroq bu intilish konstruktiv emas, balki himoyaviy yo‘nalishga ega bo‘ladi.

Nizoli xulqning kuchayishida ichki affektiv energiyaning boshqarilmasligi katta rol o‘ynaydi. Insonda to‘plangan hissiy kuch chiqish yo‘lini topolmasa, u keskin so‘z, tahdid yoki jismoniy harakat ko‘rinishida tashqariga chiqadi. Shu sababli, psixologik jihatdan bunday energiyaning ijobiy yo‘naltirish, masalan, ijodiy faoliyat, sport yoki muloqot orqali chiqarish muhimdir. Bu jarayon psixik energiyaning destruktiv oqimini konstruktiv oqimga aylantirish mexanizmini yaratadi.

Nizo mexanizmining yana bir jihati — ijtimoiy o‘zaro ta’sirda shaxsning rol identifikatsiyasi bilan bog‘liq. Inson o‘zini jamiyatdagi rolida haddan tashqari mustahkam his qilsa, u o‘z pozitsiyasini himoya qilishda qat’iy bo‘lib qoladi. Bunday holatda shaxs moslashuvchanlikni yo‘qotadi, boshqalar fikriga nisbatan qattiq munosabat bildiradi va psixik tizimda himoyaviy kuchayish yuz beradi. Natijada, nizo kuchayadi va psixologik moslashuv buziladi.



Nizo holatida irodaviy jarayonlar ham psixik mexanizmning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaxs o'z xulqini irodaviy nazorat orqali tartibga solmasa, u impulsiv harakatlarga beriladi. Iroda kuchi yuqori bo'lgan inson esa vaziyatni nazoratda ushlab, hissiy reaksiyalarni boshqarishga qodir bo'ladi. Shu bois, nizoli xulqni kamaytirishda iroda, sabr va o'zini tuta bilish sifatleri psixologik jihatdan asosiy omillar hisoblanadi.

Psixik mexanizmlar tizimida “ichki dialog” tushunchasi ham muhim o'rin tutadi. Inson o'zida bir vaqtning o'zida ikkita qarama-qarshi nuqtai nazarni olib yuradi: biri nizo orqali o'zini himoya qiladi, ikkinchisi esa murosaga chaqiradi. Ushbu ichki dialogning qaysi tomoni ustunlik qilishi shaxsning tajribasi, temperament turi va refleksiya darajasiga bog'liq bo'ladi. Agar shaxs o'z ichki dialogini anglay olsa, nizo holatlari kamroq va konstruktivroq kechadi. Nizo mexanizmini chuqurroq tahlil qilganda, ruhiy energiyaning ichki oqimi va uning nazorati markaziy rol o'ynaydi. Ruhiy energiya nazoratdan chiqsa, hissiy portlash, tajovuzkorlik yoki befarqlik shaklida ko'rinadi. Aksincha, bu energiya ongli tarzda yo'naltirilsa, u ijodkorlik, empatiya yoki muloqot vositasi sifatida ishlaydi. Shu bois, psixik barqarorlikni ta'minlashda hissiy o'zini boshqarish eng muhim himoya mexanizmidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nizoli xulqning psixik mexanizmlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, har bir insondagi nizo holati uning ichki psixologik tizimining qanday ishlashini ochib beradi. Bu jarayonda hissiyotlar, tafakkur, ijtimoiy tajriba va irodaviy nazorat birgalikda ishtirok etadi. Nizoni boshqarish qobiliyati esa insonning psixik yetuklik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlardan biridir. Shu sababli, nizoli xulqni tahlil qilish faqat tashqi xatti-harakatni emas, balki shaxsning ichki psixik tizimini ham o'rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. De Dreu, C. K. W., Gelfand, M. J. Conflict in the Workplace: Sources, Functions, and Dynamics. — New York: Routledge, 2018.
2. Finkel, E. J., Campbell, W. K. Self-control and interpersonal conflict. — Current Directions in Psychological Science, 2020.
3. Gelfand, M. J. Rule Makers, Rule Breakers: How Tight and Loose Cultures Wire Our World. — New York: Scribner, 2018.
4. Halevy, N., Chou, E. Y. How decisions shape conflict and conflict shapes decisions. — Trends in Cognitive Sciences, 2021.
5. Sonnentag, S., Frese, M. Conflict, strain, and well-being at work. — Annual Review of Organizational Psychology, 2019.
6. Abduqodirov, A. “Pedagogik muloqotda konfliktlarni boshqarish masalalari.” — Pedagogika va psixologiya jurnali, 2020.
7. Mansurov, T. Z. Konfliktologiya. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2021.
8. Sunnatova, R. “O'quvchilar o'rtasida nizoli xulqning psixologik sabablari.” — Ijtimoiy fanlar, 2018.



9. To‘laganova, M. Pedagogik konfliktlar psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti, 2019.
10. Юденко, О. Н. Психологические причины конфликтов и конфликтного поведения. — Москва: Институт психологии РАН, 2016.



The Impact of Uzbek Phonetic Features on English Pronunciation Acquisition

Topvoldieva Dilbarkhon, Master's student of
Uzbekistan Journalism and Mass Communications University
Scientific advisor: **Ikramova Saida**

ABSTRACT

The main purpose of this article to analyze the influence of Uzbek Phonetic features on English pronunciation acquisition. By comparing the phonological systems of both languages, the article identifies key areas of challenges and provides pedagogical solutions to enhance English pronunciation competence in Uzbek EFL learners.

Keywords: Uzbek phonetics, English pronunciation acquisition, L1 interference, Uzbek EFL learners, Pronunciation improvement, Second language phonology

ANNOTATSIYA

Maqolaning asosiy maqsadi – ingliz tilidagi talaffuzni o'zlashtirish jarayoniga o'zbek fonetik xususiyatlarining ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Har ikki tilning fonologik tizimlarini taqqoslash orqali maqola asosiy qiyinchilik sohaslarini aniqlaydi hamda o'zbek ingliz tili o'rganuvchilarida inglizcha talaffuz kompetensiyasini rivojlantirish uchun pedagogik yechimlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek fonetikasi, inglizcha talaffuzni o'zlashtirish, birinchi til interferensiyasi, o'zbek ingliz tili o'rganuvchilari, talaffuzni yaxshilash, ikkinchi til fonologiyasi.

Introduction

Pronunciation is an important aspect of second language (L2) acquisition, especially for learners whose native language (L1) differs significantly from the target language. Uzbek, a Turkic language with unique phonetic and phonological characteristics, affects the way Uzbek learners perceive, produce English sounds. Understanding these impacts helps the teachers design targeted interventions to develop learner's pronunciation and fluency.

Phonetic Aspects of Uzbek Language

- a) Vowels-the Uzbek alphabet consists of six stable pure vowels. These are a, e, i, u, o, o'. Unlike English, Uzbek does not have long or short vowels, nor it does include reduced vowels such as schva /ə/. As a result, Uzbek speakers tend to pronounce all vowels equally in the same length.
- b) Consonants-Uzbek language does not have some common consonants in English. Notably, the dental fricatives /θ/ and /ð/ are not available in Uzbek. Furthermore, Uzbek does



not clearly differentiate between the English sounds /v/ and /w/ which triggers a huge problem in their pronunciation.

c) Stress and intonation-Stress in Uzbek is fixed and usually falls on the final syllable of meaningful words. Intonation patterns are typically flat compared to English, which relies heavily on stress-timing and intonation for meaning and emphasis.

Influence of Uzbek Phonetics on English pronunciation

a) Vowels difficulties- distinction between English long and short vowels is one of the major difficulties for Uzbeks. For instance, pairs such as ship and sheep or for and four are often pronounced identically. In addition to, the absence or reduced vowels leads learners to pronounce unstressed syllables unclearly, resulting in unnatural rhythm and incorrect word stress. English diphthongs also present challenges, as Uzbek learners tend to simplify them into monophthongs. Words like face, time may therefore be mispronounced.

b) Consonant difficulties-the absence of dental fricatives causes learners to substitute /θ/ and /ð/ with familiar sounds such as /t/, /s/, /d/, or /z/. Confusion between /v/ and /w/ is also omnipresent, affecting intelligibility.

Uzbek learners often delete sounds or add additional vowels to simplify pronunciation.

c) Suprasegmental difficulties-Uzbek speakers mostly transfer stress patters to English, placing stress on the final syllables regardless English stress rules. This results in mispronunciation like *workED* instead of *WORKed*. These in questions and sentences can affect communicative effectiveness.

Pedagogical solutions

In order to solve these problems caused by Uzbek phonetic interference, explicit pronunciation instruction is important. Educators should concentrate pair exercises, phonetic transcription, and listening discrimination activities. Very specific attention should be given to vowel length, reduced vowels, consonant contrasts and stress patterns.

It is important to use technology tools like pronunciation apps and AI tools as they support learners in error-correction. Moreover, teaching supra segmental features through shadowing, rhythmic drills, and authentic listening materials can significantly enhance pronunciation competence.

Conclusion

Uzbek phonetic features have a significant influence on English pronunciation acquisition. Differences in vowel, consonant, stress systems cause predictable pronunciation challenges among Uzbek EFL learners. Recognizing these challenges make educators design according strategies to improve learners' intelligibility and confidence in spoken English. Effective pronunciation teaching should be conducted using explicit instruction, technological support,



continuous exposure to authentic English input.

References

1. Kaplan, R. B. (2010). *The Oxford Handbook of Applied Linguistics*. Oxford University Press.
2. Khayitbaev, O. (2024). An analysis of Uzbek students' difficulties in pronouncing English consonants and vowels (Master's thesis, Chonnam National University).
3. Swan, M., & Smith, B. (2001). *Learner English: A Teacher's Guide to Interference and Other Problems*. Cambridge University Press.
4. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2010). *Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Askarov, Khurshid, & Ismatullaev, D. (2001). *Uzbek Phonetics*. Tashkent: Uzbekistan Academy of Sciences.
6. International Journal of Advanced Scientific and Academic Research. (2024). Pronunciation Problems of Uzbek EFL Learners.

**REAL VAQT REJIMIDA YANCHISH JARAYONINI MONITORING QILISH VA
TAHLIL ETISHNING INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMINI ISHLAB
CHIQISH****Boybutayev Sanjar Baxritdinovich****NavDKTU “Avtomatlashtirish va boshqaruv” kafedrası dotsenti****Oripov Bobur Turgun o'g'li****NavDKTU “Avtomatlashtirish va boshqaruv” kafedrası magistranti****Teshayev Abdulxay Baxtiyor o'g'li****NavDKTU “Avtomatlashtirish va boshqaruv” kafedrası magistranti**

Annotatsiya. Maqolada sanoat yanchish (maydalash) jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish va matematik tahlil asosida avtomatik boshqaruv tizimini yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuv keltirilgan. Datchiklardan kelgan uzluksiz keluvchi ma'lumotlar, SCADA tizimi, PLC kontrollerlar yordamida boshqaruvi va matematik modellar yordamida jarayonning barqarorligi, mahsulot sifati, energiya tejamkorligi hamda uskuna ishonchliligini va ximoyasi oshirish masalalari yoritilgan. donadorlikni barqarorlashtirish orqali yanchish jarayonining raqamlashtirilgan intellektual boshqaruv konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: SCADA, PLC, datchik, yanchish, harorat, zichlik bosim, oqim va energiya sarfi.

Abstract. The article presents a scientific and practical approach to creating an automatic control system based on real-time monitoring and mathematical analysis of the industrial crushing (grinding) process. The issues of increasing the stability of the process, product quality, energy efficiency, and equipment reliability and protection using continuous data from measuring instruments, SCADA system, PLC controllers, and mathematical models are discussed. A concept of digitalized intelligent control of the crushing process by stabilizing the granularity is developed.

Keywords: SCADA, PLC, measurement, temperature, density, pressure, flow and energy consumption.

Аннотация. В статье представлен научно-практический подход к созданию автоматизированной системы управления на основе мониторинга в реальном времени процесса промышленного измельчения (дробления) и математического анализа. Рассматриваются вопросы повышения стабильности процесса, качества продукции, энергоэффективности, надежности и защиты оборудования с использованием непрерывных данных от датчиков, системы SCADA, ПЛК-контроллеров и математических моделей. Разработана цифровая интеллектуальная концепция управления процессом измельчения путем стабилизации гранулометрического состава.



Ключевые слова: SCADA, ПЛК, датчик, измельчения, температура, плотность, давление, расход и энергопотребление.

Kirish.

Sanoat ishlab chiqarishida yanchish jarayoni texnologik zanjirning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, materialning keyingi qayta ishlanish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa konchilik, kimyo, oziq-ovqat va farmatsevtika korxonalarida donadorlikning barqarorligi, energiya sarfi va uskuna ishonchliligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Sanoatda yanchish tizimlarida jarayon parametrlarining o'zgaruvchanligi tufayli mahsulot sifati barqaror bo'lmaydi, ortiqcha energiya sarfi paydo bo'ladi, nosozliklar kech aniqlanadi. Shu sababli jarayonni real vaqt rejimida o'lchov vositalar yordamida kuzatish, ulardan olingan ma'lumotlar asosida parametrlarni matematik tahlil qilish, nosozliklarni erta aniqlash.uskuna ximoya tizimini ishlab chiqilgan ,uzluksiz kuzatuv tashkil qilingan. Mahsulotning chiqish ko'rsatgichlari o'lchash orqali maxsulot sifatiga tasir kursatuvchi suv ruda sarfi ni avtomatik boshqarish masalasi xam yoritilgan.

Raqamli texnologiyalar, SCADA tizimlari va mashina o'rganish metodlarining rivojlanishi ushbu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini bermoqda.

Tadqiqot maqsadi: Yanchish jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish, parametrlarni matematik model asosida tahlili va PLC kontrollerlarga o'rnatilgan dasturiy taminot orqali: mahsulot donadorligini barqarorlashtirish, energiya sarfini kamaytirish, nosozliklarni erta aniqlash, avtomatik boshqaruvni inson omilidan mustaqil qilish.

Usullar va materiallar

Yanchish jarayonining fizik-texnik parametrlarini aniqlash va o'lchash tizimini ishlab chiqiladi ya'ni maxsulot zichlik, bosim, harorat, mahsulot sifati o'lchanadi PLC kontrollerlar yordamida boshqariladi, boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqiladi.

Monitoring tizimining tuzilishi

Yanchish jarayonini real vaqt rejimida nazorat qilish uchun quyidagi texnik yechim taklif etiladi:

O'lchov vositalari bloki: harorat, zichlik bosim, oqim va energiya sarfini o'lchovchi datchiklar.

Ma'lumot yig'uvchi blok: Analog signallarni raqamli ko'rinishga o'tkazish va serverga uzatish.

Boshqaruv tizimi: PLC yoki mikrokontroller asosida ishlovchi dasturiy modul.

Jarayonni tahlil tizimi (SCADA): Operator uchun real vaqtli grafik interfeys, ogohlantirish va avtomatik boshqaruv algoritmlarini amalga oshiradi.

Intellectual tahlil va boshqaruv tizimda mashina o'rganish algoritmlari qo'llaniladi. Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:



Matematik model: Jarayon quyidagi umumiy matematik ifoda bilan tavsiflanadi:

$$y(t) = f(w(t), P(t), T(t), d(t)) + \varepsilon(t)$$

Bu yerda:

$y(t)$ -chiqishdagi mahsulot sifati (donadorlik yoki yanchish darajasi),

$w(t)$ -rotor tezligi,

$P(t)$ -bosim,

$T(t)$ -harorat,

$\varepsilon(t)$ -o'lchashdagi xatolik.


Jarayonni barqarorlashtirish uchun PID regulyator yoki adaptiv boshqaruv algoritmi qo'llaniladi.

Tizim quyidagi sohalarda samarali qo'llanilishi mumkin, Kon sanoati — rudalarni yanchish va saralashda, Oziq-ovqat sanoati — don, shakar, kofe va ziravorlarni yanchishda Kimyo va farmatsevtika — granulalar va kukun mahsulotlar ishlab chiqarishda

PLC asosidagi boshqaruv moduli - real vaqt signallarini tahlil qiladi, tezlik, yuklama, klapan holati kabi parametrlarni boshqaradi.

SCADA kuzatuv tizimi - grafiklar, diagrammalar, avariya ogohlantirish jarayon ma'lumot arxivlash trendlari.

Natija



1-rasm

Zamonaviy sanoat korxonalarida yanchish jarayoni texnologik jihatdan murakkab, ko'p parametrliligi va yuqori energiya sarfi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi mahsulot sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va energiya tejamkorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yanchish jarayonini **real vaqt rejimida**



monitoring qilish, tahlil etish va intellektual boshqaruv asosida optimallashtirish dolzarb ilmiy-texnik muammo hisoblanadi.

Berilgan rasmda yanchish jarayonini avtomatlashtirilgan monitoring va boshqaruv tizimi ko'rinishida ifodalovchi funksional-texnologik sxema tasvirlangan. Ushbu sxema **intellektual boshqaruv tizimining asosiy elementlari, o'lchash asboblari, ijro mexanizmlari hamda ma'lumotlar almashinuvini** yaqqol namoyon etadi.

Yanchish jarayonining umumiy tavsifi

Sxemada markaziy texnologik qurilma sifatida **sharli tegirmon (MShR 32×45)** tasvirlangan. Tegirmon ichida material mexanik ta'sirlar natijasida maydalanadi va yanchish jarayoni davomida **maxsulot** hosil bo'ladi. Ushbu maxsulot keyingi texnologik bosqichlarga uzatiladi. Jarayon quyidagi asosiy parametrlar orqali nazorat qilinadi:

- 1) **maxsulot** zichligi,
- 2) **maxsulot** sarfi,
- 3) **maxsulot** sath,
- 4) bosim,
- 5) harorat,
- 6) elektr motor toki.

Mazkur parametrlarning real vaqt rejimida uzluksiz o'lchanishi va tahlil qilinishi intellektual boshqaruv tizimining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Monitoring tizimining asosiy o'lchash parametrlariga tavsif. **Maxsulot** zichligi va sarfini monitoring qilish: Sxemada **maxsulot** zichligi **1025,9 g/l** qiymat bilan ifodalangan. Ushbu parametr yanchish samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega, chunki zichlikning ortishi yoki kamayishi tegirmon ichidagi yanchish sharoitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. **Maxsulot** sarfi esa **m³/soat** birlikda o'lchanib, jarayonning barqarorligini nazorat qilishda foydalaniladi. Intellektual tizim ushbu ma'lumotlar asosida suv yoki material berilishini avtomatik tarzda moslashtiradi.

Daraja (sath) va bosimni nazorat qilish

Tizimda bir nechta rezervuar va texnologik idishlarning **darajasi foizlarda (%)** ko'rsatilgan. Masalan, yanchish jarayoniga taalluqli idishda sath **95,1 %**, boshqa texnologik idishda esa **29,4 %** ni tashkil etmoqda. Bosim ko'rsatkichlari **MPa** birlikda o'lchanib, nasoslar va quvurlar xavfsiz ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bosimning keskin oshishi yoki kamayishi holatlarida intellektual tizim ogohlantirish yoki avtomatik himoya rejimini ishga tushiradi.

Haroratni real vaqt rejimida monitoring qilish

Sxemada yanchish jarayonining turli nuqtalarida tegirmon va sinxron dvigatelning xolati unda joylashgan harorat datchiklari (T1–T8) orqali **yuklash, tushirish, dvigatel va val shesternyalari harorati** nazorat qilinmoqda.

Masalan:



- yuklash harorati: **37–38 °C**,
- tushirish harorati: **38–40 °C**,
- dvigatel harorati: **41–39 °C**.
- quvirlardagi bosim 1.9 MPa
- moylash baki xarorati 38.8°C.

Harorat, bosim ma'lumotlari asosida intellektual boshqaruv tizimi mexanik qismlarning qizib ketishini oldindan aniqlaydi va avariyaaviy holatlarning oldini oladi. Qizigan moy sovutiladi yoki qizdiriladi va yana qayta jo'natiladi.

Elektr dvigatel tokini tahlil qilish va tegrmon gidravlik tizimini taxlili.

Tegirmon va nasoslarning elektr dvigatellarida o'lchanayotgan tok qiymatlari (**172,9 A, 0,2 A**) yuklama darajasini aniqlashda qo'llaniladi. Tokning oshishi yanchish kamerasi ortiqcha yuklanganligini bildiradi. Tegrmon va sinxron motor gidravlikasida bosim xamda xarorat doimiy kuzatuvda va nazoratda bo'ladi. Qizigan moy sovutiladi yoki qizdiriladi va yana qayta jo'natiladi. Intellektual algoritmlar ushbu parametrlarni tahlil qilib, material berishni kamaytirish yoki suv sarfini oshirish orqali jarayonni optimallashtiradi.

Intellektual boshqaruv tizimining afzalliklari

Mazkur sxema asosida ishlab chiqilgan intellektual boshqaruv tizimi quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- yanchish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish;
- texnologik parametrlarni avtomatik tahlil qilish;
- energiya sarfini kamaytirish;
- uskunalarning xizmat muddatini uzaytirish;
- inson omili ta'sirini minimallashtirish;
- avariyaaviy holatlarning oldini olish.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, berilgan texnologik sxema asosida yanchish jarayonini monitoring qilish va tahlil etishga mo'ljallangan intellektual boshqaruv tizimi zamonaviy raqamli ishlab chiqarish talablariga to'liq javob beradi. Ushbu tizim real vaqt rejimida yig'ilgan ma'lumotlar asosida optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi va ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Yanchish jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish va matematik tahlil asosida intellektual boshqaruv tizimini yaratish sanoat ishlab chiqarishi uchun yuqori samaradorlikka ega. Sensorlar, PLC, SCADA va texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi jarayonni barqarorlashtiradi, energiya sarfini kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi hamda uskuna ishonchligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari konchilik, kimyo, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida qo'llash uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda to'liq avtonom yanchish jarayonini yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A, Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, Toshkent, 2022.
2. Xudoyberdiyev B., Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish asoslari, TATU, 2021.
3. Lee S., “Real-time Monitoring of Grinding Processes using IoT and AI”, Journal of Manufacturing Systems, 2020.
4. Siemens SIMATIC WinCC SCADA System Manual, 2023.
5. ISO 9001:2015 – Quality Management in Automated Production Processes.

**SIYOSIY PR TEXNOLOGIYALARINING JAMIYATDAGI O'RNI**

QDU Jurnalistika fakulteti Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi
magistranti

Abatniyazova Aygul Shamurat qizi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada siyosiy jamoatchilik bilan aloqalar (Public Relations – PR) tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati hamda zamonaviy PR texnologiyalarining siyosiy jarayonlardagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Siyosiy PR texnologiyalarining siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy institutlar faoliyatida ijobiy imidj shakllantirish, jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatish, elektorat ishonchini mustahkamlash hamda jamoatchilik fikrini boshqarishdagi roli yoritib beriladi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya vositalarining siyosiy PR faoliyatiga ta'siri va ularning jamiyatdagi siyosiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: siyosiy PR, PR texnologiyalari, siyosiy kommunikatsiya, imidj, jamoatchilik fikri, elektorat.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida siyosiy jarayonlar tobora murakkablashib bormoqda. Jamiyatda axborot oqimining tezlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi siyosiy kommunikatsiya tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Aynan shu sharoitda siyosiy jamoatchilik bilan aloqalar — siyosiy PR muhim strategik vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Siyosiy PR jamiyat va hokimiyat, siyosiy partiyalar va elektorat o'rtasida o'zaro ishonchni ta'minlashga xizmat qiladi. Siyosiy jarayonlarda ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik bilan muloqotning mavjudligi demokratik taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois siyosiy PR texnologiyalarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala sanaladi.

Siyosiy PR tushunchasi va uning mohiyati

Siyosiy PR — bu siyosiy subyektlar (siyosiy partiyalar, davlat organlari, siyosiy yetakchilar) va jamoatchilik o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan aloqalarni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan tizimli va rejalashtirilgan faoliyatdir. Siyosiy PRning asosiy vazifasi siyosiy axborotni jamiyatga aniq, ishonchli va tushunarli shaklda yetkazish orqali jamoatchilik fikrini ijobiy yo'naltirishdan iborat.

Siyosiy PR reklama yoki targ'ibotdan farqli ravishda bir tomonlama ta'sir ko'rsatishga emas, balki ikki tomonlama muloqotga asoslanadi. Bu jarayonda jamoatchilik fikrini o'rganish, uni tahlil qilish va unga mos ravishda kommunikatsion strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.



Zamonaviy PR texnologiyalarining ahamiyati

Zamonaviy PR texnologiyalari siyosiy jarayonlarda muhim o‘rin tutadi. PR texnologiyalari deganda siyosiy PR faoliyatini amalga oshirishda qo‘llaniladigan usullar, vositalar va kommunikatsion mexanizmlar majmui tushuniladi. Bularga press-revizlar, matbuot anjumanlari, intervyular, jamoatchilik bilan uchrashuvlar, ijtimoiy tadbirlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan tizimli hamkorlik kiradi.

PR texnologiyalari orqali siyosiy partiyalar o‘z dastur va g‘oyalarini jamoatchilikka yetkazadi, ijobiy imidj shakllantiradi hamda elektorat bilan barqaror aloqa o‘rnatadi. Ayniqsa, saylov jarayonlarida PR texnologiyalarining roli yanada oshadi, chunki aynan shu davrda jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli PR texnologiyalari va ularning jamiyatdagi roli

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi siyosiy PR faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, bloglar va onlayn platformalar siyosiy kommunikatsiyaning asosiy vositalariga aylandi. Raqamli PR texnologiyalari siyosiy subyektlarga elektorat bilan bevosita, tezkor va interaktiv muloqot olib borish imkonini bermoqda.

Raqamli PRning afzalligi shundaki, u orqali jamoatchilik fikrini tezda o‘rganish, tahlil qilish va unga mos javob choralari ishlab chiqish mumkin. Bu esa siyosiy jarayonlarda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, siyosiy PR texnologiyalari jamiyatda siyosiy ongni shakllantirish, jamoatchilik fikrini boshqarish va ijobiy siyosiy imidj yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy PR texnologiyalaridan samarali va mas’uliyatli foydalanish siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, jamiyat va hokimiyat o‘rtasida ishonch muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois siyosiy PR texnologiyalarini ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grunig J. *Public Relations Theory*. — New York, 2014.
2. Cutlip S., Center A. *Effective Public Relations*. — London, 2012.
3. Siyosiy kommunikatsiya asoslari. — Toshkent, 2020.
4. Zamonaviy siyosiy jarayonlar va PR texnologiyalari. — Toshkent, 2022.



MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISHDA TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti
Seytimbetov Samat Maratovich**

Annotatsiya

MASLD tushunchasining joriy etilishi jigar yogʻlanishining metabolik asoslarini aniqroq tavsiflash imkonini berdi. Hozirgi ilmiy qarashlarga koʻra, MASLD bir xil klinik birlik emas, balki steatozdan tortib ilgʻor fibroz va sirrozgacha boʻlgan keng morfologik spektrni oʻz ichiga oladi. Aholi orasida metabolik sindromning keng tarqalishi ushbu kasallikning demografik jihatdan notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Zamonaviy meta-tahlillar natijalariga koʻra, MASLD bilan kasallangan shaxslarning **1)** taxminan 55–65 % ida oddiy steatoz shakli aniqlanadi. Ushbu bosqichda klinik simptomatika minimal boʻlsa-da, metabolik yuklama ortishi bilan kasallikning progressiyasi kuzatiladi. **2)** 20–30 % bemorlarda metabolik steatohepatit rivojlanib, u yalligʻlanish va gepatotsit shikastlanishi bilan kechadi. **3)** Klinik ahamiyatli fibroz esa MASLD holatlarining 10–15 % ida aniqlanib, uzoq muddatli prognozni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. **4)** Sirroz rivojlanishi nisbatan kam (2–5 %) boʻlsa-da, u jigar bilan bogʻliq mortalitetning asosiy sababidir. Demografik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, MASLDning tarqalishi yosh oshishi bilan ortadi. **5)** 18–39 yosh guruhida kasallik asosan steatoz bilan cheklansa, **6)** 40 yoshdan keyin steatohepatit va fibroz ulushi sezilarli darajada ortadi. **7)** 60 yoshdan yuqori shaxslarda esa ilgʻor fibroz chastotasi yosh guruhlariga nisbatan 2–3 baravar yuqori ekani qayd etilgan. Koʻplab xalqaro tadqiqotlarda MASLD erkaklarda ayollarga nisbatan **8)** 1,3–1,6 baravar koʻproq uchrashi aniqlangan. Biroq ayollarda postmenopauzal davrda fibroz rivojlanish xavfi ortadi. **9)** Bu holat estrogen yetishmovchiligi va visseral yogʻ toʻplanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ayollarda kasallik kechroq aniqlanib, koʻpincha rivojlangan bosqichlarda tashxislanadi. Global epidemiologik maʼlumotlarga koʻra, MASLD tarqalishi hududlar boʻyicha sezilarli farqlanadi. **10)** Shimoliy Amerika va Yaqin Sharq mamlakatlarida umumiy tarqalish 35–40 % gacha yetadi. **11)** Osiyo mintaqasida esa normal tana vazniga ega shaxslarda ham MASLD uchrashi yuqori boʻlib, bu “lean MASLD” fenomeni bilan bogʻliq. **12)** Yevropa mamlakatlarida kasallik koʻproq keksa yosh guruhlarida aniqlanadi. Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, MASLDning strukturaviy ogʻirligi demografik omillar bilan bevosita bogʻliq. **13)** Erkak jins, **14)** katta yosh, **15)** urbanizatsiyalashgan turmush tarzi va **16)** ijtimoiy-iqtisodiy omillar kasallik progressiyasini tezlashtiradi. Shu bilan birga, **17)** erta yoshda aniqlangan steatoz holatlarida hayot tarzini oʻzgartirish orqali regressiya ehtimoli yuqori. Soʻnggi tadqiqotlar MASLDni populyatsion



darajada baholashda faqat umumiy tarqalish ko'rsatkichlari emas, balki **18)** strukturaviy fenotiplar va **19)** demografik risk profillarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. **20)** Bu yondashuv skrining strategiyalarini individuallashtirish va sog'liqni saqlash resurslarini samarali taqsimlash imkonini beradi. MASLD ko'p qirrali va demografik jihatdan heterogen kasallik bo'lib, uning strukturaviy shakllari yosh, jins va mintaqaviy omillar bilan uzviy bog'liq. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, demografik determinantlarni hisobga olgan holda olib borilgan baholash va monitoring MASLD bilan bog'liq og'ir asoratlarning oldini olishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eslam, M., et al. (2020). *Journal of Hepatology*, 73, 202–209.
2. Younossi, Z. M., et al. (2018). *Hepatology*, 64, 73–84.
3. Younossi, Z. M., et al. (2019). *Journal of Hepatology*, 71, 793–801.
4. Estes, C., et al. (2018). *Hepatology*, 67, 123–133.
5. Powell, E. E., et al. (2021). *The Lancet*, 397, 2212–2224.
6. Rinella, M. E. (2015). *JAMA*, 313, 2263–2273.
7. Lonardo, A., et al. (2019). *Hepatology*, 70, 1457–1469.
8. Anstee, Q. M., et al. (2021). *Nature Reviews Gastroenterology & Hepatology*, 18, 703–716.
9. Byrne, C. D., & Targher, G. (2015). *BMJ*, 350, g4596.
10. Le, M. H., et al. (2023). *Hepatology*, 77, 1345–1357.
11. Fan, J. G., et al. (2017). *Journal of Hepatology*, 67, 862–873.
12. Ye, Q., et al. (2020). *Metabolism*, 103, 154032.
13. Mantovani, A., et al. (2020). *Diabetes Care*, 43, 190–198.
14. Friedman, S. L., et al. (2018). *Nature Medicine*, 24, 908–922.
15. Ratziu, V., et al. (2022). *Gastroenterology*, 162, 1594–1606.
16. Lazarus, J. V., et al. (2022). *Lancet Gastroenterology & Hepatology*, 7, 306–315.
17. Adams, L. A., et al. (2017). *Hepatology*, 65, 113–123.
18. Castera, L., et al. (2019). *Journal of Hepatology*, 70, 370–398.
19. Loomba, R., et al. (2021). *Hepatology*, 74, 328–357.
20. Wong, V. W. S., et al. (2020). *Gut*, 69, 1304–1312.



PROFESSIONAL DEVELOPMENT: INTERNATIONAL QUALIFICATIONS AND CERTIFICATES FOR ENGLISH TEACHERS

Jo'rayeva Laylo Sirojiddin qizi

3rd year student at UzNPU

Scientific supervisor: **XATIRA GAYBULLAYEVA**

Teacher of Uzbek National Pedagogical University

Department of the Theory and Methodology of English

Abstract

This paper explores the importance of professional development for English language teachers through internationally recognized qualifications and certificates. As global demand for high-quality English education continues to rise, teachers are expected to demonstrate both strong language proficiency and advanced pedagogical skills. International certifications such as TESOL, TEFL, CELTA, and DELTA serve as reliable indicators of a teacher's competence, providing structured training in methodology, classroom management, and assessment. These qualifications not only enhance teaching effectiveness but also open opportunities for career advancement in international schools, language centers, and online learning platforms. The study emphasizes that obtaining global teaching credentials empowers educators to meet international standards, adapt to diverse learning environments, and contribute to improved learning outcomes. Professional development through such certifications is therefore essential for teachers seeking long-term growth and global employability.

Keywords:

International qualifications, TESOL, TEFL, CELTA, DELTA, English teachers, professional development, teacher certification, language, teaching standards, global education standards.

In today's globalized world, English language teachers are expected not only to demonstrate strong language proficiency but also to hold internationally recognized teaching qualifications. Professional development has become an essential aspect of a teacher's career, helping educators improve their skills, stay updated with modern methodologies, and remain competitive in the global job market. International certificates serve as reliable proof of a teacher's competency and commitment to continuous growth.

International teaching qualifications ensure that English teachers meet global standards in language instruction. These certificates validate a teacher's understanding of pedagogy, classroom management, lesson planning, assessment techniques, and modern teaching



strategies. Moreover, they increase employment opportunities in international schools, language centers, and online teaching platforms.

a. TESOL (Teaching English to Speakers of Other Languages). TESOL is one of the most widely recognized certificates for teaching English to non-native speakers. It focuses on language acquisition theory, learner needs, and practical teaching skills. TESOL holders can work in various countries, making it ideal for teachers who aim to work abroad or online.

b. TEFL (Teaching English as a Foreign Language). TEFL prepares teachers to work with learners whose first language is not English. It is accepted internationally and is especially popular among teachers who plan to teach English in Asia, Europe, and Latin America. TEFL courses often include practical components, such as lesson planning and teaching practice.

c. CELTA (Certificate in Teaching English to Speakers of Other Languages). CELTA, provided by Cambridge Assessment English, is considered one of the most prestigious teaching qualifications. It focuses heavily on hands-on teaching practice, real classroom experience, and detailed feedback from experienced trainers. CELTA is highly valued by employers worldwide. CELTA from Cambridge is a qualification for teaching English as a foreign language. It is the most widely recognised English teaching qualification in the world and the most often requested by employers; three out of four English language teaching jobs require a CELTA qualification. It focuses on developing practical techniques, and includes face-to-face or online teaching practice with groups of learners, which will give you the confidence you need to begin teaching in as little as four weeks. Whether you're looking for your first teaching job, or you want to prove to employers that you have the required teaching skills with a recognised certificate, CELTA from Cambridge is the qualification you need. There is a lot to consider when it comes to choosing a qualification for teaching English as a foreign language. Is it globally recognised? Will you get practical teaching experience? How long is the course? Find out why teachers choose CELTA over other TEFL/TESOL qualifications in our blog. Teaching English as a foreign language can be a rewarding career path, whether you're teaching in your own country or planning to travel. You can develop your teaching skills, experience new opportunities, travel the world, enjoy greater flexibility and develop transferable workplace skills. Find out what it involves and the many benefits in our blog.

d. DELTA (Diploma in Teaching English to Speakers of Other Languages). DELTA is an advanced qualification for experienced teachers. It offers deep knowledge of language learning theory, methodology, and curriculum design. DELTA-certified teachers are often eligible for academic leadership roles, such as senior teacher, course designer, or teacher trainer. Take your teaching career to the next level. DELTA is an advanced blend of theory and practice that provides professional development for teachers with at least one year's experience. It gives you skills and techniques that will help you throughout your career. If you are ready to take your DELTA module, the next step is to find a centre near you. Key features



of DELTA. DELTA is taken over three modules – you can take as many modules as you like, in any order. Deepens your knowledge and understanding of English language teaching. Internationally recognised, highly respected and a benchmark for quality. Enables you to develop your career and prepare for more senior teaching roles. Who is DELTA for? English language teachers who have been teaching for at least one year. English language teachers who want to progress into more senior roles such as head of English and teacher training. Experienced teachers who want to extend their expertise in a specialist area. First-language English speakers and non-first language speakers who have a CEFR Level of high C1 or above DELTA is suitable for teaching any age group, from young learners to adults. Cambridge English offers a range of professional development options for teachers, regardless of their level of experience or training. We have teaching qualifications for every kind of English language teacher, and courses and materials to help you manage your own professional development and improve your everyday teaching. All of our support for teachers is built around the Cambridge English Teaching Framework, which allows you to easily see where you are in your teaching career, and plan where you want to go next. I think that DELTA has been the most inspiring teaching qualification that I’ve taken, and it’s been the one that has opened more doors.

Improved teaching skills through exposure to modern approaches and practical training. Increased employability in international schools and online platforms. Higher salary potential. Career advancement, including leadership and training positions. Global mobility, making it easier to work in different countries

In conclusion international qualifications play a key role in the professional development of English teachers. They not only enhance teaching competence but also open doors to global career opportunities. By obtaining certificates such as TESOL, TEFL, CELTA, or DELTA, teachers can strengthen their professional profile and deliver high-quality education that meets international standards.

References

“What is TEFL, TESOL, TESL, CELTA & DELTA?” — site TEFL Org
<https://www.tefl.org/>

“English Teaching Certifications — TEFL, TESOL & CELTA Guide” —
https://teachenglishonline.org/en/certification/?utm_source=chatgpt.com

TeachEnglishOnline.org https://www.tesolcourse.com/tesol-faqs/tefl-tesol/what-is-the-difference-between-tefl-tesol-and-celta/?utm_source=chatgpt.com

“What is the difference between TEFL, TESOL and CELTA?” — site TESOL course.com
https://www.tesolcourse.com/tesol-faqs/tefl-tesol/what-is-the-difference-between-tefl-tesol-and-celta/?utm_source=chatgpt.com



“What’s the difference? CELTA, DELTA, TESOL and TEFL” — site
TEFLzonehttps://teflzone.com/whats-the-difference-celta-delta-tesol-and-tefl/?utm_source=chatgpt.com.

"What is CELTA?" CELTA Certificate in Teaching English to Speakers of Other Languages
<https://www.cambridgeenglish.org/teaching-english/teaching-qualifications/celta/>

"What is DELTA?" (Diploma in Teaching English to Speakers of Other Languages)
<https://www.cambridgeenglish.org/teaching-english/teaching-qualifications/delta/>

**FAYNBERG IJODINING YOSH AVLOD SHOIRLARIGA ILHOM MANBAI
SIFATIDAGI O'RNI****Erkinboyeva Aziza Ruslonovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 1- fakulteti
2-bosqich talabasi azizaruslonovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg ijodining yosh avlod shoirlari dunyoqarashi va poetik tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shoirning urush, tinchlik, xotira, insoniy mas'uliyat va hayot mazmuni haqidagi falsafiy qarashlari yosh ijodkorlar ijodini ruhlantiruvchi manba sifatida yoritiladi. Maqolada Faynberg she'riyatining badiiy xususiyatlari, lirik qahramonning ruhiy olami va uning bugungi avlod uchun ahamiyati izchil sharhlanadi.

Kalit so'zlar: Faynberg, yosh shoirlar, ilhom manbai, falsafiy lirika, urush va tinchlik, poetik tafakkur, zamonaviy she'riyat.

ABSTRACT

This article explores the impact of Aleksandr Faynberg's poetry on the worldview and creative development of young poets. It focuses on themes such as war and peace, memory, human responsibility, and the meaning of life, showing how they inspire and guide the younger generation of writers. The poetic features of Faynberg's works and the spiritual world of his lyrical hero are analyzed with reference to their relevance today.

Keywords: Faynberg, young poets, inspiration, philosophical lyric poetry, war and peace, poetic worldview.

АННОТАЦИЯ:

В статье рассматривается влияние поэзии Александра Файнберга на мировоззрение и творческое становление молодых поэтов. Анализируются темы войны и мира, памяти, человеческой ответственности и смысла жизни, показывается, как они служат источником вдохновения для молодого поколения. Раскрываются особенности поэтики Файнберга и внутренний мир его лирического героя, подчёркивается современная актуальность его творчества.

Ключевые слова: Файнберг, молодые поэты, источник вдохновения, философская лирика, война и мир, поэтическое мышление.

Aleksandr Faynberg ijodi o'zbek adabiy hayotida o'ziga xos manba sifatida qadrlanadi. Uning she'riyati nafaqat badiiy go'zallik, balki fikrlashga undovchi kuch, mas'uliyat uyg'otuvchi ruh, insonni o'zi bilan suhbatga chorlaydigan maktabdir. Shu boisdan ham Faynberg asarlari bugungi kunda ijod yo'liga kirib kelayotgan yosh avlod uchun muhim

www.innovativepublication.uz



ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Yosh shoirlar odatda hayotning ma’nosi, insonning jamiyat oldidagi burchi, o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida savollar beradi. Faynberg she’riyatining qiymati shundaki, u bu savollarga tayyor javob bermaydi, lekin insonni o‘ylashga, izlashga, o‘z qalbini tinglashga majbur etadi. Faynbergning lirik qahramoni sokin, chuqur, o‘z-o‘ziga savol beradigan insondir. Mana shu ichki suhbat bugungi yosh ijodkorlarga ham xos bo‘lib bormoqda.

Faynberg ijodida urush mavzusi muhim o‘rin tutadi. U urushni shunchaki tarixiy voqea sifatida tasvirlamaydi. Uning nigohi, avvalo, inson qalbiga qaratilgan. Urush — bu vayron bo‘lgan shaharlar emas, balki sinib ketgan orzular, yo‘qolgan bolalik, xotiradagi alamdirdi. Faynberg she’rlaridagi iztirob ohangi yosh shoirlarga muhim saboq beradi: katta fojiani tasvirlar orqali emas, ichki kechinmalar orqali ko‘rsatish mumkin. Shu sababli bugungi avlod urush mavzusiga mas’uliyat bilan, shiorbozliksiz yondashishga intiladi. Shoirning tinchlik haqidagi qarashlari ham chuqur falsafiydir. Uning nazarida tinchlik — urushning yo‘qligi emas, balki inson qalbining osoyishtaligi, mehr-oqibatning ustuvorligi, bir-birini tushunishga bo‘lgan intilishdir. Yosh shoirlar ham tinchlikni aynan shunday — ruhiy hodisa, insonning ichki holati sifatida talqin eta boshlamoqda. Shunday qilib, Faynberg tinchlik haqidagi oddiy shiorlardan yuqori ko‘tarilib, uni ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘taradi.

Faynberg she’riyatida xotira alohida ahamiyat kasb etadi. Xotira uning uchun o‘tmishda qolgan sahifa emas, balki bugunga ta’sir qiluvchi kuchdir. U unutmazlikka chaqiradi, lekin shunchaki motam tutishga emas, balki xulosa chiqarishga undaydi. Bu yondashuv yosh ijodkorlarga tarixni yodlash bilan birga, undan mas’uliyatli istiqbol qurishni ham o‘rgatadi. Faynberg tilining soddaligi ham uning katta badiiy yutug‘idir. U murakkab fikrni oddiy so‘zlar bilan ifodalaydi, ortiqcha bezakka intilmaydi. Shu bois uning she’rlari ko‘pchilikka tushunarli, ammo chuqur talqinlarni talab qiladi. Yosh shoirlar ham aynan shundan ta’sirlanib, sun’iy balandparvozlikdan ko‘ra samimiy va rostgo‘y so‘zlashga intilmoqda.

Shoir asarlarida tabiat obrazlari ham ko‘p uchraydi. Daraxt, yo‘l, yomg‘ir, shamol — bular oddiy manzara emas, balki inson ruhiyatining ifodasidir. Tabiat bilan suhbatlashayotgan lirik qahramonaslida o‘zi bilan g aplashadi. Tabiat unsurlari orqali insonning ichki iztirobi, quvonchi, izlanishi beriladi. Bu uslub bugungi yosh shoirlarga ham yaqin bo‘lib, ularda ramziy fikrlashni kuchaytiradi. Faynberg ijodi yoshlar uchun nafaqat poetik, balki axloqiy maktabdir. Uning she’rlari inson sha’nini, vijdonini, halolligini ulug‘laydi. Vatan, ona til, insoniylik, mehr-oqibat kabi tushunchalar uning she’riyatida yuksak ma’naviy darajada talqin etiladi. Yosh avlod ham ana shu qadriyatlarga tayanib ijod qiladi, o‘zini jamiyat oldida mas’ul deb his etadi.

Eng muhimi, Faynberg yosh ijodkorni taqlidga emas, o‘z ovozi topishga undaydi. Demak, u birgina shaxs sifatida emas, balki butun bir poetik maktab sifatida namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg ijodi yosh avlod shoirlari uchun: fikrlashga undovchi maktab, vijdon va mas’uliyat, urush va tinchlikni chuqur anglash imkoniyati, o‘zini



topish va erkin fikr bildirish maydoni, samimiy va sodda, ammo mazmunli soʻzlash nam boʻlib xizmat qilmoqda. Shuning uchun Faynberg faqat kechagi kun shoiri emas. Uning sheʼrlari bugun ham oʻqilmoqda, muhokama qilinmoqda, yosh qalblarda yangi savollar uygʻotmoqda. Demak, uning soʻzi tirik, uning ruhi zamondosh, uning ijodi esa kelajak avlod ongida ham oʻz taʼsirini yoʻqotmaydigan maʼnaviy manba sifatida yashashda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faynberg, A. Chigʻir. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.
2. Faynberg, A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Faynberg, A. Sheʼrlar va dostonlar. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti.
4. Gʻanieva, D. Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida falsafiy talqinlar. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Karimov, N. Oʻzbek poeziyasi taraqqiyoti masalalari. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Qosimov, B. Adabiyot nazariyasiga kirish. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
7. Toʻxliyev, B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti.
8. “Oʻzbek adabiyoti tarixi” (jamoʻa muallifligi). – Toshkent: Fan nashriyoti.
9. “Sheʼriyat va zamon” maqolalar toʻplami. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti.

**KLIMAKTERIK SINDROM VA ARTERIAL GIPERTONIYA FONIDA
ARITMIYA: XAVF OMILLARINI BAHOLASH****Otaqo'ziyeva Xamroxon Botirjon qizi**

Andijon davlat tibbiyot instituti Terapiya yo'nalishi 1-bosqich magistratura talabasi

[Xat yozish uchun: E-mail:xamroxonmaxamadjonova@gmail.com

Telefon nomer: +998-90-145-94-42]

Anatatsiya: Klimakterik davrda estrogen darajasining pasayishi arterial gipertoniya va yurak ritmi buzilishlari xavfini oshiradi (1). Arterial gipertoniya postmenopauzal ayollarda atrial fibrillyatsiyaning eng muhim modifikatsiyalanuvchi xavf omillaridan biri hisoblanadi(2). Erta menopauza, metabolik sindrom va psixo-emosional stress aritmiya rivojlanish ehtimolini yanada kuchaytiradi(3).

Kalit so'zlar: klimakterik sindrom, arterial gipertoniya, atrial fibrillyatsiya, aritmiya, menopauza, xavf omillari, dislipidemiya.

Klimakterik davrda estrogen sekresiyasining pasayishi ayollarda metabolik jarayonlar buzilishi, endotelial disfunktsiya va arterial bosimning oshishiga olib keladi, bu esa yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi(1). Estrogen yetishmovchiligi natijasida qon tomir tonusi, renin–angiotenzin tizimining faolligi va tuz-suv muvozanati o'zgarib, gipertoniya rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi(2). Arterial gipertoniya esa postmenopauzal ayollarda aritmiyaning, ayniqsa atrial fibrillyatsiyaning shakllanishida asosiy xavf omili bo'lib, yuqori sistolik bosim atrial miokardning elektr va struktur remodelirovkasiga olib keladi. Erta menopauza (<45 yosh) arterial gipertoniya va atrial fibrillyatsiya xavfini ishonchli ravishda oshirishi ko'plab yirik meta-tahlillarda tasdiqlangan (3). Bundan tashqari, klimakterik sindrom bilan kechayotgan ayollarda dislipidemiya, insulinrezistentlik, tana vaznining ortishi, uyqusizlik, vegetativ disbalans va stress kabi omillar yurak ritmi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi(2). Klinik kuzatuvlarda bunday bemorlarda supraventrikulyar ekstrasistoliya, paroksizmal taxiaritmiyalar hamda atrial fibrillyatsiya ko'proq uchrashi qayd etilgan (4). Aritmiyani o'z vaqtida aniqlash uchun EKG, 24 soatlik Holter monitoringi, arterial bosim monitoringi, lipid profili, glikemiya va tana massasi indeksini baholash tavsiya etiladi(2).

Klimakterik sindrom fonida rivojlangan arterial gipertoniya aritmiya, ayniqsa atrial fibrillyatsiya xavfini sezilarli oshiradi. Gormonal o'zgarishlar, metabolik buzilishlar va psixo-emosional omillar bu jarayonni tezlashtiradi. Xavf omillarini erta aniqlash, arterial bosimni qat'iy nazorat qilish va yurak ritmini muntazam monitoring qilish aritmiyalarni oldini olish va ularning og'ir klinik oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mendelson ME., Karas RH. Menopause and cardiovascular disease: the evidence. PubMed, 2007.
2. Park J., Lee SR., Choi EK. Age at menopause and risk of heart failure and atrial fibrillation. Journal of Cardiology, 2023. Regitz-Zagrosek V. Update on Management of Cardiovascular Disease in Women. Journal of Clinical Medicine, 2022.
3. .Regitz-Zagrosek V. Update on Management of Cardiovascular Disease in Women. Journal of Clinical Medicine, 2022.
4. Zhu D., Chung HF., Pandeya N. Early menopause and risk of arterial hypertension: Systematic review and meta-analysis. Maturitas, 2020.

**HUQUQIY NIZOLARNI HAL QILISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV****Nizomiy nomidagi O'zMPU talabasi****Valiyeva Adiba Alisherovna****Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi****Xayitova Zilola Maxmudjanovna****Annotatsiya:**

Ushbu maqolada huquqiy nizolarni hal qilish jarayonida psixologik yondashuvning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Psixologik omillar tomonlararo muloqot, nizolarni oldini olish va sulh jarayonlarini yaxshilashda muhim rol o'ynashi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: huquqiy nizolar, psixologik yondashuv, nizolarni hal qilish, muloqot, sulh, taraflararo munosabat, hissiy intellekt, konfliktni boshqarish, qaror qabul qilish, nizolarni oldini olish

Аннотация:

В статье анализируется значение и эффективность психологического подхода в процессе разрешения правовых споров. Показано, что психологические факторы играют важную роль в коммуникации сторон, предотвращении конфликтов и улучшении процедуры примирения.

Ключевые слова: правовые споры, психологический подход, разрешение конфликтов, коммуникация, примирение, взаимоотношения сторон, эмоциональный интеллект, управление конфликтом, принятие решений, предотвращение конфликтов

Abstract:

The article examines the importance and effectiveness of a psychological approach in resolving legal disputes. It demonstrates that psychological factors play a key role in communication between parties, conflict prevention, and enhancing the reconciliation process.

Keywords: legal disputes, psychological approach, conflict resolution, communication, reconciliation, interparty relations, emotional intelligence, conflict management, decision making, conflict prevention

Kirish. Hozirgi davrda huquqiy tizimda nizolarni samarali va tezkor hal qilish masalasi juda dolzarb hisoblanadi. An'anaviy huquqiy yondashuvlar ko'pincha faqat qonuniy normativlarga tayanadi, ammo ularning samaradorligi ko'pincha tomonlarning hissiy va psixologik holatini hisobga olmaslik tufayli cheklanadi. Shu bois, psixologik yondashuvlarni qo'llash nizolarni hal qilish jarayonini yanada mazmunli, tomonlararo muloqotni samarali va sulhni barqaror qiladi.

Psixologik yondashuvning asosiy maqsadi - tomonlarning hissiy holatini tushunish, ularni



konstruktiv muloqotga yo'naltirish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish imkoniyatlarini oshirishdir. Shu nuqtai nazardan, huquqiy nizolarni hal qilishda psixologik omillarni o'rganish va qo'llash, nafaqat individual holatlarda, balki ijtimoiy va huquqiy tizimlar samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola huquqiy nizolarni hal qilish jarayonida psixologik yondashuvning asosiy tamoyillari, uning amaliy metodlari va samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism. Huquqiy nizolarni faqat qonun doirasida hal qilish urf-odatga aylangan bo'lishiga qaramay, zamonaviy huquqshunoslik va psixologiya olimlari orasida nizolarni boshqarishda psixologik omillarni hisobga olish zarurligi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. An'anaviy yondashuvlarda sud-jarayonlari hamda yuridik hujjatlar asosida qarorlar qabul qilinadi, lekin bu usul ko'pincha tomonlar orasidagi hissiy ziddiyat, ishonchsizlik va tushunmovchiliklarni bartaraf etishda yetarli samara bermaydi. Shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar psixologik usullar yordamida nizolarni hal qilishning muqobil yo'llarini taklif qiladilar.

Masalan, «muammolarni hal qilish va nizolarni boshqarishda psixologik yondashuv» nomli tadqiqotda empatiya, faol tinglash, emotsional intellekt va konstruktiv muloqot metodlari nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda asosiy vosita sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bunday usullar, taraflarning hissiy holatini tushunish va ularning manfaatlarini inobatga olgan holda qaror topish imkonini yaratadi.

Shuningdek, ijtimoiy psixologiya doirasidagi tadqiqotlar shaxslararo munosabatlarda kelib chiqadigan konfliktlarning ildizida ko'pincha noto'g'ri muloqot, empatiya va ishonch etishmasligi yotishini ko'rsatadi. Bu nuqtai nazardan, nizolarni hal etishda hissiy va psixologik komponentlarni hisobga olish, taraflar o'rtasida konstruktiv dialoqni shakllantirish va nizolarni kelajakda oldini olishga yordam beradi.

Huquqiy kontekstda psixologik yondashuvlardan foydalanish istiqbollari «terapevtik huquqbuzarlik» (therapeutic jurisprudence) kontseptsiyasi doirasida keng o'rganilgan. Bu yondashuv huquqni tatbiq etishda sud proseslarida advokat va hakamlar tomonidan sudlanuvchining psixologik holatini inobatga olib, qarorlarni nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va ruhiy ahvol nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqishni tavsiya etadi. Bu amaliyotni mazkur maqolalar yurisdiksiya sohasidagi nizolarni hal qilish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'radi.

Bundan tashqari, psixologik kompetentsiya va konfliktologik kompetentsiyaga ega bo'lgan shaxslar - nazariy jihatdan emas, balki amalda ham nizolarni konstruktiv yo'l bilan hal qila oladigan xodimlar yoki maslahatchilar bo'lishi mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan. Masalan, psixologik treninglar va maslahatlar yordamida, tomonlar o'z his-tuyg'ularini tushunib, ularni konstruktiv ifoda eta olish ko'nikmasini rivojlantirishi mumkin - bu esa nizoni sudga tortmasdan ham hal etishga imkon beradi.

Shunday qilib, psixologik yondashuvlar huquqiy nizolarni hal qilishda yangi paradigma taklif



etadi: bu paradigma nizolarni faqat yuridik jihatdan emas, balki insonlarning hissiy, ijtimoiy va psixologik holatini inobatga olib hal qilishga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuv tinch, konstruktiv va barqaror yechimlar topish imkonini beradi, taraflararo muloqotni mustahkamlaydi va ijtimoiy adolat hamda ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Ushbu maqola o'sha yondashuvning nazariy asoslarini, amaliy metodlarini va ularning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, garchi bu soha nisbatan yangi bo'lsa-da, uning huquqiy tizimlarda qo'llanishi kelajakda ijtimoiy nizolarni muammosiz hal qilishga katta hissa qo'sha oladi.

Jadval 1.**Huquqiy nizolarni hal qilish usullari va psixologik yondashuvlar ta'siri**

Nizolarni hal qilish usuli	Psixologik yondashuv elementi	Samaradorlik va ta'siri	Izoh
Sud orqali hal qilish	Hissiy holatlarni baholash, taraflarni tinglash	O'rta, sud jarayoni rasmiy va qat'iy, hissiy omillarni cheklaydi	Qonuniy normativlarga asoslanadi, lekin taraflararo muloqot cheklangan
Meditatsiya va sulh	Faol tinglash, empatiya, konstruktiv muloqot	Yuqori, taraflar o'rtasida ishonch va kelishuv oshadi	Psixologik vositalar yordamida taraflarning manfaatlarini muvofiqlashtiriladi
Arbitratsiya	Stressni boshqarish, hissiy intellekt	O'rta, qaror qabul qilishda neytral arbitraj mumkin	Arbitr qo'llaniladi, psixologik maslahatlar yordamida nizolar yumshatiladi
Qarama-qarshi uchrashuvlar	Konfliktni boshqarish, emotsional intellekt	Yuqori, tomonlar o'zaro tushunishni oshiradi	To'g'ridan-to'g'ri muloqot, psixologik yondashuv orqali nizolar kamayadi

Tahlil:

Jadval ko'rsatib turibdiki, psixologik yondashuvlar bilan boyitilgan sulh va qarama-qarshi uchrashuvlar sud orqali hal qilishga nisbatan ko'proq samaradorlikka ega. Psixologik vositalar taraflarning hissiy holatini tushunishga, konstruktiv muloqotni shakllantirishga va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam beradi. Sud jarayoni rasmiy va qat'iy bo'lgani uchun psixologik omillarni cheklangan darajada qo'llash mumkin, shuning uchun uning samaradorligi pastroq.

Sxema 1.**Huquqiy nizolarni hal qilishda psixologik yondashuv jarayoni**



Nizo kelib chiqishi



Hissiy holatlarni aniqlash



Empatiya va faol tinglash



Konfliktni boshqarish metodlarini qo'llash



Konstruktiv muloqot va kelishuv



Nizo hal qilindi va taraflar qoniqdi

Tahlil:

Sxema nizo kelib chiqishidan boshlab, psixologik vositalar yordamida uni hal qilish jarayonini bosqichma-bosqich ko'rsatadi. Hissiy holatlarni aniqlash va empatiya orqali taraflar o'rtasida ishonch o'rnatiladi, konstruktiv muloqot esa nizoni samarali va barqaror hal qilish imkonini yaratadi. Sxema psixologik yondashuvning nizolarni hal qilish jarayonidagi markaziy o'rni va ahamiyatini vizual tarzda tushuntiradi.

Xulosa. Huquqiy nizolarni hal qilishda psixologik yondashuvni qo'llash, nafaqat taraflar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash, balki nizolarning kelib chiqish sabablarini chuqur tushunishga ham yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yuridik usullar faqat qonuniy normativlar asosida qaror qabul qilsa, psixologik yondashuv taraflarning hissiy holatini inobatga olib, nizolarni barqaror va tinch yo'l bilan hal qilish imkonini oshiradi. Empatiya, faol tinglash, konstruktiv muloqot va hissiy intellekt kabi psixologik vositalar sud yoki arbitratsiya jarayonlarini to'ldiruvchi samarali mexanizmlar sifatida xizmat qiladi.

Jadval va sxemalar tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik yondashuv bilan boyitilgan sulh va qarama-qarshi uchrashuvlar sud orqali hal qilishga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Shu bois, huquqiy nizolarni hal qilish jarayonida psixologik metodlarni qo'llash, taraflarning manfaatlarini muvofiqlashtirish, ishonch va konstruktiv muloqotni oshirish, shuningdek, konfliktlarning kelajakda takrorlanishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, huquqiy tizimda psixologik yondashuvni integratsiya qilish nizolarni tezkor, adolatli va barqaror tarzda hal qilishning samarali yo'li bo'lib, huquqshunoslik va psixologiya fanlarining o'zaro uyg'unlashgan ishlashini ta'minlaydi. Shu sababli, kelajakda



huquqiy va psixologik bilimlarni birlashtirgan interdisipliner yondashuvlar yanada rivojlantirilishi va amaliyotda keng joriy etilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elov, Ziyodullo Sattorovich. *Sud-psixologik ekspertizalar o‘tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari*. 2024 - *Technical Science Research in Uzbekistan*.
2. Normurodov, G‘ulomiddin Abdimurodovich. *Yuridik tashkilotlarga psixologik xizmat ko‘rsatishning psixologik mexanizmlari*. 2023 - *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*.
3. Powell, Emilia Justyna. *Islamic Law and International Law: Peaceful Resolution of Disputes*. 2020 - Oxford University Press.
4. Gavrielides, Theo; Velez, Gabriel (tahrir). *Restorative Justice: Promoting Peace and Wellbeing*. 2022 - Springer.

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

1	Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning integrativ-metodik tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni – Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	4–6
2	KICHIK BIZNESNI RIVOJLANISHI VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI UZLUKSIZ MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHI – Karimova Mavjuda Boxodirovna	7–10
3	СИСТЕМА СИНОНИМОВ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ – Тилевмурдова Фарида, Копалова Севинч, Зариббоева Файруза	11–13
4	NAVOIY LIRIKASIDA MUHABBAT VA MA'NAVIY POKLIK TIMSOLLARI – Quldoshova Sadoqat Komil qizi	14–18
5	Integrativ yondashuv bilan boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish usullari – Hakimova Sanobar Abdumo'minovna	19–22
6	TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI – Xolmirzayeva Shaxnoza Rahimberdiyevna	23–25
7	RIVOJLANTIRUVCHI SOHALAR KOMPETENSIYALARINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI – Jo'rayeva Zilola Sayfiddin qizi	26–29
8	“Nurli maskan” iqtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va ta'biy fanlarni integrativ o'qitish metodikasi – Sobirova Mashxura Ubaydullaevna	30–33
9	Korreksion-pedagogik o'yin texnologiyalari orqali aqli zaif o'quvchilarda kognitiv faollikni uyg'otish metodlari – Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna, Djabborova Dildora Hakimjonovna	34–37
10	Singulyar-amaliy iqtisodiy samaradorlik (SES) modelining matematik tahlili – Bobojonova Zarnigor	38–43
11	SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INTERFAOL METODLAR VA O'YINLAR YORDAMIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI – Xalilova Soxibajon Komiljonovna	44–47
12	ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ СИСТЕМ ВЕНТИЛЯЦИИ И КОНДИЦИОНИРОВАНИЯ ВОЗДУХА – Мамадиёров Сардор, Мансурова Шахноза Пулатовна	48–51
13	Jahon mamlakatlari aloqa korxonalarining xizmatlarini diversifikatsiyalashda nufuzli korxonalarning strategiyalari – Gafurov Ravshan	52–55
14	Jahon mamlakatlari aloqa korxonalarining xizmatlarini diversifikatsiyalashning ilg'or tajribalari – Gafurov Ravshan	56–60
15	Raqamlashtirish tushunchasi va uning xizmatlar sohasidagi o'rni – Islomov Javlon Rasulovich	61–67
16	Raqamlashtirish tushunchasining Markaziy Osiyoda talqin etilishi va uning xizmatlar sohasidagi o'rni – Islomov Javlon Rasulovich	68–72
17	Raqobatbardoshlikning iqtisodiy mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar – Ismoilova Nodira	73–77
18	Raqobatbardoshlikning iqtisodiy-nazariy asoslar – Ismoilova Nodira	78–82

**“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR
VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI”**

19	THE ROLE OF PR CAMPAIGNS IN THE IMPLEMENTATION OF STATE REFORMS IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION – Muslima Jienbaeva Jiemuratovna	83–85
20	YAQIN TILLARDAN TARJIMA VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI – Yeshboyeva Matluba	86–90
21	IELTS VA TOEFLNI TAHLILIIY TAQQOSLASH – Homidova Shohsanam Ergashali qizi, Xolmurodova Maftuna	91–92
22	IELTS va TOEFLNI TAQQOSLASH – Xolmurotova Zilola, Mamayusupova Marjona, Xudoyqulova Farangiz	93–97
23	CEFR TIZIMIGA KIRISH – Xolmurotova Zilola, Mamayusupova Marjona, Xudoyqulova Farangiz	98–100
24	YER OSTIDAN OLINADIGAN ICHIMLIK SUVLARI HAQIDA – Tuychiyeva Ixtibar Abdurasulovna, Oripova Odina Saidbori qizi, Xudayberdiyeva Ruxshona Dilshod qizi	101–103
25	TARBIYANING UMUMIY METODLARI – Oltiboyeva Muyassar Nurali qizi	104–107
26	BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK VA METODOLOGIK TAHLILI – Davlatova Lobarxon Zokirjon qizi	108–114
27	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ART TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI – Arabbayeva Hilola Samijon qizi	115–119
28	THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF ADVERTISING ON CONSUMER BEHAVIOR: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS IN THE CONTEXT OF DIGITAL COMMUNICATION – Amanbaeva Dilbar Baxtiyarovna	120–123
29	INFLUENCE MARKETING VA UNING AUDITORIYAGA PSIXOLOGIK TA'SIRI – Jangabaeva Gulnara Raxat qizi	124–126
30	Toshkentdagi O'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlar – Pardaboyev Anvar Pardaboyevich, Farhodova Madina Maxmud qizi	127–130
31	ОМОНИМЫ – Джураева Фарахбону Исматуллаевна, Умаркулова Фариза, Хусенова Камила	131–133
32	VAQTNI BOSHQARISH VA INSON RESURSLARI: ISHCHI KUCHI UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI – To'raqulov Sodiqjon, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	134–139
33	KRIZIS SHAROITIDA PRNING BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI – Aygul Nurlimuratova	140–142
34	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MONOLOGIK NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI VA PEDAGOGIK ASOSLARI – Jabborova Marifat Qodiraliyevna, Raximboyeva Sarvinoz Rasulberdi qizi	143–145
35	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI TARBIYALASHDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI – Jabborova Marifat Qodiraliyevna, Xamidjonova Zuxraxon Zafarjon qizi	146–148
36	Shaxs xulqidagi nizolarning psixik mexanizm sifatida talqini – Karamova Mohinur Faxritdin qizi	149–153
37	The Impact of Uzbek Phonetic Features on English Pronunciation Acquisition – Topvoldieva Dilbarkhon, Ikramova Saida	154–156



“NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI”

38	REAL VAQT REJIMIDA YANCHISH JARAYONINI MONITORING QILISH VA TAHLIL ETISHNING INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMINI ISHLAB CHIQISH – Boybutayev Sanjar Baxritdinovich, Oripov Bobur Turgun o'g'li, Teshayev Abdulxay Baxtiyor o'g'li	157–162
39	SIYOSIY PR TEXNOLOGIYALARINING JAMIYATDAGI O'RNI – Abatniyazova Aygul Shamurat qizi	163–164
40	MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISHDA TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH – Seytimbetov Samat Maratovich	165–168
41	“Nasos qurilmalarini intellektual boshqarish tizimini ishlab chiqish” – Hasanov Shahzod Mirzohidovich	169–171
42	“Nasos qurilmalarini intellektual boshqarish tizimini ishlab chiqish” – Hasanov Shahzod Mirzohidovich	172–174
43	COMMUNICATIVE COMPETENCE: FORMATION AND TECHNIQUES – Rashov Oybek Sobit ugli	175–178
44	FOND BOZORI RIVOJI VA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK – Sultanova Komila Quدرات qizi	179–183
45	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА КОГНИТИВНУЮ НАГРУЗКУ И ОБУЧЕНИЕ – Мукаддас Озодова, Гайбуллаева Х.М.	184–189
46	Қўғирчоқ театри ва иммерсив туризм уйғунлиги – Аминова Махфират Мухтаровна	190–194
47	Katta mas'uliyat – kichik oylik: O'zbekistondagi buxgalterlar mehnatiga haq to'lash masalalari – Najimova Nigora, Musurmonov Ozodbek	195–199
48	THE ROLE OF CEFR IN STANDARDIZING ENGLISH LANGUAGE ASSESSMENT WORLDWIDE – Izzatullayeva Nozimakhon Elmurod kizi	200–202
49	“Metabolik assotsirlangan jigar yog'li kasalliklari (MASLD/MAFLD) strukturasi va demografik ko'rsatkichlari” – Obidjonov Isroiljon Ismoiljon o'g'li, Qodirov Dilshodbek Abduqahhorovich	203–205
50	PROFESSIONAL DEVELOPMENT: INTERNATIONAL QUALIFICATIONS AND CERTIFICATES FOR ENGLISH TEACHERS – Jo'rayeva Laylo Sirojiddin qizi, Xatira Gaybullayeva	206–209
51	FAYNBERG IJODINING YOSH AVLOD SHOIRLARIGA ILHOM MANBAI SIFATIDAGI O'RNI – Erkinboyeva Aziza Ruslonovna	210–212
52	KLIMAKTERIK SINDROM VA ARTERIAL GIPERTONIYA FONIDA ARITMIYA: XAVF OMILLARINI BAHOLASH – Otaqo'ziyeva Xamroxon Botirjon qizi	213–214
53	HUQUQIY NIZOLARNI HAL QILISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV – Valiyeva Adiba Alisherovna, Xayitova Zilola Maxmudjanovna	215–219